


TURKIY XALQLAR ADABIYOTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

Uslubiy qo'llanma

I qism

*SamDU o'quv-uslubiy kengashining
2012-yil 4-iyundagi yig'ilishida
uslubiy qo'llanma sifatida nashrga
tavsiya etilgan
(8-majlis bayonnomasi).*

SAMARQAND - 2012

UDK: 891.709

BBK 83.3U3

D 13

891.709
T89

Turkiy xalqlar adabiyoti. Uslubiy qo'llanma. I qism. –Samarqand:
SamDU nashri. 2012. – 116 bet.

“Turkiy xalqlar adabiyoti” uslubiy qo'llanmasi fanning o'quv va ishchi dasturlari asosida yaratilgan. Ushbu qo'llanmada turkiy qavmga mansub bo'lgan turkiy adabiy yodgorliklar, ozarbayjon, tatar, turk xalqlari adabiyotlarining ilk ildizlari, og'zaki va yozma adabiyotining rivoji va taraqqiyoti, jahon adabiyotidagi o'rni, turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan adiblarning ijodi tahlil etiladi.

Qo'llanma institut va universitetlarning filologiya fakulteti talabalari, magistrant va aspirantlari, filolog mutaxassislar hamda barcha adabiyot ixlosmandlari uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanmani tuzishda H.Absamiyevning “Turkiy xalqlar adabiyoti” ma'ruzalar matnidan foydalanildi.

ТҲҲҲҲҲ

f.f.n. MAHFUZA DAVRONOVA


Mas'ul muharrir

f.f.d.,prof. Sh.Hasanov

Taqrizchilar:

f.f.n.,dotsent S.Tohirov

f.f.n. G.Umurova



ISBN 978-9943-4121-7-0

©Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2012

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI” FANIDAN MA’RUZALARNING TAXMINIY REJASI

<i>Mavzuning tartib raqami</i>	<i>Mavzuning nomi</i>	<i>Ajratilgan o`quv soatlari</i>
1-mavzu	Kirish. «Turkiy xalqlar adabiyoti» fanining predmeti. Qadimgi turkiy yodgorliklar	2
2-mavzu	Ozərbayjon mumtoz adabiyoti	2
3-mavzu	Hozirgi zamon Ozərbayjon adabiyoti	2
4-mavzu	Turk mumtoz adabiyotidagi oqimlar	2
5-mavzu	Hozirgi davr turk adabiyotidagi yo`nalishlar	2
6-mavzu	Tatar adabiyoti tarixi	2

KIRISH

Oliy o'quv yurtining o'quv rejalariga hozirgi davr talablaridan kelib chiqadigan fanlar kiritilmoqda. Ana shunday fanlardan biri «Turkiy xalqlar adabiyoti» fani bo'lib, u 2000-2001-o'quv yilidan boshlab adabiyot o'qitish dasturlariga kiritilgan. Bu fanni o'qitishdan asosiy maqsad turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, ularning o'zaro totuvligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Asli kelib chiqishi bir bo'lgan bu xalqlar adabiyotini qiyosiy-tipologik tahlil qilish hozirgi adabiyotshunosligimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Adabiyot xalqlar o'rtasidagi do'stlik elchisi ekanligini hisobga olib, biz ushbu ishimizda turkiy xalqlar adabiyoti tarixidagi mushtarak va farqli tomonlarni aniqlashga harakat qildik.

Mazkur uslubiy qo'llanmada ozarbayjon, tatar, turk adabiyoti haqida ma'lumot beriladi. Ozarbayjon adabiyoti o'zining go'zal durdonalari bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sabab mazkur uslubiy qo'llanmada ozarbayjon adabiyotining eng sara asarlari hamda ijodkorlari haqida ma'lumot berishga harakat qilindi. Jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy, Voqif, Vidodiy; hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti vakillaridan Bokixonov, Mirza Fatali Oxundov singari ijodkorlar asarlariga to'xtaldi. Turk adabiyoti haqida ham yuqoridagi fikrlarni takrorlash mumkin. Turk adabiyoti vakillaridan: Jaloliddin Rumiy, Ahmadiy, Sulton Valad, Yunus Emre ijodi haqida ma'lumot berildi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar adabiyotining bir qismi sobiq sho'ro davrida ham o'rganildi. Lekin unda asosan sho'ro hukumati tarkibiga kirgan turkiy xalqlar adabiyoti sinfiy nuqtayi nazaridan o'qitilar edi. Bugungi kunda esa bizga bu adabiyotni qanday bo'lsa, shundayligicha to'g'ri, haqqoniy o'rganishga imkon yaratildi. Shundan kelib chiqib, biz mazkur ishimizda o'zbek adabiyotshunosligida avval kam o'rganilgan yoki umuman o'rganilmagan turkiy xalqlar adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot berishga harakat qildik. Izlanishlar natijasida biz turkiy xalqlar adabiyotining og'zaki ijodi va qadimgi davri bir-biri bilan ko'p tomonlama juda yaqin ekanligining guvohi bo'ldik. Bundan tashqari turkiy xalqlarning qadimgi yodgorliklari haqida ham fikr-mulohazalar yuritildi. Ularning o'rganilish darajasi va bugungi kundagi ahamiyati tadqiq etildi.

Turkiy xalqlar adabiyotini o'qitishning yana bir vazifasi talabalarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, ularni shu ruhda tarbiyalash ham hisoblanadi. Ana shu maqsadda ushbu risolada mashhur adiblar ijodi va ularning asarlaridan ayrim namunalar ham keltirildi.

Mavzu: QADIMGI TURKIY YODGORLIKLAR

REJA:

1. Turk xalqining kelib chiqishi va u bilan bog'liq afsonalar to'g'risida.
2. "Avesto" haqida ma'lumot.
3. "Ota Qo'rqu" dostoni va turk adabiyoti.
4. "O'g'uznoma" va qadimgi mifologiya.
5. O'rxun Enasoy obidalari.

Tayanch so'zlar: "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanining maqsadi, vazifasi, tadqiqot ob'ekti, "Yaratilish dostoni, Alp Er To'nga haqida dostoni, "Avesto", "O'g'uznoma", "Ota Qo'rqu" kabi dostonlardagi mushtaraklik. "O'g'uznoma" haqida, Turkiy-runik yozuvlar, "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibbatul haqoyiq" asarlari haqida.

Darsning maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va Turk xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o'rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish va h.k.

Mashg'ulotning muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish

Mashg'ulot vazifasi:

a) *ta'limiy:* "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanidan "Qadimgi turk adabiy yodgorliklari" mavzusiga oid asosiy ma'lumotlar va materiallarni qabul qilish;

b) *tarbiyaviy:* talaba sifatida o'z-o'zini hurmat qilish, o'z faoliyatini boshqara bilish, ishontirish, o'z xulq-atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o'zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o'z o'rtog'ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to'xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) *rivojlantiruvchi:* darslik, o'quv qo'llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiqlikdan murakkablikka o'tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yondashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qitish texnologiyasi: o'qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" usuli

O'qitish shakli: frontal so'rov, umumiy sinov

O'qitish vositasi: ma'ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og'zaki nazorat, lahzalik so'rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;

- o'quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;

- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'rniga izoh berish;

- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;

- mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojidagi o'rniga e'tiborini qaratish

Ma'ruzaning samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim shartlar bajariladi:

Didaktik talablar

a) Ma'ruzaning batafsil rejasi tuziladi;

b) Ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish)lar beriladi.

c) Mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlar ma'lum qilinadi;

d) Rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;

e) Ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi;

f) Yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatiladi.

O'quv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini Qadimgi turk adabiy yodgorliklari haqidagi tushunchani, "Avesto", "O'g'iznoma", "Ota Qo'rqu", O'rxun Enasoy obidalari haqidagi tushunchalarni berish, bu asarlarning turk hamda jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissasi xususida so'z yuritish, bugungi o'zbek adabiyotshunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bog'lash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlariga to'xtalish kabi ma'lumotlar beriladi.

2. Talabalar diqqatini qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning o'ziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'mini ko'rsata olishi va bugungi o'zbek adabiyotida ta'sirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bolishlari muhimligi uqtiladi.

Ma'ruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Ta'lim texnologiyasini qo'llash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni o'zlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;

Dars mazmuni: 55 minut. Dars "BBB" jadval bilan ishlash asosida boshlanadi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Turkiy xalqlarning adabiy yodgorliklari; 2. "Avesto" haqida ma'lumot	1. Adabiy yodgorliklar haqida to'liq ma'lumot olishni istayman. 2. "Avesto" tarkibi va uning mazmuni haqida ma'lumot 3. "O'g'uznoma" asari haqida ma'lumot. 4. "Ota Qo'rqu" asari haqida ma'lumot.	

1. Ma'lumki, turkiy qavmlar deganda biz o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, tatar, boshqird, chuvash, ozarboyjon, qorachoy, turk, gagauz, qo'miq, balqar kabi o'ttizga yaqin millatlarni ko'zda tutishimiz kerak. Bu millatlar esa Yevro Osiyo materigining kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechiradi. Ana shu qarindosh xalqlarning adabiyotini bir butun holda yaxlit o'rganish, ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotini yaqindan anglashga yordam beradi. Yuqorida ko'rsatilgan xalqlarning eng qadimgi adabiy-madaniy yodgorligiga e'tibor bersangiz, ularda bir-biriga o'xshash asarlarning variantlariga duch kelasiz. Masalan, "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. "Alpomish", "Manas", "Dada Qurqut" kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. Bunday holatni biz faqat doston janridagi asarlar misolida emas, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan, Nasriddin Afandi haqidagi latifalar turk, ozarboyjon, turkman, o'zbek xalq ijodida ko'plab uchraydi. Qadimda kuylangan turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar haqida ham shunday holat ko'zga tashlanadi.

Dunyodagi qariyb barcha xalqlar, o'zlarining kelib chiqishi tarixi haqida turli afsona va rivoyatlar, naqlar to'qigan. Turk qavmlari haqida ham bunday rivoyat va afsonalar ko'plab uchraydi. Qadimda yozilgan ayrim tarixiy kitoblarda turk xalqlarining kelib chiqishini diniy afsonalarga bog'laydi. Ya'ni butun insoniyat tarixi Nuh payg'ambarning to'rt o'g'lidan tarqalgan avlodlardan boshlanadi. Bu afsonaga ko'ra turk qavmlari Nuhning Yofas nomli o'g'lining avlodidir. Bu, albatta, afsona. Lekin hozirgi kundagi ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko'ra turk qavmlarining asl vatani Oltoy bo'lgani, tarixiy taraqqiyot tufayli u yerdagi xalqlarning turli tomonga tarqagani haqida gipotezalar mavjud. "Yaratilish dostoni" nomli asarda ham turk ellarining kelib chiqishi haqida shu xildagi gaplar keltirilgan. Eng qadimgi turk dostonlaridan biri "Alp Er To'nga" nomli dostonidir. Bu doston qahramoni Alp Er To'nga tarixiy shaxs bo'lib, ayrim tarixiy ma'lumotlarga qaraganda eramizdan oldingi VII asrlarda yashagan. Bu shaxs haqida ko'plab asarlarda ma'lumot beriladi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida Alp Er To'nganing forscha nomi Afrosiyob deb ta'kidlab o'tgan. Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham Afrosiyob Turonning podshosi bo'lganligi, uning mard, jasur va tadbirkor podshoh bo'lganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Umuman, Alp Er To'nga haqida Sharq adabiyotida ko'plab asarlar yozilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" kitobida Alp Er To'nga haqida yozilgan dostonidan ko'plab parchalar keltirilgan. Bularda Alp Er To'nganing qahramonliklari, Turon tuprog'ini chet el bosqinchilaridan himoya qilishi, Eron bilan olib borgan janglari hikoya qilinadi.

Qadimgi totemistik xarakteridagi manbalarning ayrimlarida turklarning bo'riga sig'inganini, bo'rini o'zining ajdodi, deb bilgani haqida ma'lumotlar berilgan. Bu afsonada hikoya qilinishicha, dushmanlar bilan tengsiz jangda halok bo'lgan turk urug'idan bitta o'g'il bola tirik qoladi. U bola ham qattiq yarador bo'lgan. Bir ona bo'ri uni g'orga olib borib tarbiyalaydi. Ana shu bola voyaga yetgach, undan o'nta o'g'il bola tug'iladi, bular o'nta turk urug'ining asoschilari bo'ladi. Qadimga turk urug'idan bo'lgan Ashina qabilasining bayrog'ida bo'ri kallasining tasviri bo'lgan.

Turkiy xalqlarning kelib chiqishi bo'yicha "Alan Quva" to'g'risidagi afsona ham diqqatga sazovordir. Bunda Alan Quva nomli ayol turklarning eng katta onasi sifatida tasvirlangan. Bunda aytilishicha, Alan Quva juda aqlli, tadbirkor, mehribon ayol sifatida tasvirlangan. Mazkur afsonada barcha turk qavmlari Alan Quva farzandlari deyilgan. Qadimgi turkiy xalqlarning umumiy yodgorligi bo'lgan "Avesto" asari, "O'g'iznoma", "Ota Qo'rqu" kabi dostonlar ham mavjud. Bu dostonlarda aks ettirilgan voqealarning ko'pchiligi miloddan oldingi davrlarda bo'lib o'tgan. Bizga grek tarixchilarining asarlaridan yetib kelgan "To'maris", "Shiroq" nomli afsonalar ham barcha turkiy xalqlarning madaniy yodgorligi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, qadimiy turkiy xalqlar Eron tili guruhiga mansub xalqlar bilan yonma-yon yashagan. Tarixiy taraqqiyot natijasida ular bilan qo'shilib, aralashib ketgan turkiy qavmlar ham bor. Bu holat ko'proq o'zbeklarda ko'zga tashlanadi. Qadimgi Xorazm hududida paydo bo'lgan

zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar ham bevosita turkiy xalqlarning qadimgi o'tmishiga aloqadordir. Ayniqsa, bu dinning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"dan bizgacha yetib kelgan parchalar madaniyatimiz tarixi juda boy va rang-barang bo'lganidan darak beradi. Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi afsonalar ham turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Qadimgi qipchoqlarning ham o'ziga xos madaniyati va folklori bo'lgan. Bu borada ham hozir katta tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yevro Osiyo materigining juda katta hududida ko'chmanchi chorvador bo'lib yashagan qadimgi qipchoq madaniyati hozirgacha fanga noma'lum bo'lib keldi. Shuning uchun uning ko'plab obidalarini o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Bu sohada I.Stebleva, N.Gumilyov, Adjumurod kabi olimlarning dastlabki ilmiy kitoblar e'lon qilindi.

Xullas, qadimgi turk madaniyati juda boy va rang-barang bo'lib, u barcha turkiy millatlar madaniyati tarixiga bevosita taalluqlidir. Bularni bir butun holda qiyosiy o'rganish turk ellari madaniyati aloqasini mustahkamlaydi va bir-biriga yaqinlashtiradi.

Umumjahon sivilizatsiyasini yaratishda, uni rivojlantirishda turkiy xalqlarning roli juda ham kattadir. Yevropada yashovchi xalqlarga temirdan foydalanishni dastlab o'rgatgan ham turkiylar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytdagi olib borilayotgan ilmiy - arxeologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, turkiy xalqlar eramizdan oldingi davrlarda ham o'z yozuvlariga ega bo'lgan. Sibirdan topilgan temir plastinkaga bitilgan yozuvlar qadimgi davrga taalluqli ekanligi isbotlandi. Yoki Kichik Osiyodan topilgan qadimgi yozuvlarning ham turk tilida bitilgani isbotlangan. Eng qadimgi yozuv hisoblangan shumer yozuvida bitilgan "Gilgamish" dostoni "Alpomish" dostonining qadimgi varianti deb faraz qilinmoqda. Bunga o'xshash misollar keyingi yillarda ham juda ko'plab e'lon qilinmoqda.

"Avesto"

Sharqshunoslar orasida "Avesto"ning yaratilishi haqida turli fikrlar mavjud: ularning ayrimlari yodgorlik tarkibidagi eng ko'hna madhiyalar, miflar va mifologik obrazlarga suyanib, uning dastlabki qismlari eramizdan oldingi IX asrlarda yaratilgan, degan xulosaga kelishgan. Ular ba'zi matn va madhiyalar yakkaxudolik e'tiqodi paydo bo'la boshlagan ilk paytlarda koinlar tomonidan yaratilib, keyinchalik, "Avesto"ni tuzganlar ulardan ham foydalanganlar, deb uqtirishadi. Bir guruh avestoshunoslar kitobning yozila boshlashini bevosita Zardushtning Sablon tog'ida kechgan hayoti bilan bog'laydilar va bunga xotlar asosan payg'ambar she'rlaridan tashkil topganiga suyanadilar. Har holda "Avesto"da ajdodlarimizning eng qadimiy she'rlari, musiqa, badiiy tafakkur mevalari, diniy aqidalari-yu, ilmiy dunyoqarashlari mujassamlashgani aniq.

"Avesto" zardusht va mazdaparastlik dini ulamolari tomonidan yozilib, to'planib bo'lgach, maxsus kotiblar tomonidan 12 ming ho'kiz terisiga oltin suvi bilan ko'chirilgan. U 21 nask (kitob)dan iborat. Bu haqda "Tarixiy Bal'amiy"da ham aniq ma'lumot mavjud. Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) Eronni bosib olgach,

“Avesto”ning Eron podsholari xazinasida saqlanayotgan eng nodir nusxasini, oʻziga kerakli joylarini tarjima qildirib, qolganini yoqtirib yuboradi. Sosoniylar sulolasining dastlabki podshosi Ardasher Bobokon Xirbadan nomli donishmandga “Avesto”ni qayta tiklash vazifasini topshiradi. U obidani qayta yozdirib, yangi tartib beradi. Shundan soʻng Shopur II davrida muʼbdlarning muʼbadi Ozarpod Mehrosnin “Avesto”ning parokanda qismlarini toʻplaydi. Undagi koʻp nomlar, tushunchalarni keng sharhlab, “Zend Avesto” nomli kitob yaratadi. Arab istilosi davrida esa kitob Hindistonga olib ketiladi. Hozirda Bombayda zardushtiylik udumini oʻrganadigan Koma ilmiy markazi mavjud. Ana shu maʼnaviyat oʻchogʻida Ardasher davrida koʻchirilgan “Avesto” nusxalari saqlanadi. Shuningdek, kitobning bir qoʻlyozmasi Rossiya Federatsiyasining Sank-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomidagi Davlat kutubxonasining Sharq qoʻlyozmalari boʻlimida ham mavjud. Bizga qadar bu kitobning toʻrtidan bir qismi yetib kelgan. U 1278 yilda koʻchirilgan. Ular tubandagilar:

“AVESTO”NING TARKIBIY QISMLARI

GOTLAR yoki HOTLAR	72 bobdan iborat. Zardusht sheʼrlari – hot-madhiyalar tashkil qiladi. Ibodat paytida ijro etiladi.
VENDIDOD	22 bobdan tashkil topgan. Devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi.
YASHTLAR	22 bobdan iborat. Mazdoparastlarning Yazdonni madh-tavsif etadigan qoʻshiqlar. 7 farishta madhi
VISPARAD	24 bobni oʻz ichiga oladi. Butun borliq Yazdonniki. Ibodat matnlari, yoʻsinlari.
XORDA AVESTO	“Avesto”dan parcha va saylanmalar toʻplami. Uni “Kichik Avesto” deyishadi.

XVIII asrgacha ilm-fan ahliga yaqindan maʼlum boʻla boshladi. 1728-yil ingliz olimi Jorj Bauje “Avesto”ning bir necha qismi qoʻlyozmalarini Janubiy Hindistondagi zardushtiy ulamolardan qoʻlga kiritib, Oksford kolleji kutubxonasiga topshiradi. Shundan soʻng 15 yilga yaqin Hindistonda yurgan va mazdoparastlarning urf-odatlarini oʻrgangan Ankel Dyupperon “Avesto”ning alfavitini tiklaydi, 1771-yilda obidaning bir qismini fransuz tiliga tarjima qilib, soʻzboshi va asl matni bilan eʼlon qiladi. Natijada Gʻarbiy Yevropada “Avesto”ga qiziqish kuchayadi, “avestoshunoslik” paydo boʻladi. Adabiyotshunoslardan I.Meymers, Silvastr De Sasi, Tixsen, Uilyam Jone, I.G.Rod, En Rasko, G.Ritter, Kechel, Gegel, A.Byurnuf, Bestun, Persepol, Vindeshman, Maks

Myuller, Xristian Bartolome, F.Volf, A.Kassovich, V.Bartold, K.G.Zeleman, A.L.Pogodin, E.Bertelslar asarni tarjima qilishadi, o'rganishadi va qiyosiy tahlil etadilar. O'zbek adabiyotshunoslardan N.Mallayev, M.Isoqov, A.Irisov, F.Sulaymonova, H.Homidov, M.Umarzodalar tadqiq etishgan.

"Avesto"da oila masalasiga alohida etibor qaratilgan. Unda oiladagi erkak va ayolning burchi, vazifalari alohida qonun sifatida ishlab chiqilgan. Nikoh munosabati va uning buzilishiga sabab bo'luvchi omillar ishlab chiqilgan. "Avesto"da aynan shu bobga doir nikohni bekor qilish va taloq masalasi izohlanadi. Bu yerda ham er-u xotinning teng huquqi alohida e'tirof etiladi va nikoh bekor qilinishining quyidagi holatlari sanab o'tilgan:

1. Nikohdan so'ng tomonlarning birida asabiy noqislik, telbalik alomati zohir bo'lsa, solim tomon bu nikohdan voz kechish huquqiga ega.

2. Er erkaklik qobiliyatiga ega bo'lmagan taqdirda ayol taloq qilish imkoniyatidan foydalana oladi.

3. Uch yil davomida ham er oilaning moddiy jihatini ta'minlay olmay, hatto ayolini boqa olmasa, xotin bunday erni tashlab keta oladi, ya'ni taloq qila oladi.

4. Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino qilganliklarini eshitsa yoki sezsa, bunday nikoh "harom" bo'ladi hamda tomonlar bir-birlarini taloq qiladilar.

5. Agar xotinning hayoti er zulmidan xavf ostida qolsa, u o'z juftini taloq qila oladi.

6. Xotin o'z eridan qoniqmay, nojo'ya, g'ayrisha'iy xatti-harakatlar qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi. Erkak kishi uylanish paytida oldingi xotinini bekitsa, to'ydan keyin bu sir fosh bo'lsa, bunday nikoh botil hisoblanadi.

7. Erkak yoki ayol Zardusht dinidan yuz o'g'irsa, ya'ni boshqa dinni qabul qilsa, taloq vojibdir. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalganligi uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-u xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilishiga yo'l qo'yilmagan. Xotin qizlar orasida uchrab turadigan bo'hton, chaqmachaqarlik, xusumat gunohi azim sifatida qattiq qoralangan, gap tashuvchi, ig'vogarlar darra urish bilan jazolangan.

"Avesto"da ilohlar haqida ham to'liq ma'lumot keltirilgan. *Ahura Mazda* - asl Avestodagi shakli "Ahura Mazdax". Haqiqat va ezgulik olamining yaratuvchisi. Uning nomlari "Xurmazd", "Urzmad", "Ahura Mazda", "Hurmuz", "Ahura Mazd" kabi va "Avesto" matnlarida bu nom uch holatda ishlatilgan: "Ahura", "Mazda" "Ahura - Mazda" va bu nom "Avesto"da Ahura buyuklik va haqqoniyat timsoli. U xudolar va odamlar orasida faqat ezgulik, adolat, mardlik va poklik himoyachisi.

Ahuramazdaning 6 nafar eng yaqin yordamchilari :

1) *Vohu Manax* – chorva mollari va ezgu fikr xudosi;

2) *Asha Vahihsta* – olov va yuksak haqiqat homiysi;

- 3) *Xshatra Varya* – ma'dan va hokimiyat, qudrat homiysi;
- 4) *Sienta Armati* – yer va diyonat homiysi;
- 5) *Xarvatat* – suv va salomatlik (Anahita -- hosildorlik va suv ilohi);
- 6) *Ameretat* – o'simlik va manguilik homiysi.

“Avesto”da shaxs nomlari xususida soʻz yuritilgan. Ismlarning izohi berilgan. *Karap* - karapan- gohida mazdaparastlik dinining dushmanlari, devparastlar peshvolari guruhining unvonlari. “Yangi Avesto”da aksariyat hollarda bu nomni koʻplik shaklda uchratamiz. U devlar, jodular, parilar, ashmugʻlar va zolimlar bilan bir safda tilga olinadi. Karb Zardusht dinining qattol dushmani. “Kalpa” mazhabiy rasm-rusumlarini ijro etuvchilarga nisbatan qoʻllaniladi.

Ashmug – “Avesto”da “asha muga”, pahlaviyda “ashmugʻ”, “ashmuk”, “ashrmuk”, “ahlmuk”. Lugʻatlarda “ashmugʻ”, “ashani- magʻlub etuvchi” tarzida tarjima qilinadi. Mazdaparastlar dinining adabiyotida “dinsiz”, “dinidan qaytgan”, “muhlid”, “taqvosi” , “kazzob ruhoni” maʼnolarni anglatadi.

Kirsoniy – mazdaparastlik dini dushmanlari rahnomalaridan. Kirsoniy oʻz mulkida mazdaparastlik dinini targʻib etuvchi va tashviq etuvchilarga yoʻl qoʻymas edi. Iloh ham uni shahriyolikdan mahrum etadi.

Afrosiyob – “Avesto”da “Frangarasyan”. Maʼnosi - “dahshat soluvchi” yoxud “qoʻrquv soluvchi” odam . Pahlaviy tilida “Frasiyob”, “Frasiyov” yoxud “Frasiyof”. Mashhur Turon shohi , Pushangning oʻgʻli. U juda kuchli shaxs.

Kayumard – bu zot ilk fikrlovchi odamdur . U hoʻkiz odam boʻlib, uning jasadi odamlar va hayvon, oʻsimliklarni yaratilishiga sabab boʻldi.

Bundan tashqari “Avesto”da Zardusht falsafasi, adabiyot, tibbiyot ilmi, joʻgʻrofiya, xalq bayramlari kabi jihatlariga ham toʻxtalgan. “Avesto” tom maʼnoda qomusiy asar sanaladi.

3. “Ota Qoʻrqut” dostoni va turk adabiyoti.

Quyidagi yodgorlik “Ota qoʻrqut” yodgorligi boʻlib ozarbayjon istirohat bogʻidan oʻrin egallagan.



Turk xalqlarining yana bir qadimgi yodgorligi “Kitobi dada Qoʻrqut” deb nomlanadi. Bu asar IX-XIV asrlar mobaynida yaratilib, XV asrda tartib berilgan. Oʻn ikki hikoyadan tashkil topgan. Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asarida ham turkman xalq ogʻzaki ijodiga oid koʻplab rivoyatlar keltirilgan. Masalan, Bugʻraxon Samarqand, Buxoro va Xorazmni adolat bilan boshqaradi. Qariganda saltanatni oʻrtanchi oʻgʻli Qoʻziteginga beradi. Bugʻraxonning aqlli va uch oʻgʻlining onasi boʻlgan xotini vafot etadi. Maʼlum vaqt oʻtgach, oʻgʻli gʻam bosgan otasining koʻnglini

olish uchun Ko'rkam nomli go'zal qizga uylantirib qo'yadi. Qizning ko'ngli esa Qo'ziteginda edi. Makkor qiz Qo'zitegindan o'ch olish uchun, oqshom Qo'ziteginining mening chodirimga keldi, deb unga tuhmat qiladi. Lekin tezda bu ayolning makkorligi fosh etilib dorga osiladi.

Turk-o'g'uz qabilalarining barchasiga taalluqli bo'lgan madaniy meroslardan yana biri «Kitobi dada Qo'rqu» nomli mashhur eposdir. Bu asar XV asrning oxirlarida Abdulloh nomli kishi tomonidan tuzilgan. Kitob mustaqil hikoyatlardan tashkil topgan 12 qissadan iboratdir. Birinchi qissada Dirsaxonning o'g'li Bug'rochxon mard va jasur bo'ladi. U otasining 40 ta navkari sotqin va qo'rqqoq ekanligini fosh qiladi. Ular esa Bug'rochxonni otasiga yomonlab, unga tuhmat qiladi. Bunga ishonib g'azablangan bek, o'g'lini o'limga buyuradi. O'g'lini o'limdan onasi zo'rg'a qutqarib qoladi. Oxir oqibat, ana shu navkarlar bekning o'zini ham til biriktirib, o'ldirmoqchi bo'ladilar. Oxirgi vaziyatda o'g'li otasini 40 ta navkarning tajovuzidan saqlab qoladi. Bu qissada sotqinlik va baxillik qoralanadi.

Ikkinchi qissada esa O'g'uz qabilasi boshliqlaridan biri Qozon-Solar o'z navkarlari bilan ovga chiqib ketganda, uning dushmanlari bo'lgan gyaurlar bekning uyiga hujum qilib, xotini va bola-chaqalarini asir qilib olib ketadi. Lekin uning qo'ylarini va yilqilarini olib ketolmaydi. Chunki oddiy cho'pon katta mardlik va tadbirkorlik ko'rsatib mollarni saqlab qoladi. Ovdan qaytgan Qozon-Solar dushmanlarga qarshi jangga kirib, oila a'zolarini asirlikdan ozod etadi. Bu qissalarda qadimgi bosqinchilik urushlari qoralanadi va qabila sha'nini himoya qilgan mard, jasur o'g'lonlar ta'riflanadi.

Uchinchi qissada mard, jasur yigit Boms-Bayroq haqida hikoya qilinadi. Ikki bek uzoq vaqt bolali bo'lmaydi. Keyin esa ularning nolasi Tangriga yetib biriga qiz, ikkinchisiga o'g'il farzand ato qiladi. Ular katta bo'lishgach, bir-birini sevadi. To'y bo'layotgan kuni dushmanlar bostirib kelib kuyovni, Boms-Bayroqni, asir qilib olib ketadi. U asirlikda o'n olti yil bo'lib, qaytib keladi. Kelgan kuni uning sevgan qizini oshqaga uzatayotgan bo'ladi. Yigit qizni olib ketib o'zi uylanib oladi. Keyin esa Bayburd qal'asiga hujum qilib, qolgan asirlarni ham ozod qiladi. Bu qissadagi asvirlangan voqealar turkiy xalqlarning ko'pgina dostonlarida ham uchraydi. Masalan, «Alpomish», «Shohsanam va G'arib», «Tohir va Zuhro» kabi dostonlarda ham shunga o'xshash epizodlar bor.

To'rtinchi qissada Qozonbekning o'g'li O'rubekni dushmanlar ov paytida o'satdan hujum qilib, asirga oladi. Keyin Qozonbekning o'g'lini asirlikdan ozod qilish uchun olib borgan urushlari hikoya qilingan.

Beshinchi qissada Ozroil kasal yigit Dumrulning jonini oladi. Lekin yigit Ozroilning bu qilmishidan xudoga shikoyat qiladi. Xudo esa bu shakkok yigitga g'azab qiladi. Lekin yana rahmi kelib yer yuzida agar sen uchun jonini beradigan biror bir narsa topilsa, jonini qaytarishni shart qilib qo'yadi. Yigitning ota-onasi o'z jonlarini o'g'li uchun berishni xohlamaydilar. Yigitning xotini esa bunga rozi bo'ladi. Xudo

ayolning bu mardligini ko'rib, yigitning jonini qaytaradi. Er-u xotin bu dunyoda 140 yil baxtli hayot kechiradi.

Oltinchi qissada Qangli xo'jasining o'g'li Xon-To'ralining uylanishi bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Boshqa yurtdan uylangan yigitga o'sha yurtning yigitlari hujum qilgani va bu urushda Xon-To'ralining g'olib kelganligi tasvirlanadi. Ayniqsa, qizning otasi yigitga qo'ygan shartlarining bajarilishi ancha qiziqarli berilgan. Yigit sherni, qora ho'kizni va qora tuyani yengib shartni bajaradi.

Yettinchi qissada Qaziliq xo'janing 15 yashar o'g'li o'g'uz urug'ining dushmanlariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlangan.

Sakkizinchi qissada o'g'uz qabilalariga hujum bo'lganda ular boshqa joyga qochib o'tadi. Ana shu ur-surda bir chaqaloq qolib ketadi. Uni ona sher topib olib, sutidan berib ulg'aytiradi. Bu yillar o'tib yana o'sha joyga ko'chib kelganda bola yana o'z qabiladoshlarini topadi. Bolaning otasi Arusxo'ja o'z o'g'lini taniydi va unga Basad deb ism qo'yadi. Bu yerlarda Tepako'z nomli bir ko'zli bahaybat vaxshiy yashaydi. Uning otasi cho'pon, onasi esa parilardan bo'lgan ekan. Bu devsfat vaxshiy juda kuchli va qo'rqinchli bo'lgan. Atrofdagi xalq har kuni unga 500 ta qo'y, 2 ta odam berib turgan. Basad ana shu qo'rqinchli devni yakkama-yakka olishuvda yengadi va xalqni uning zulmidan ozodlikka chiqaradi.

To'qqizinchi qissada o'g'uz qabilalarining yangi bosib olgan joylaridagi hayoti tasvirlangan. Bunda Emram nomli mard yigitning jangda o'zi yarador bo'lgan otasining o'rmini bosib, qabilasini dushmandan himoya qilganligi yozilgan. Davlat chegaralari uchun olib borilgan janglar, ya'ni o'g'uzlar va gruzinlar urushi tasvirlangan.

O'ninchi qissada esa Ushunxo'janing katta o'g'li Egrek Gyauralar bilan jangda asirga tushadi. Uni asirdan ozod qilish uchun esa ukasi Sergak urushga ketadi va akasini asirlikdan ozod qiladi.

O'n birinchi qissada «O'g'uznoma» qahramonlaridan biri Qozon-Solarning g'afatda qolib, dushmanlar qo'lga tushgani va uning o'g'li O'g'uzxon tomonidan ozod etilgani haqidagi rivoyatlar hikoya qilingan.

O'n ikkinchi yakunlovchi qissada o'g'uz qabilalarining mansab va lavozim talashib bir-biri bilan olib borilgan janglari yozilgan. Qozon-Solarning tog'asi Aruz beklar begi lavozimini egallash uchun Qozon-Solarga hujum qiladi. Uning yaqin yordamchisi Bamsi-Bayroqni o'ldiradi. Keyin Qozon-Solar Aruzbekka hujum qilib ularni yengadi. Bu jangda Aruzbek ham vafot etadi.

Xullas, «Kitobi dada Qo'rqut»da o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq ko'plab voqealar hikoya qilingan. Bu asarning dastlabki qismlaridagi voqealar tasviridan ma'lum bo'lishicha, asar dastlab Turkistonda, ya'ni O'rta Osiyoda shakllangan. Keyingi qismlarida esa voqealar o'g'uz-turk qabilalarining yangi vatani bo'lmish Kavkaz va Kichik Osiyoda kechadi. Albatta, eposdagi barcha voqealar tarixda bo'lib o'tgan deb bo'lmaydi. Ularni xalqning og'zaki ijodi deb tushunmoq kerak. Lekin

o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq aniq voqealar tasviri ham eposda anchagina uchraydi. «Kitobi dada Qo'rqt» deb atalishining sababini ayrim tadqiqotchilar Qo'rqt degan baxshi yoki islomgacha bo'lgan davrdagi Shamanning nomi bo'lishi mumkin deb taxmin qiladilar. Toshkentga yaqin joyda «Xorxud» degan joy nomi bilan bog'lovchilar ham bor. Nima bo'lsa-da, bu kitob turkiy xalqlarning muqaddas tarixiy eposi bo'lib, bu asrlar davomida xalqni botirlikka, jasurlikka o'z yurtini, elini or-nomuslarini dushmanlardan himoya qilishga o'rgatib kelgan.

“O'g'uznoma” va qadimgi mifologiya

“O'g'uznoma” turk xalqlari tarixini ifoda etuvchi yodgorlik sifatida muhim ahamiyatga ega. O'g'izxon haqidagi qadimgi rivoyatlar bevosita turkman xalqining ham madaniy merosi bo'lib hisoblanadi. Turk-o'g'uz qabilalariga tegishli bo'lgan bu asar asrlar davomida shakllanib epos darajasiga ko'tarilgan.

Ayrim tarixiy ma'lumotlarga qaraganda 531-579-yillarda Eronda hukmronlik qilgan Anushervonning vaziri Buzrug Mehr bu eposni («Ulug'xon ota jangnomasi bitigi» nomli asarni) turk tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Xalifa Xorun ar-Rashid (763-809) davrida esa bu kitob arab tiligi o'g'irilgan. Ana shu asar «O'g'iznoma»ning qadimgi varianti deb taxmin qilinadi. Asarda O'g'izxonning tatar qabilasidan bo'lgan Alp Arslon avlodiga mansubligi haqida ma'lumot beriladi. U yoshligida ona sher sutini ichib ulg'ayganligi, odamlarga qirg'in keltirayotgan vaxshiy Tepako'zni va bir shoxli devni o'ldirgani hamda boshqa qahramonliklari hikoya qilinadi.

«O'g'iznoma»ning uyg'ur yozuvida XIV asrga oid qo'lyozmasi hozir Parij milliy kutubxonasida saqlanmoqda. «O'g'iznoma» eposi turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manbalardan hisoblanadi. Unda ibtidoiy davrga oid mifologik obrazlar ham bor. Masalan, O'g'izxon yoshligida osmondan tushgan bir pariga uylanadi va undan Kun, Oy, Yulduz nomli uch o'g'il bo'ladi. Keyin esa o'rmonda bir qizni uchratib, unga uylanadi. Undan ham Ko'k, Tog', Dengiz nomli uch o'g'il ko'radi. Keyin qo'shni davlatlarga yurish qilib, juda ko'p joylarni bosib oladi. Unga bu janglarda, ov yurishlarida go'yoki, bir ko'k bo'ri doimo hamroh bo'larkan. Bo'ring maslahati bilan ish olib borib, katta g'alabalarni qo'lga kiritadi. O'g'iz xoqon Tibet, Hind, Suriya taraflarni ham qo'lga kiritadi. Keyin dono vaziri Ulug' Turkning maslahati bilan saltanatni bolalariga bo'lib beradi. Bu esa go'yoki, Chingizxonga nisbat berilgandek tuyuladi. Chunki qo'lyozma ko'chirilgan davrda Chingizxon sulolalarining mavqei juda baland edi.

O'rxun Enasoy obidalari

Hozirgacha bizga eng qadimgi yodgorlik sifatida Urxun – Yenisey bitiklari o'rgatilar edi. Haqiqatan ham, ushbu bitiklar bizgacha to'liq yetib kelgan yagona yodgorlik hisoblanadi. Mazkur bitiklar XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida O'rxun va Yenisey daryolari sohillaridan topilgan bo'lib, ular V-VII

asrlarda yashagan turkiy xalqlarga taalluqlidir. Ular turk runiy yozuvlari deb ham yuritiladi.

Ma'lumki, V-VII asrlarda Markaziy Osiyoda turk hoqonliklari hukmron bo'lgan. Bu hoqonliklarning boshliqlaridan bo'lgan Bilga hoqon va uning ukasi Kulteginlar turkiy xalqlarni birlashtirish uchun katta ishlarni amalga oshirgan. Ana shu turk hoqonlarining qabr toshlariga yozilgan bitiklar bizgacha to'liq yetib kelgan. Bu yozuvlarni rus va chet el olimlari o'qish uchun qariyb 100 yil vaqt sarf qildi. Nihoyat, bu sirli yozuvni daniyalik olim V.Tomsen birinchi bo'lib o'qishga muvaffaq bo'ldi. Bu yozuvlarda turkiy xalqlarning davlat qurishdagi olib borgan kurashlari hikoya qilingan. Jumladan, turk ellarining o'z mustaqilligi uchun Xitoy bosqinchilariga qarshi va ularning o'zaro bir-birlari bilan olib borgan urushlari tasvirlangan. Bu bitiklarda kuchli davlat qurish uchun, albatta, qardosh xalqlar birlashishi kerakligi uqtirilgan. Bu bitiklarning tarixiy asar ekanligini aytish bilan birga, uning badiiy asar ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz kerak. Eltarish xon o'g'illari Bilga hoqon va Kulteginlarning sarkardalik faoliyati, ularning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlari bugungi kunimiz uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki bu sarkardalar turkiy xalqlarning istiqloli va mustaqilligi uchun kurash olib bordi. Mustaqillik uchun kurash masalasi esa hozirgi turkiy xalqlarning ham eng dolzarb masalalaridan biridir. Demak, O'rxun-Yenisey bitiklarida tasvirlangan voqealar bugungi zamondoshlarimizga ham muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Tunyuquq bitiklarida shunday so'zlar yozilgan: "Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... O'zining xoni bilan birga bo'lmadi. Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun, tangri o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk sir xalqi yerida birorta ham urug' qolmadi".

Ko'rinib turibdiki, turk qavmlarinig ajralib ketishi natijasida ularning boshiga katta fojialar tushgan. Shundan keyin Bilga hoqon, Kultegin va Tunyuquqlar boshchiligidagi ozodlik harakati tufayli yana turk davlati qaddini tikladi. Sharqiy Turkistonda topilgan "Ta'birnoma" nomli asar ham O'rxun-Yenisey yozuvida bo'lib, u qog'ozga bitilgan edi. Bu yodgorlikning ham tarixiy-badiiy qimmatini nihoyatda kattadir.

Arablar islom dinini turkiy xalqlar orasiga VIII asrdan boshlab tarqata boshlagan. Kavkaz va O'rta Osiyodagi turkiy xalqlarga islom dini juda katta kurashlar, urushlar bilan majburiy ravishda o'tkazildi. Keyinchalik esa ko'pgina turk elatlari bu dinni ixtiyoriy ravishda qabul qildi. Hozirgi turkiy xalqlarning ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qiladi. Chuvash, gagauz kabi turkiy xalqlar esa, xristian diniga; yoqut, oltoy kabi turkiy xalqlar esa, budda diniga e'tiqod qilishadi.

Turk ellaridan yetishib chiqqan sarkardalar ham tarixda juda mashhur bo'lganlar. Ular haqida ko'plab tarixiy hujjatlar bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, turkiy xalqlar davlat qurishda, imperiyalar barpo etishda dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Faqat XIX asr oxiri va XX asrlarga kelib, turkiy xalqlar barpo etgan imperiyalar parchalanib ketdi.

Buning sabablaridan biri, ular o'rtasidagi inoqlikning yo'qligi, bir-biri bilan olib borgan nizolar va urushlar bo'ldi. Sharqda arablar istilosi bir oz susaygach, uning o'rniga dastlab Samoniylar dinastiyasi davlat tepasiga keldi. Keyinchalik esa Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar kabi turkiy saltanatlar vujudga kelgan edi. Bularning qariyb barchasi turkiy qavmlardan chiqqan, tarixda mashhur bo'lgan hukmdorlardan edi. Ana shular tuzgan davlatlar qariyb ming yillardan buyon yashab, davom etib kelmoqda.

X-XII asrlarda yozilgan M. Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" kabi asarlari butun turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari faqat lug'at, ya'ni so'zlarining arabcha izohli tarjimasidan iborat bo'lib qolmasdan, balki u arablargacha bo'lgan davrdagi adabiyot namunalarini o'zida jamlab kelgan ajoyib badiiy asar ham bo'lib hisoblanadi. Chunki unda xalq og'zaki ijodiga oid turli maqollar, hikmatli so'zlar, qo'shiqlar, iboralar, dostonlardan parchalar ko'plab keltirilgan. Olti mingga yaqin turkcha so'zlarga arabcha izohlar berilgan. Ko'pgina turkiy qabila va urug'larning tarixi, etnografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqa tomonlari haqida ham bu kitobda ma'lumotlar beriladi. Ushbu jihatdan bu asar o'z davrining qomusiy asari darajasiga ko'tarilgan. Jahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida "Devoni lug'atit turk" asari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu davrgacha jahon tarixida hech kim tillarni bir-biriga qiyoslab o'rganmagan edi. M.Koshg'ariy bu asarni yozishda juda katta material to'plagan. Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizi bo'ylarigacha bo'lgan hududda yashayotgan turk qavmlarining tilini tekshirdi. Asar 1076-1077 yillarda yozilgan bo'lib, keyinchalik u uch kitob hajmida chop etildi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand-nasihat xarakteridagi asardir. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarini 1069-1070 yillarda yozib tugatgan, uni qoraxoniylardan bo'lgan Tabg'ach Bug'roxonga bag'ishlagan. Asar aruz vaznining masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, 73 bobni tashkil etadi. Bunda ijtimoiy hayotning ko'p tomonlari qalamga olingan. Jumladan, ilm-hunar egallash, til o'rganish va so'zlashish odobi, hokimiyat va hukmdorlar to'g'risida, odob va axloq, ma'rifat to'g'risida bahs yuritiladi. Asarda Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmish kabi ramziy obrazlar vositasida muallif o'z dunyoqarashlarini ifoda etadi. "Qutadg'u bilig"da turkiy xalqlarning XI asrdagi tili yaqqol sezilib turadi. Unda arabcha va forscha so'zlar nisbatan oz uchraydi. Bu kitob tez orada katta shuhrat qozondi. Uni "Turkiy Shohnoma" ham deb atay boshladi. Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" nomli didaktik asari ham umumturkiy xalqlarga tegishli deb qabul qilingan. Kitobning muallifi va yaratilgan yili haqida ma'lumotlar nihoyatda kam berilgan. Asarning til xususiyatlaridan kelib chiqib, uni XII-XIII asrlar o'rtasida yaratilgan deb xulosa chiqarish mumkin. Bu kitobda ham

axborot-resurs markazi

1430002

odob-axloq, ilm-ma'rifat masalalari ko'tarilib chiqilgan. Shunisi xarakterliki, mazkur asarda din va shariat masalalariga tasavvuf falsafasi nuqtayi nazaridan yondashilgan. Shu boisdan bo'lsa kerak Alisher Navoiy "Nasoyim-ul muhabbat" nomli kitobida Ahmad Yugnakiyni mutasavvuf shoirlar qatoriga qo'shadi.

Umumturkiy adabiyotlardan yana biri sifatida "O'g'iznoma" eposini ko'rsatish mumkin. Bu asarda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi har bir urug'ning shajaralari ko'rsatilgan. Asarda ko'plab she'riy parchalar ham keltirilgan. O'g'izxonning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, uning davlatni boshqarish, el-yurt obodonchiligi, turkiy xalqlarning mustaqilligi, baxti uchun olib borgan kurashlari tasvirlangan.

Biz bu yerda qadimgi turk eposlaridan ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdik, xolos. Shuning o'zi ham turk ellari qadimdan juda yuqori darajadagi madaniyatga ega bo'lganligidan darak beradi. Bularni jamlab, jahonga ko'rsatadigan vaqt keldi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'pgina turk olimlari va yozuvchilari o'z asarlarini arab va fors tillarida yaratgan. Bu soha ham chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Darsni mustahkamlash: Dars test asosida mustahkamlanadi. Dars boshlanish qismida berilgan "BBB" jadvali to'ldiriladi.

1. *Turk xalqlari deyilganda qaysi xalqlar tushuniladi?*

- a) Ozarbayjon, turk, o'zbek, qozoq, eron; b) tojik, ozarbayjon, turk, qirg'iz;
s) o'zbek, ozarbayjon, turk, tatar, qozoq d) qirg'iz, tojik, turk, tatar.

2. *"Avesto" asarini birinchi bo'lib ilm-fanga targ'ib etgan olim?*

- a) Jorj Bauje; b) Anketil Dyuperron; s) G.Rod d) Bertold.

3. *"Avesto"ning qaysi tarkibiy qismida ibodat matnlari o'rin egallagan?*

- a) Got; b) Yasht; s) Vendidod; d) Visparad.

4. *"Avesto"ning tarkibiy qismlaridan qaysi biri 24 bobni o'z ichiga oladi?*

- a) Got; b) Yasht; s) Vendidod; d) Visparad.

5. *"Avesto"da ta'kidlanishicha oilada ayol qaysi holatda o'z juftini taloq qila oladi?*

- a) Jufti o'z burchini bajarmasa; b) telbalik alomati sezilsa; s) ayol o'z juftini bilan umrini davom ettirishni istamasa; d) barcha javoblar to'g'ri.

6. *"O'g'uznoma" nechanchi asrga tegishli yodgorlik sanaladi?*

- a) VII asrga; b) VIII asrga; s) IX asrga; d) X-XI asrga.

7. *"O'g'uznoma" asarini tarjima qilishni qaysi olim boshlab bergan edi?*

- a) F.Dits; b) V.Radlov; s) A.Sherbak; d) F.Rashiddin

8. Qaysi olim "O'g'uznoma"ni transkripsiya, tarjima qilgan va tadqiqot olib borgan?

- a) F.Dits; b) V.Radlov; s) A.Sherbak; d) F.Rashiddin.

9. "Ota Qo'rqu" asari necha qissadan iborat?

- a) 9 ta; b) 10; s) 11 ta d) 12 ta.

10. "Ota Qo'rqu" asarining nechanchi qismida Qozon-Solarning g'afolatda qolib dushmanlar qo'lga tushgani va uning o'g'li O'g'uzxon tomonidan ozod etilgani haqidagi rivoyatlar hikoya qilingan?

- a) 9 qismida; b) 10 qismida; s) 11 qismida; d) 12 qismida

Mustaqil ish:

1. Ziyonet.uz internet tarmog'idan "Avesto" haqida ma'lumot olish va uni o'rganish.
2. H.Homidovning "Avesto fayzlari" asarini o'rganish.
3. M.Jo'rayev. "O'g'uznoma" va qadimgi turkiy mifologiya. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2011 yil. 21-28-betlar. Maqola bilan tanishish.
4. Qo'rqu ota kitobi. Yoshlik jurnali. 1988 y. 5-6-7-sonlar. Asar bilan tanishish.

Darsni yakunlash. Keyingi mavzu "Ozarbayjon mumtoz adabiyoti" haqida ma'lumot beradi. O'quvchilarni keyingi ma'ruzaga tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абсамиев Х. Туркий халклар адабиёти. – СамДУ, 2004.
2. Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. – Тошкент, 2001.
3. Авесто. Яшт китоби. – Тошкент, 2001
4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1977.
5. Абдурахмонов А. Туркий халклар адабиёти. Қадимги давр. – Тошкент, 2005.
6. Тўхлиев Б. "Қутадғу билик" асари хақида. – Тошкент, 1991.
7. Абдурахмонов А. Алп Эр Тўнга жангномаси. – Тошкент, 1993.
8. Холматов Ш. Ўзбек халқ поэтик ижоди. – Тошкент. 1994.
9. Қўрқут ота китоби. // Ёшлик, 1988. 5-6-7-сонлар.
10. Ziyonet.ru. Avesto.

Mavzu: OZARBAYJON MUMTOZ ADABIYOTI

Reja:

1. Xalq og'zaki ijodi
2. Yozma adabiyot
3. Nizomiy Ganjaviy ijodi va "Xamsa"ning yaratilishi
4. Muhammad Fuzuliy ijodi va unda oshiq obrazi
5. Voqif va Vidodiy ijodi (realistik adabiyotning shakllanishi)

Tayanch so'zlar: "Go'ro'g'li", "Kitobi dada Qurqut". Janubiy Ozarbayjon adabiyoti. Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy. "Xamsa". Muhammad Fuzuliy. Voqif va Vidodiy ijodi. Adabiy an'analar.

Darsning maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va ozarbayjon xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o'rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish va h.k.

Mashg'ulotni muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish

Mashg'ulot vazifasi:

a) *ta'limiy* – "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanidan "Ozarbayjon mumtoz adabiyoti" mavzusiga oid asosiy ma'lumotlar va materiallarni qabul qilish;

b) *tarbiyaviy* – talaba sifatida o'z-o'zini hurmat qilish, o'z faoliyatini boshqara bilish, ishontirish, o'z xulq-atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o'zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o'z o'rtog'ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to'xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) *rivojlantiruvchi* – darslik, o'quv qo'llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiylikdan murakkablikka o'tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yandashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qitish texnologiyasi: o'qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" usuli

O'qitish shakli: frontal so'rov, umumiy sinov

O'qitish vositasi: ma'ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og'zaki nazorat, lahzalik so'rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;

- o'quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;

- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'rniga izoh berish;

- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;

- mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojida o'rniga e'tiborini qaratish

Ma'ruzaning samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim shartlar bajariladi:

Didaktik talablar

d) ma'ruzaning batafsil rejasi tuziladi;

e) ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish)lar beriladi;

f) mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlar ma'lum qilinadi;

g) rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;

h) ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi;

i) yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatiladi.

O'quv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini Qadimgi turk adabiy yodgorliklari haqidagi tushunchani, Ozarbayjon mumtoz adabiyoti haqidagi tushunchalarni berish bu asarlarning turk hamda jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissiy xususida so'z yuritish, bugungi o'zbek adabiyot-shunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bog'lash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlariga to'xtalish kabi ma'lumotlar beriladi.

2. Talabalarning diqqatini qadimgi Ozarbayjon mumtoz adabiyoti o'rganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning o'ziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rnini ko'rsata olishi va bugungi o'zbek adabiyotida ta'sirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bo'lishlari muhimligi uqtiriladi.

Ma'ruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Ta'lim texnologiyasini qo'llash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni o'zlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;
Xulosa va uyga vazifa	- 5 minut.

Dars mazmuni: 55 minut. Dars “BBB” jadval bilan ishlash asosida boshlanadi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Ozarbayjon adabiyoti haqida qisman ma’limotga egaman 2. Nizomiy Ganjaviy ijodi bilan qisman tanishman 3. Fuzuliy hayoti haqida ma’limotga egaman	1. Ozarbayjon mumtoz adabiyoti haqida to’liq ma’lumot olishni istayman. 2. Xalq og’zaki ijodi bilan tanishish 3. Nizomiy Ganjaviy adabiy merosi bilan tanishish 3. Fuzuliyning lirikasi haqida ma’lumot 4. Voqiv va Vidodiy ijodi haqida ma’lumot	

Ma’ruzada Ozarbayjon xaritasidan foydalanib jug’rofiy joylashishi haqida ma’lumot beriladi.



1. Xalq og’zaki ijodi

Kavkaz xalqlari orasida ozarbayjonlar o’zlarining eng qadimgi boy madaniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ozarbayjon xalq og’zaki ijodi asarlari janr jihatidan rang-barang bo’lib, u nihoyatda ko’plab mavzularda yaratilgan. Ko’pgina xalq dostonlari, ertaklari o’zbek folklori bilan tematik tomondan o’xshashdir. Masalan, “Dada Qo’rqut”, “Ko’r o’g’li”, “Oshiq g’arib”, “Shox Ismoil”, “Asli va Karam” kabi


dostonlarning izlarini o’zbek folkloridan ham topish mumkin. Melik-Mamed, Kal Ahmad sarguzashtlarini hikoya qiluvchi latifalar esa Nasriddin Afandi va Aldar Ko’sa, latifalariga hamohangdir. “Kitobi dada Qurqut” eposi taxminan 7-8 asrlarda yaratilgan bo’lib, u 12 qissadan iborat. Hozir ana shu syujetlar asosida bir qancha muzikali dramalar yaratilgan. Bular qadimgi o’g’iz-turkiy qabilalarining o’z mustaqilligi uchun olib borgan kurashi tasvirlangan.

Ozarbayjon xalq og’zaki ijodida maqollar alohida mavqega egadir. Maqollarda xalq donishmandligi o’z ifodasini topgan. “Xudo senga tuynukdan hech narsa tashlamaydi. O’zing ishlab top”, “Boyqushning ko’ziga bolasi tovsudan go’zal ko’rinadi”, “Yaxshi kunda – hamma yaxshi, yomon kunda – birodaringni eslab

qolasan”, “Birovning qozonida osh qilolmayсан”, “Bo’ri cho’ponga yaramaydi”, “Bo’ri menga tegmayaptimi – ming yil yashasin!”, “O’g’ri qutulib qoldi, guvoh qamoqda qoldi”, “Hamma falokat – tildan”, “Sichqonga mushuk – sher”, “Yukni tuya tashiydi, ko’ppak esa ozadi”, “Mushuklar yo’q bo’lsa, sichqonlar bayram qiladi”, “Semiz ozisa, ozg’inning ruhi uchadi”, “Asosiysi ishni boshla, u o’z-o’zidan nihoya topadi”, “Och hammani och deb o’ylaydi”, “Dushmaning zaif bo’lsa ham xushyor tur”, “Beruvchi qo’l oluvchi qo’ldan afzal”, “Bolalar uchun ota hammadan kuchli”, “Qo’ng’izga uning bolasi – eng go’zal mavjudot”, “Chumoliga shudring – suv toshqini” singari maqollar berilgan bo’lib ularda xalqning bir necha asrlik donishmandligi o’z ifodasini topgan.

Ozarbayjon xalq og’zaki ijodida ertak janri ham rivojlangan. Biz ozarbayjon xalq og’zaki ijodida “Bulbul haqida ertak”, “Iskandar haqida ertak”, “Samarqand shohining qizi”, “Ayiqlarning tushi”, “Mushuk va sichqon”, “Muxtor”, “Kabutarining in qurgani haqida ertak”, “Bo’ri va tulki”, “Ishyoqmas Ahmed”, “Arslon va tulki”, “Ayyor tulki”, “Tilla shamchiroq”, “Zarnigor”, “Ochofat shoh”, “O’gay o’g’il” singari ertaklarni uchratamiz. Ertaklar o’zbek ertaklari singari sehrli, ijtimoiy-maishiy, hayvonlar haqidagi ertaklarga ajratilgan.

Ozarbayjon xalq og’zaki ijodida qo’shiq janri muhim ahamiyatga ega. Unda chorvachilik bilan bog’liq qo’shiqlar, dehqonchilik marosimlarni ifoda etgan hamda alla va oshiq (lirik) qo’shiqlar o’rin egallagan. Ozarbayjon xalq og’zaki ijodida xalq qo’shiqlarining quyidagi turlari uchraydi:



2. Yozma adabiyot. Ozarbayjon adabiyoti bilan o’zbek adabiyoti orasidagi ko’pgina an’analar bir-biriga o’xshash bo’lib, ularning aloqalari uzoq asrlarga borib taqaladi. Masalan, Alisher Navoiy o’z “Xamsa”sini yaratishda Nizomiydan o’rgangan, unga ergashib yozgan bo’lsa, mashhur Ozarbayjon shoiri Fuzuliy esa Navoiydan o’rganib “Layli va Majnun” asarini yozgan. Bu an’analar bugungi kunda ham faol davom etib kelmoqda. Biz Ozarbayjon adabiyotini o’rganganda faqat Shimoliy Ozarbayjonni emas, balki Janubiy Ozarbayjon adabiyotining ham diqqatga sazovor tomonlarini ta’kidlab o’tishimiz lozim.

Ma'lumki, turli tarixiy voqealar tufayli ozarbayjon xalqi ikki davlat territoriyasida yashashga to'g'ri kelgan. 15 millionga yaqin ozarbayjonlar Shimoliy Eronda yashaydi. Ularning ham boy adabiyoti bor. Ozor o'g'li, Madina Gulgun, Akima Billuriy, Fitrat kabi ijodkorlar Eron Ozarbayjonining ko'zga ko'ringan vakillaridir.


VII-VIII asrlarda arab tili, IX asrdan boshlab esa fors tili davlat tili bo'lganligi sababli ko'pgina ozarbayjon ijodkorlari o'z asarlarini arab va fors tillarida yozgan. Tarixda o'tgan mashhur Ismoil Yassor, Ahmad Tabriziy, Xatib Tabriziy, Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy kabi ozarbayjonlik ijodkorlarning asarlari arab va fors tillarida yaratilgan. M.Fuzuliy, M.Oxundov singari ijodkorlar asarlarining ham kattagina qismi fors tilida yozilganidir.

XI-XII asrlarda Ozarbayjonda arablar istilosi susayib, mahalliy feodal davlatlar vujudga keldi. Ana shu davrda feodal saroy adabiyoti rivojlandi. Abul Ula Ganjaviy, shoir va astronom Falakiy-Shervoniy, shoira Maxseti Ganjaviylar ko'plab g'azal va ruboiylar yaratdi.

Ma'lumki, ozarbayjon adabiyoti turkiy xalqlar adabiyoti ichida eng boy, eng rivojlangan adabiyot sanaladi. XII asrgacha ko'pgina ozarbayjon ijodkorlari o'z asarlarini arab va fors tillarida yozgan. Bu adabiyotning shakllanishida folklor asarlari bilan bir qatorda arab va fors tilidagi adabiyotning kuchli ta'siri bo'lganligi ham shundandir.

Ilk ozarbayjon yozuvchilaridan biri Gatrani Tabriziy bo'lib, u Ganja va Tabriz hukmdorlarining saroy shoiri bo'lgan. Uning ko'plab qasidaları va «Qobusnoma» asari bizgacha yetib kelgan. Abul-ul Ganjaviyni esa «Shoirilar podshosi» deb atagan. Bu shoir XI asr oxiri XII asr boshlarida yashagan. U nihoyatda bilimdon kishi bo'lib, o'z zamonidagi falakiyot, falsafa, riyozat kabi ilmlarni ham mukammal bilgan va ko'p ijodkorlarga ustozlik qilgan. Muhammad Falaki Shirvoniyning shoh Manuchehrga bag'ishlangan ko'plab qasidaları bor. XII asrda yashagan shoira Mexseti Ganjaviy esa ajoyib musiqalar yaratib, katta shuhrat qozongan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Mexseti shohning o'g'li Amir Ahmadni sevgan va u haqda ishqiy doston yozgan. Shoiraning yozgan ruboiylarini esa Umar Xayyom ruboiylari bilan tenglashtiradi.

Bu davrda yashagan Afzaliddin Haqqoniy esa Shervon shohga ko'plab qasidalar yozgan, keyinchalik o'sha tuzum va jaholatni tanqid qilib yozgan asarlari uchun ta'qib ostiga olingan. U vatanidan uzoqlarga ketib, umr bo'yi boshqa mamalakatlarda yashashga majbur bo'lgan. Uning "Tuhfatul Iroqayin", "Madain qasri" kabi asarlari bor.



Nizomiy Ganjaviy ijodi (1141-1207).

Ozərbaycan ədəbiyyatının yirik klassığı Nizomiy Ganjaviy əsa yoshlıkdan matematika va astro-nomiyaga juda qiziqqan va shu soha bo'yicha bilimlar olgan. U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozərbayjonda Shirvon Tohir sulolasi hukmronlik qilar edi. Ular shoirni o'z saroylariga taklif qildi, lakin Nizomiy bu taklifni rad qilib, erkin ijod qilishni ma'qul ko'rdi. U o'z asarlarini fors tilida yozdi, chunki bu til o'sha paytda Ozərbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning o'z ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she'rlari ham bor.

Shoiming ijodi lirik she'rlar yozish bilan boshlanadi. Bu she'rlarning ko'pchiligi intim mavzudagi g'azallar edi. Masalan, uning "Qaydaki sen bor, qamar nadorkor, Kingaki sen yor, shakar na darkor" matla'i bilan boshlanuvchi g'azali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qo'shiq qilib aytilgan degan ma'lumotlar bor. Shoir lirik she'rlarida ham o'z zamonasidan shikoyat qilib, uni "adolatsiz jamiyat" deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli janrlarida ijod qilgan, u ko'plab ruboiy, qit'a, qasidalar ham yozgan. Lakin shoirni dunyoga tanitgan, uning "Xamsa" asari bo'ldi. Nizomiy besh dostonidan iborat, "Panj ganj" asarini yozib, sharq adabiyotida birinchi bo'lib, "Xamsa"chilikka asos soldi. O'ttiz ming misraga yaqin she'rni o'z ichiga olgan bu asar qisqa vaqt ichida yozildi. Va shoiming shuhratini olamga yoydi.

MAHZANUL ASROR (1170-77)	Sirlar xazinasi. Ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy asar. Mukammal muqaddima, 20 bobdan iborat.
XUSRAV VA SHIRIN (1181)	Eronning sosoniy hukmdori Xusrav Parvezning Arman malikasi Shiringa bo'lgan muhabbati tasviri
LAYLI VA MAJNUN (1188)	Arabistondagi Bani Omir qabilasi boshlig'ining o'g'li Qaysning Layliga bo'lgan muhabbati tasviri
HAFT PAYKAR (1197)	Yetti go'zal. Bahrom Go'ming sevgi sarguzashti tasviri
ISKANDARNOMA (1197-1204)	Iskandarning ma'rifatli, adolatli shoh obrazining mikammal siymosi tasviri.
1.SHARAFNOMA2.IQBOLNOMA	

“Mahzanul asror” (Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlangan) yigirmata bob va kichik xotimadan iborat. Bu asarda o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hikmatli hikoyalar, shoir aforizmlari bu asarda ko'plab keltirilgan. Bu hikoyatlar fikrni tasdiqlash yoki yakunlash uchun qo'llanilgan. Masalan, davlat boshliqlarini adolatga chaqiruvchi Anushervon haqidagi hikoyat xarakterlidir. Anushervon ayonlari bilan bir xaroba qishloqdan o'tayotib ikki boyqush tovushini eshitadi. Shoh ularning nima deb so'rayotganini qush tilini biluvchi dono vaziridan so'raydi. Shunda vazir deydi: “Bu boyqushlardan biri o'z qizini ikkinchisiga bermoqchi bo'lib, buning evaziga ana shu qishloqqa o'xshagan xarobalar talab qilayotir. U bo'lsa, podshohimiz Anushervon omon bo'lsa, bunday xaroba qishloqlar juda ko'payadi, istaganingcha olasan deyapti». Bundan xulosa chiqargan shoh zulm qilmaslikka, mamlakatni adolat bilan idora qilishga ahd qilibdi. Dostonda ana shunday didaktik hikoyatlar juda ko'plab uchraydi. Ikkinchi doston “Xusrav va Shirin” (Iroq hukmdori To'rg'ul IIga bag'ishlangan) deb ataladi. Bunda Eron shohi Xusrav bilan arman malikasi Shirin o'rtasidagi muhabbat tasvirlanadi. Xusravni qattiq sevgan Shirin, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolatli bo'lishga undaydi. Dostonda Farhod obrazi Shirinni qattiq sevib qolgan oddiy, mehnatkash yigit sifatida berilgan. U ariq qazish va qasr qurilishida mehnat mo'jizalarini ko'rsatadi. Lekin Shirin uni hurmat qilsa-da, sevolmasligini aytadi. Xusravni o'g'li Sheruya o'ldiradi. Keyin Shirin ham Xusrav qabriga borib o'zini-o'zi o'ldiradi.

Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” (Shirvonshohlardan Axsatan Iga bag'ishlangan) nomli asarida arab xalq afsonasini birinchi bo'lib yozma adabiyotga kiritib, ishq haqida ajoyib doston yaratdi. Bunda inson huquqlarining o'rta asrlarda qanday tahqirlangani ko'rsatib berilgan. To'rtinchi doston “Haft paykar” (Aloviddin Ko'rpa

arslonga bag'ishlangan) deb atalib, bu hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Shoh Bahrom yetti mamlakat podshohlarining yetti qiziga uylangan. Ularga yettita qasr qurdirgan. Haftaning yetti kuni yetti go'zaldan sevgi, sadoqat, mardlik kabi mavzularda yetti hikoya eshitadi. Keyin shoh Bahrom donishmand cho'pondan o'z vaziri Rost-Ravshanning sotqin va zolim ekanligini bilib qoladi. Uni zindonband etib, u qamatgan mahbuslarni ozod qiladi. Yetti mahbusning hikoyasini tinglagan Bahrom xatolariga tushunib, mamlakatni adolat bilan idora qiladi. Lekin yana Bahromning bazm, sarguzashtlari boshlanib, o'zi fojeali halok bo'ldi.

Beshinchi doston "Iskandarnoma"da Nizomiy adolatparvar podshoh obrazini yaratdi. Iskandar dunyoni kezib shimol tomonda bir mamlakatga borib qoladi. Bu mamlakatda hamma teng, o'g'rilik yo'q, kasal kishilar ham yo'q, birov-birovdan xavfsiramaydi, butun xalq inoq yashaydi. Iskandar buni ko'rib hayron qoladi va shunday mamlakatni avval ko'rganimda dunyo kezib yurmasdim, deydi. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si, umuman, uning ijodi butun Sharq adabiyotining rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shoirning Eron olimlari tomonidan turli manbalardan yig'ib chop etilgan devoni 10 qasida, 192 g'azal, 5 qit'a, 68 ruboiydan iborat. Davlatshoh Samarqandiy Nizomiyning 20 ming misradan iborat she'rlari devoni mavjudligini ta'kidlagan.

Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ul bosqinchilarining istilosi tufayli mamlakatda tushkunlik yuz berdi. Natijada diniy-tasavvufiy adabiyot shakllana boshladi. Tasavvuf oqimga mansub bo'lgan shoirlardan Zulfiqor Shervoniy, Shams Tabriziy, Mahmud Shabustariylar mavjud ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyatlarini diniy-mistik qobiqqa o'rab ifodaladilar. Shoir Imommiddin Nasimiyning ijodi o'sha paytda mavjud bo'lgan diniy-siyosiy tashkilot – xurufiyarga yaqin turar edi. U hatto shariat qonun-qoidalariga qarshi she'rlar yozdi, insonning aql-idrokini ulug'ladi. U "Inson o'z aqli tufayli xudolik darajasiga ko'tarilishi mumkin", degan g'oyani olg'a surdi.

XIV-XV asrlarda Ozarboyjon tilidagi adabiyotning shakllanish va taraqqiyot davri bo'ldi. Imomiddin Nasimiy, Ahmad Burxoniddin singari shoirlar o'z asarlari bilan Ozarboyjon adabiyotining shuhratni dunyoga taratdi.

Ma'lumki, bu davrda Xurufiylik oqimi mavjud bo'lib, bu o'ziga xos tasavvufning bir yo'nalishi edi. Nasimiy ana shu xurufiylik oqimining yirik vakili sifatida erk va ozodlik haqida asarlar yaratgan. Shu asarlari uchun u hukmdorlar tomonidan dahshatli jazoga duchor bo'lib o'ldiriladi.

Burxoniddin Axmadning esa she'rlari sevgi, botirlik, jasorat va vatanparvarlik ruhida yozilgan. Uning ijodida «tuyuq» she'rlar ham ko'p uchraydi. Bu she'riy shakl faqat turkiy she'riyatga xos bo'lib, shoir uning go'zal namunalari yaratgan.


Ozarboyjon adabiyotining o'rta asrdagi taraqqiyotida Shoh Ismoilning ham katta hissasi bor. U Ozarboyjon xalqi tarixida katta burilish yasagan davlat arbobi bo'lib hisoblanadi. U tarqab ketgan Ozarboyjon davlatini birlashtirdi. Ozarboyjon tilida davlat

ishlari olib borish uchun farmon chiqardi. O'z davlatining poytaxti qilib Tabrizni tikladi. Bu davrda Tabriz Sharqda madaniyat, ilm-fan markaziga aylandi. Ozarbayjon xalqining milliy o'zligini anglash ana shu shoh Ismoil hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Mashhur musavvir Komoliddin Behzod ham Shoh Ismoil rahnamoligida bir necha yil ijod qildi. Bu shoh «Xaton» taxallusi bilan she'rlar yozardi. Uning ko'pgina intim mavzudagi lirik she'rlari va dostonlari bizgacha yetib kelgan. U she'rlarida mardlik, jasorat, vatanparvarlik kabi mavzularni kuyladi. Uning «Nasihatnoma» kitobi o'sha davr Ozarbayjon didaktik poeziyasining eng go'zal namunasi edi. Shoirning yana «Dahnoma» nomli dostoni ham mashhurdir. Bu kitoblar sodda, xalq so'zlashuv uslubiga yaqin, shu bilan birga toza va shirali tilda ijod qilingan edi.



Muhammad Fuzuliy ijodi. XVI asrning birinchi yarmida ijod qilgan shoir Muhammad Fuzuliy Ozarbayjon poeziyasining cho'qqisi deb hisoblanadi. Fuzuliy ijodi o'zbek kitobxoni uchun ham azaldan tanish. Bu shoir asarlari xuddi o'zbek shoirlari Navoiy, Bobur asarlaridek o'rganilgan. Fuzuliyxonliklar o'zbeklar o'rtasida doimo bo'lib turgan. Fuzuliy juda ajoyib g'azallari, oshiqona his-

tuyg'ularga boy "Layli va Majnun" dostoni, o'z davri ijtimoiy voqealariga munosabat bildirib yozgan "Shikoyatnoma", "Bangu boda", "Anisul qalb", "Matla'ul e'tiqod" kabi o'nlab asarlari bilan Sharq adabiyotida katta shuhrat qozondi. Unung adabiy merosi quyidagilardan iborat: 1. *She'riy devoni*; 2. *"Layli va Majnun" dostoni*; 3. *Matla'ul e'tiqod* (*E'tiqodning boshlanish joyi*); 4. *Hadiqat us-suado* (*Baxtiyorlar bog'i*); 5. *Suhbat us-asmor* (*Mevalar munozarasi*); 6. *Shikoyatnoma*; 7. *Bang va boda*; 8. *Anis ul-qalb* (*Qalb do'sti*); 9. *Yetti jom* (*Soqiynoma*); 10. *Rind va Zohid*; 11. *Sihhat va Maraz* (*Sog'lik va Bemorlik*).



Devonida 300 yaqin g'azal, 75 ruboiy, 42 qit'a, bir necha terje'band, tarkiband, muxammas va murabba'lar o'rin egallagan. Shoirning *turkiy* devonida – 27 qasida, *forsiy* devonida – 46, *arabiy* devonida – 12 qasida mavjud.

Shoir 1498-yilda Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Uning otasi Ozarbayjondan Iroqqa ko'chib borgan. Fuzuliy yoshligida yaxshi bilim oldi. U Bog'dod madrasalaridan birida tahsil oldi. Domlalaridan birining qiziga uylanib, bir o'g'il ko'radi. Shoirning bu o'g'li ham Fazliy nomi bilan ijod qilib, taniqli shoir bo'lgan. Fuzuliy yoshligidan

she`rlar yozgan. U tabiat ko`rinishlarini inson ruhi bilan uyg`unlashtirib tasvirlovchi shoir sifatida mashhurdir.

Uning "Falaklar yondi ohimdan, murodim shami yonmasmu", "Shifoiy vasl qadrin hajr ila bemor o`landan so`r", "G`amzasin sevding, ko`ngil, joning kerakmasmu sanga" kabi o`nlab she`rlari o`zbek xalqining qalbidan chuqur joy olib, qo`shiqlar bo`lib aytilib kelmoqda. Fuzuliy ijodiga Navoiy va Lutfiylarning katta ta`siri bor. Shoir devonida ikkita muxammasning bittasi Lutfiyning g`azaliga bitilgan. Fuzuliyning ishq haqidagi she`rlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat mohirona singdirib yuborilgan.

Muhabbat lazzatidin bexabardir zohid-u g`ofil

Fuzuliy ishq zavqin ishq zavqi vor o`landin so`r.

Fuzuliyda tasavvufona she`rlar ham anchagina. U ilohiy ishq haqida otashnafas she`rlar yozadi, favqulodda go`zal tashbehlar topadi.

Tarki may-u mahbub edariz jannat uchun,

Sharh aylaki, jannatda na vor voiz?

yoki:

Mahshar kuni ko`ram deram ul sarvi qomati,

Gar anda ham ko`rinmasa, kel ko`r qiyomati.

Shoir o`z jamiyatidan narozilik kayfiyatlarini ayniqsa, "Layli va Majnun" dostonida ko`proq namoyon qiladi. Bu asar haqida mashhur tanqidchi olim T.Jalilov shunday yozadi: "Men "Layli va Majnun"larni qayta-qayta o`qidim. Shunda Nizomiy dahosiga qoyil qoldim. X.Dehlaviyning bulbuldek sayrashiga ofarin dedim; Navoiyning Majnuniga motam tutib yig`ladim; Fuzuliyga kelganda hayrat mayidan mast bo`ldim. Insof bilan aytganda, Fuzuliyning "Layli va Majnun"i barcha "Layli va Majnun"larning gultojidir".

O`zbek shoirlari Fuzuliydan ko`p o`rgandi. Unga ergashib she`rlar yozdi. Masalan, Mashrabning quyidagi g`azali bunga misol bo`la oladi.

Ne savdolar boshla solding, bu savdolar tuganmizmu?

Ki band etding oyoqlarni, yana bandlar yozilmazmu?

XVI-XVII asrlarda Ozarbayjonda turk sultonlari hukmronlik qildi. Bu davr ozarbayjon adabiyotida ijtimoiy voqealarga munosabatning kuchayganligi ko`zga tashlanadi. Ayniqsa, Vidodiy bilan Voqif kabi shoirlar ijodida bu holat ko`proq seziladi. Voqelikni haqqoniy aks ettirish, xalq orzu-umidlariga yaqinlik hamda she`rni nihoyatda sodda va xalqchil uslubda yozish, bu ikki shoir ijodining fazilatlaridan biri edi.

Voqif va

Vidodiy ijodi.

Vidodiy hayotda juda qiynalib yashadi, u mavjud siyosiy tuzum bilan kelisholmadi. Shuning uchun uning asarlarida hasrat va nadomat motivlari yetakchi o`rinda turadi. Shoiring "Turnalar", "Yig`laysan" kabi asarlari va Voqifga yuborgan she`riy maktublarida bu ayniqsa ko`zga yaqqol tashlanadi.

Mehnatkash oilada tug'ilib voyaga yetgan, o'z aql-idroki bilan vazirlik darajasiga ko'tarilgan Mullo Panoh o'g'li Voqif ijodida esa asosan hayotbaxsh ruh hukmron edi. Shoir hayot go'zalligini madh etib, inson shu dunyoda ham baxtli yashash mumkin deb, o'sha davrdagi tushkunlik kayfiyatidagi she'riyatga qarshi bordi.

Mullo Panoh Voqif Ozarbayjonning Qozoq rayonidagi Saloqli qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligida o'z davrining mashhur olimlaridan dars olgan. Keyinchalik uning oilasi Shusha shahriga ko'chib borgan. Voqif bu yerda o'qituvchilik qilgan, tez orada uning mashhur shoir bilimdon va donishmand kishi ekanligi Shusha xoni Ibrohimbekka yetadi. Uni saroyga ishga taklif qiladi. Shoir Ibrohimbek saltanatida bosh vazir darajasigacha ishlashga muvaffaq bo'ladi. Tarixiy voqealar va urushlar tufayli Ibrohimbek Shushani tashlab ketadi. Uning o'rmini egallagan amakivachchasi Muhammadbek Javonshir Voqifni o'g'li Aliog'a bilan birga dorga osib qatl etadi.

Voqif Ozarbayjon adabiyotida romantik poeziyadan realistik poeziyaga o'tgan birinchi ijodkordir. Uning she'rlarining ko'pchiligi sodda, xalq ruhiga yaqin barmoq vaznida yozildi. Ular mazmun jihatidan ham xalq qo'shiqlariga yaqin turadi. U oddiy mehnatkash xalqning og'ir ahvoli haqida yozdi. Voholanki, bu davr ozarbayjon shoirlarining ko'pchiligi ishq-muhabbat temasida asarlar yozar edi. Voqif esa ana shu qotib qolgan an'ana qobig'idan birinchi bo'lib chiqqan shoirlardandir.

Bayram keldi, naylashimni bilmayman

Bizing uyda to'liq juvol ham yo'qdir.

Don ham, yog' ham allaqachon tugovdi,

Etni-ku ko'rmaymiz, mo'tol ham yo'qdir.

Bizning bu dunyoda na molimiz bor

Va na uyda sahibjamolimiz bor.

Voqif, chiranmaki, kamolimiz bor,

Xudoga shukurki, kamol ham yo'qdir.

Ko'rinib turibdiki, shoir mehnatkash xalqning og'ir ahvolini tasvirlab, o'zini ham ular bilan bir qatorda hisoblayapti. Shoirning "Boq", "Ko'rmadim" nomli she'rlarida ham adolatsiz zamondan shikoyat motivlari ko'zga tashlanib turadi. Voqif g'azallarida asosan Sharq g'azalchilik an'anasi davom ettirilgan. Ishaq-muhabbat mavzuidagi g'azallar asosiy o'rinni egallaydi. Shoir bu g'azallarida dunyoviy ishqni ko'proq kuylaydi.

Seviklim, bu nazokatda gul-u ra'nodan ortiqsan

Sanobar, sarvi shamshod, to'biyi zebodan ortiqsan.

Qoshing toqin qo'yib, mehrobga men qilmadim sajda

Ki sen yuz marta ul ka'bayi ulyodan ortiqsan

Menam Voqifmanu – Farhod ila Majnundan a'loman,

Agar sensan - o'shal Shirin ila Laylodan ortiqsan.

Shoirming ushbu sheʼri ham klassik traditsion janrda yozilgan. Unda qofiya, radif va vaznlar maʼlum tartib-qoidalarga rioya qilingan. Lekin gʻazalda maʼshuqa sifatleri hatto Kaʼbadan yuz marta ortiqsan deb tavsiflanyapti. Bu oʻsha davrda katta jasorat edi. Bunday soʻzlarni musulmon dunyosidagi shoirlar kamdan – kam ishlatgan. Bu sheʼrlar qandaydir tomoni bilan oʻzbek xalqining isyonkor shoiri Mashrab sheʼrlariga oʻxshash jihatlari bor. Shoirming “Oʻlmaram”, “Kelmadi”, “Yigʻlaram” kabi gʻazallarida ham oʻziga xos original tashbehlar ishlatilganligini koʻramiz.

Darsni mustahkamlash: Dars test asosida mustahkamlanadi. Dars boshlanish qismida berilgan “BBB” jadvali toʻldiriladi.

1. Davlatshoh Samarqandiy Nizomiyning qancha misradan iborat sheʼrlari devoni mavjudligini taʼkidlagan?

- a) 10 ming; b) 15 ming; s) 20 ming; d) 25 ming.

2. Shaar va Xayr obrazlari Nizomiy Ganjaviyning qaysi dostonida uchraydi?

- a) “Haft paykar”; b) “Mahzan ul-asror”; s) “Iskandarnoma”; d) “Iqbolnoma”.

3. “Malik ush-shuaro” unvoniga Musharraf boʻlgan ijodkorni aniqlang.

- a) Abu-l Ali Ganjaviy; b) Nizomiy Ganjaviy; s) Asoor Tabriziy; d) Xatib Tabriziy.

4. Ozarbayjon tilidagi yozma adabiyot nechanchi asrdan boshlanadi?

- a) IX asr; b) X asr; s) XII asr; d) XIII asr.

5. “Mehr va Mushtariy” asarining muallifi?

- a) Abu-l Ali Ganjaviy; b) Nizomiy Ganjaviy; s) Asoor Tabriziy; d) Xatib Tabriziy.

6. Nizomiy Ganjaviyning qaysi dostonida bosh qahramon olimlar bilan inson .va koinot, obyektiv borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususida savol-javobi batafsil yoritiladi?

- a) “Hayt paykar”; b) “Mahzan ul-asror”; s) “Iskandarnoma”; d) “Iqbolnoma”.

7. Fuzuliy qaysi asarida Nizomiy Ganjaviy anʼanalarini davom ettiradi?

- a) “Shikoyatnoma”; b) “Suhbat us-asmor”; s) “Layli va Majnun”; d) “Yetti jom”.

8. Fuzuliyning forsiy devonida qancha qasida bor?

- a) 27 ta; b) 42 ta; s) 46 ta; d) 12 ta.

9. Fuzuliyning “Keldi burji avliyoya podshohi nomdor” deb boshlanuvchi qasidasi kimga bagʻishlangan?

- a) Qonuniy Sulton Sulaymonga; b) Maqbul Ibrohim Podshoga; s) qoziaskar Abdul-qodir Chalabiyga; d) Jalalzoda Mustafo Chalabiyga.

10. *Ozərbaycan ədəbiyyatında realistik poeziyanı bəsləyən ijdokor?*
a) Vəqif; b) Vədodiy; s) Fuzuliy; d) Xətib Təbriziy.

Mustaqil iş:

1. Ziyonet.uz internet tarmog'idan Azərbaycan xalq məqollarını o'rganish.
2. Nizomiy Ganjaviyning "Layli va Majnun" asari.
3. Nizomiy Ganjaviyning 3 ta g'azalini yod olish, ruboiylari bilan tanishish.
4. Muhammad Fuzuliyning 3 ta g'azalini yod olish, ruboiylari bilan tanishish.

Darsni yakunlash. O'qituvchi yangi mavzu "Hozirgi zamon Azərbaycan ədəbiyyoti" haqida mə'lumot beradi. Talabalarni yangi mavzuga tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Google.ru. Azərbaycanская литература.
2. Ариф М. Azərbaycanская литература. – Москва, 1979.
3. Маллаев Н. Низомий Ганжавий. – Тошкент, 1966.
4. Фалаклар ёнди оҳимдан... // Жаҳон адабиёти, 1997, 3-сон.
5. Жалолов Т. Хамса талқинлари. – Тошкент, 1961.
6. Донишмандлар тухфаси. – Тошкент, 2009.
7. Муҳаббат тароналари. – Тошкент, 2005.
8. Низомий шеърятдан. – Тошкент, 1982.
9. Низомий Ганжавий. Икболнома. – Тошкент, 2009.
10. Фузүлий. Ғамзасин севдинг кўнгил. – Тошкент, 2009.

Mavzu: HOZIRGI ZAMON OZARBAYJON ADABIYOTI

Reja:

1. *XX asr boshlaridagi tarixiy muhit va adabiyot.*
2. *Ozərbayjon adabiyotida ma'rifatchilik*
3. *Ozərbayjon adabiyotida tur va janrlar rivoji*
4. *Ozərbayjon adabiyoti vakillari.*
5. *Keyingi yillar Ozərbayjon adabiyoti.*

Tayanch soʻzlar: *Ma'rifatparvarlik. Yevropa adabiy anʼanalari. Drammaturgiya-ning shakllanishi. Realistik adabiyot. Ozərbayjon adabiyoti vakillari ijodi.*

Darsning maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va turk xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o'rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish va h.k.

Mashg'ulotni muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish

Mashg'ulot vazifasi:

a) *ta'limiy* – mavzu haqida ma'lumot berish, “Hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti” mavzusiga oid asosiy ma'lumotlar va materiallarni berish va mavzu hqqida tushuncha hosil qilish, ozarbayjon adabiyoti bilan tanishtirish;

b) *tarbiyaviy* – talabani o'z-o'zini hurmat qilishga o'rgatish, o'z faoliyatini boshqara bilish, ishontrish, o'z xulqi atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o'zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o'z o'rtog'ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to'xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) *rivojlantiruvchi* – darslik, o'quv qo'llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiqlikdan murakkablikka o'tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yondashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qitish texnologiyasi: o'qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma'ruza, aqliy hujum, “Insert” usuli

O'qitish shakli: frontal so'rov, umumiy sinov

O'qitish vositasi: ma'ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og'zaki nazorat, lahzalik so'rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;

- o'quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;

- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'niga izoh berish;

- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;

- mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojidagi o'niga e'tiborini qaratish

Ma'ruzaning samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim shartlar bajarildi:

Didaktik talablar

d) ma'ruzaning batafsil rejasi tuziladi;

e) ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish)lar beriladi.

f) mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlar ma'lum qilinadi;

g) rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;

h) ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi;

i) yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatiladi.

O'quv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti haqidagi tushunchani, bu davrda ijod etgan adiblarning ijodi haqidagi tushunchalarni berish bu asarlarning ozarbayjon, qardosh hamda jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissalarini xususida so'z yuritish, bugungi o'zbek adabiyotshunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bog'lash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlari to'xtalish kabi ma'lumotlar beriladi.

2. Talabalarning diqqatini qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning o'ziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rini ko'rsata olishi va bugungi o'zbek adabiyotida ta'sirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bolishlari muhimligi uqtiriladi.

Ma'ruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Ta'lim texnologiyasini qo'llash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni o'zlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;
Xulosa va uyga vazifa	- 5 minut.

Dars mazmuni: 55 minut. Dars “BBB” jadval bilan ishlash asosida boshlanadi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.XX asr ozarbayjon adabiyoti haqida qisman ma`lumotga egaman.</p> <p>2. XX asrda ijod etgan adiblar haqida qisman ma`lumotga egaman	1. XX asr ozarbayjon adabiyoti haqida to`liq ma`lumot olish 2. XX asr ozarbayjon ijodkorlari bilan tanishish 3. Ular yaratgan asarlar mazmuni haqida ma`lumot 4. Ozarbayjon adabiyotida janrlar rivoji 5. Mustaqillik davri ozarbayjon adabiyoti	

**XX asr
boshlaridagi
tarixiy
muhit va
adabiyot**

XIX asrda Ozarbayjon Rossiya tomonidan zabt etilishi. Bundan keyin ijtimoiy hayotda ham, adabiyotda ham katta o`zgarishlarga olib keldi. Bu davrda ozarbayjon ma`rifatparvarlik adabiyoti shakllana boshladi. Abbasquli Boqixonov, Mirzo Shofiy Vozeh, Ismoilbek singari ijodkorlar Ozarbayjon adabiyotida birinchilardan bo`lib realistik dostonlar va novellalar ijod qildi.

Ozarbayjon demokratik adabiyotining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo`shgan shoirlardan biri Saidazim Shirvoni edi. U lirikada Fuzuliy an`analarini davom ettirgan bo`lsa, satirada M.Oxundovga ergashdi. Uning ma`rifatparvarlikni targ`ib etuvchi an`anaviy asarlari mavjud. Bu davr Ozarbayjon adabiyotida Xurshidbonu, Notavon, Hayronxonum kabi shoirlar ijodi ham katta ahamiyatga ega. Bu shoirlar Fuzuliy, Voqif kabilarning an`analarini yangi zamonda davom ettirib, Ozarbayjon poeziyasining yuksalishiga katta hissalarini qo`shdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ozarbayjonda teatr san`ati rivojlandi. Boku va boshqa bir qator shaharlarda yangi-yangi teatrlar tashkil etildi. Bu esa dramaturgiyaning rivojlanishiga sabab bo`ldi. Natijada Natafbek Vezirov, Narimon Narimonov, Asadbek Axverdov kabi dramaturglar yetishib chiqdi.

N.Vezerov “Yomg`irdan qochib selga», “Faqat nomigina qoldi”, “Nima eksang, shuni o`rsan” kabi dramalarida ijtimoiy tuzumdagi turli illatlarni fosh qildi. Xotin-qizlar ozodligi mavzusini ko`tarib chiqdi. N. Vezirov “Faxriddinning sho`ri” pyesasida zolim boy qo`lida ezilgan bechora mehnatkash kambag`al kishilarning fojiali hayotini tasvirlaydi. “Pahlavonlar” nomli pyesasida esa neft ishlab chiqarish bilan bog`liq turli tovlamachiliklar, adolatsizliklar ustidan kuladi. Bu davrda yaratilgan A. Axverdovning “Xonavayron qilingan uya”, “Baxtsiz yigit”, J.Mamatqulizodaning “O`liklar” nomli

pyesalari ham katta shuhrat qozondi. Bu pyesalarda Ozarbayjonda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishiga doir voqealar o'z aksini topdi.

Bu davrda Jafar Mamatqulizoda rahbarligida "Mullo Nasriddin" nomli satirik jurnali chiqa boshladi. Bu jurnal faqat Ozarbayjonda emas, balki butun turkiy xalqlar orasida juda mashhur bo'ldi. J.Mamatqulizoda o'z davridagi turli illat va nuqsonlarni kichik va ixcham satirik hikoyalarda aks ettirdi. U N.V.Gogolning an'analarini o'zlashtirib, o'z davri adabiy jarayonining yirik hajvchisi darajasiga ko'tarildi. U ko'pgina satirik hikoyalarda o'ta makkor, tovlamachi siyosiy hukmdorlarni, o'z manfaati yo'lida dini va iymonini ham sotgan ruhoniylarni tanqid qildi. Aliakbar Sobir esa ozarbayjon adabiyotida satirik g'azallarning yetuk ijodkori sifatida tanildi.

1905-1907-yillar Rossiyada hukumatga qarshi katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar Rossiyaning mustamlaka o'lkalarida milliy ozodlik ko'rinishida bo'ldi. Jumladan, Kavkaz orti respublikalarida ham mavjud tuzumga qarshi ko'plab g'alayonlar bo'lib o'tdi. Ana shu ijtimoiy hodisalar bu xalqlarning adabiyotida o'z aksini topdi.

Bu davr Ozarbayjon adabiyotida realistik oqim shakllanib, uning vakillari ijtimoiy hayotdagi voqealarni to'g'ri, haqqoniy aks ettirishga intildi. Shu bilan birga, bu davrda romantik yo'nalishdagi yozuvchilar ham mavjud edi. Ular milliy burjuaziya mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqadi, deb ishonar edi. Xalq ommasini esa to'polonchi, olomon sifatida tushunar edi. Shuning uchun ularning asarlarida endi shakllanib kelayotgan burjuaziya sinfi vakillari ijobiy qahramon sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda romantik oqimning Muhammad Xodiy, Abbos Sixat, Husayn Jovid singari vakillari o'zlarining ko'plab ma'rifiy asarlari bilan mashhur bo'ldi. Ayniqsa, M.Xodiyning asarlarida o'sha davrning katta ijtimoiy voqealari lirik yo'nalishda aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Uning "Alvoxii intiboh, yohud insonlarning tarixiy fojialari" nomli falsafiy dostoni juda mashhur bo'lgan. Bu asar o'zining g'oyaviy badiiy va chuqur falsafiy mushohadalari bilan ozarbayjon adabiyotining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Shoiming "Hayot sadolari" nomli dostoni o'zbek tiliga R.Parfi va Abdurahmon Vodiliylar tomonidan tarjima qilingan.

Hayotning saslari go'shimda ko'p faryod shaklinda,
Bu insonlar ki qardoshdir va lekin yot shaklinda,
Bu tuproq qonli avloqdir, bashar sayyod shaklinda,
Adovat doimo bordir, muhabbat mot shaklinda,
Bu dunyo eskidandir sahnai bedod shaklinda,
Jahon boshdin oyoq maydoni motamzod shaklinda,
Faraxlar hibs bo'lmish xuznlr ozod shaklinda,
Musibatlar, balolar, g'ussalar obod shaklinda
Yuraklar g'am o'ti-la har zamon barbod shaklinda,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

Bu davrda Pushkin va Lermontovning ko'plab romantik asarlari ozarbayjon tiliga tarjima qilindi. Ozarbayjonning romantik yozuvchilarining yaratgan asarlari XX asr ozarbayjon adabiyotida yangi avlodning yuzaga kelishiga katta ta'sir qildi. Ja'far Shaboli, Samad Vurg'un, Marvarid Dilbozi singari talantli yozuvchilar dastlab shu romantik maktab ta'sirida tarbiyalanib asarlar yozgan edi.

Ozarboyjon adabiyoti taraqqiyotiga Nadjadbek Vezirov (1854-1926) ham katta hissa qo'shgan. Bu ma'rifatparvar shoir Moskvada o'qib, o'z davrining bilimdan savodli kishisi bo'lib yetishdi. N.Vezerov ozarbojon teatrining shakllanishiga asosiy hissa qo'shgan san'atkoridir. U M.F.Oxundovning an'analarini yangi zamonda davom ettirib, jaholatga, qoloqlikka, yaramas urf-odatlariga qarshi kurash olib bordi. Uning «Yomg'irdan qochib selga», «Faxriddinning sho'ri», «Faqat nomigina qoldi», «Nima eksang, shuni o'rasan», «Pahlavonlar» kabi dramalarida ozarboyjon xalqining olg'a ketishiga to'siq bo'lgan illatlar fosh qilingan. Masalan, «Faxriddinning sho'ri» pyesasida yosh yigit Faxriddin katta boy oiladan chiqqan. U o'qib, mehnat qilib ziyoli kishi bo'lib yetishadi. Xalqni orqaga sudrayotgan jaholatni o'z atrofidagilarga tushuntirilmay xunob bo'ladi. «Zamonamiz qahramonlari» pyesasida esa har xil tovlamachilar, neftni sotuvchi birjadagi qalloblar qattiq tanqid qilingan. Uning «Yangi eraning tug'ilishi» nomli dramasi XX asr boshlaridagi tarixiy voqealarga munosabat bildirilgan.

Husayn Jovid (1882-1945) XX asr Ozarboyjon adabiyotining yorqin siymolaridan biridir. U Naxchevan shahrida tug'ildi. Dastlab Tabrizda madrasada o'qidi. Keyin Istanbul universitetida adabiyot bo'limini tamomladi. Naxchevan, Ganja, Tiflisdagi o'qituvchilik qildi. 1915-yildan Boku shahrida yashadi. 1926-yilda sog'ligi yomonlashgani tufayli davolanish uchun Germaniyaga boradi va bu yerda bir qancha vaqt yashaydi. Stalin qatag'oni yillarida yozuvchiga «millatchi» deb ayb qo'yiladi. 1937-yil qamoqqa olinadi va 1945-yil ana shu qamoqxonada vafot etadi.

Husayn Jovid dramaturgiya janrida muvaffaqiyatli ijod etdi. Uning «Knyaz», «Payg'ambar», «Shayx San'on», «Xayyom», «O'pqn», «Amir Temur», «Iblis» nomli dramatik asarlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. «Amir Temur» dramasi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Asarda Temurning Boyazid bilan olib borgan urushi hikoya qilingan. Bunda G'arbning ayyor diplomatiyasi ikki qondosh xalqni bir-biri bilan urishtirib qo'ygani hikoya qilingan. O'sha vaqtda butun dunyoning katta qismi turk hukmdorlari qo'li ostida edi. Bu hukmdorlarning biri Turk sultoni Yeldirim Boyazid, ikkinchisi Amir Temur edi. Asarda ana shular o'rtasidagi jang va uning oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

Asr boshidagi tarixiy voqealar o'sib, 1917-yilgi to'ntarishga olib keldi. Ozarbayjonda 1918-yilda milliy burjuaziya respublikasi tuzildi. Lekin bu respublika bolsheviklar tomonidan 1920-yilda ag'darib tashlandi va Sovet hokimiyati tarkibiga kiruvchi Ozarbayjon Respublikasi tuzildi. Rossiya imperiyasining zulmidan qutulgan ozarbayjon xalqi bolsheviklarning zulmi ostida 1991-yilgacha yashab keldi. Ana shu

davrdagi ozarbayjon adabiyotida Samad Vurg'un, Sulaymon Rustam, Mamad Rahim Mirzo Ibrohimov kabi talantli yozuvchilar yetishib chiqdi.

Samad Vurg'un Ozarbayjonning Qozoq rayonida tug'ilgan. Yusuf Samad o'g'i Vekilov (Vurg'un – adabiy taxallusi "oshiq" degan ma'noni bildiradi) Boku va Moskv oliy o'quv yurtlarida o'qigan. Shu yillardan boshlab uning "Shoirlik qasami", "Fonar", "Ko'ngil daftari", "Tong qo'shig'i" kabi to'plamlari nashr qilindi. S.Vurg'un XX as ozarbayjon adabiyotining klassik shoiri edi. Afsuski, uning ko'pgina asarlari kommunistik mafkura ta'sirida yozilgan. Lekin shoir shunday asarlarida ham yuksak badiiy mahorat cho'qqisiga ko'tarildi. U bir qancha poemalar yozdi. Shoirming bu dostonlarida ozarbayjon klassik dostonlari an'analari bilan G'arbiy Yevropa adabiyoti an'analari uyg'unlashib ketgan. "Yigirma oltilar", "Kolxozchi xotin Basti haqida qissa", "Mo'g'on", "Zanjining orzulari" kabi dostonlari o'z davrida juda mashhur bo'lgan.

S.Vurg'un siyosiy lirika sohasida ham barakali ijod qilgan. Uning "Dunyo xaritasi" turkumiga kiruvchi she'rlarida ezilgan millatlarning taqdiri, ularning bosqinchi imperialistik davlatlarga qarshi kurashi o'z ifodasini topgan.

Samad Vurg'un iste'dodli dramaturg sifatida ham barakali ijod qildi. Uning tarixiy mavzudagi "Voqif" tragediyasi ayniqsa mahorat bilan yozilgan. Bu asar Uyg'un bilan I.Sultonning "Alisher Navoiy" nomli dramasiga o'xshashdir. Dramaturg "Voqif" tragediyasida XVIII as ozarbayjon xalqi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni asar kompozitsiyasiga ustalik bilan joylashtirgan. Bu voqealar ma'rifatparvar shoir Voqif biografiyasi tasviri bilan uyg'unlashib ketgan. Shoir taqdiri, ijodi bu asarda xalq taqdiri bilan bog'liq tarzda tasvirlangan. Yozuvchining "Farhod va Shirin" dramasi Nizomiy "Xamsa"sidagi shu nomli doston asosida yozilgan bo'lsa, "Xonlar" dramasi esa zamonaviy mavzuda yozilgan. Xonlar Bokudagi ishchilar sinfining yirik vakili sifatida tasvirlangan. U ozarbayjon xalqining Chor Rossiyasi mustamlakachilaridan va ekspluatatorlar zulmidan ozod qilinishi uchun kurashgan qahramon obrazidir. Qisqasi, S.Vurg'un ijodi XX as ozarbayjon adabiyotida katta o'rin egallaydi. U qisqagina umri davomida yozib qoldirgan asarlari ozarbayjon xalqi qalbida abadiy qoladi.

Ozarbayjon adabiyotida sotsialistik realizm metodi hukmron bo'lsa-da, ko'pgina asarlar yaratildi. Ayniqsa, she'riyat 20-30-yillarda yetakchi janrga aylandi. Klassik poeziyada ko'pgina intim tuyg'ularni kuylagan ozarbayjon she'riyati bu davrda siyosiy-ijtimoiy mavzularga ko'p e'tibor berdi. Siyosiy lirikaning go'zal namunalari vujudga keldi. Sulaymon Rustamning "Ikki sohil" she'riy turkumlari, Rasul Rizoning "Chapay", "Germaniya" kabi asarlari bunga misol bo'lishi mumkin.

O'ttizinchi yillarda ozarbayjon adabiyotida poema janrining taraqqiyoti ko'zga tashlanadi. Davrdagi bo'layotgan voqealarni his-hayajon bilan kengroq va kattaroq hajmda tasvirlash zarurati tug'ildi. Natijada Mamat Rahimning "Sayat Navo" kabi dostonlari yaratildi. Urush yillari ozarbayjon adabiyotida jangavor lirikada asarlar yozish kuchaydi. S.Vurg'un va R.Rizolarning bu davrdagi jangavor she'rlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Urush davri va undan keyingi davrlar ozarbayjon adabiyotida prozaik asarlar yozish ham kuchayib bordi. Bir qator tarixiy mavzudagi asarlar yaratildi. M.Urdubodiyning "Tumanli Tabriz", A.Abulxasaning "Buzulayotgan dunyo", Mirjalolning "Shamo", "Yosh yigit manifesti" kabi romanlari shular jumlasidandir. M.Husaynning "Sahar" nomli romanida 26 Baku komissarlarining hayoti tasvirlangan. Ayniqsa, bunda mashhur erk kurashchisi A.Azizbekovning obrazi mukammal yaratilgan.

Zamonaviy mavzuda esa, M.Husaynning "Absheron", "Qora qoyalar", Mirzo Ibrohimovning "Buyuk tayanch", S.Rahmonning "Ulug' kunlar" kabi roman va povestlari yaratildi.

M.Husaynning "Absheron" romanida ozarbayjon ishchilari sinfining hayoti aks ettirilgan. Neft ishlab chiqarishda jonbozlik ko'rsatgan Tohir, Usta Ramazon, Qudrat va Lola kabi qahramonlar taqdiri berilgan.

Ozarbayjon adabiyotida chet el mavzusi Mirzo Ibrohimovning "Shunday kun keladi" romanida katta mahorat bilan yoritilgan. Eronda yashovchi ozarbayjonlar hayotidan olib yozilgan bu asarda ozarbayjon millatining yagona bir davlatga birlashishi haqida gap boradi. Chunki Eronda yashovchi ozarbayjonlar ko'p yillardan buyon Shimoliy Ozarbayjon bilan birlashish uchun kurash olib bormoqda. Yozuvchi shunday kun albatta kelishini o'z asarida badiiy obrazlar vositasida ko'rsatib berishga harakat qilgan.

G.Saidbeylining "Notanish qirg'oqlar" povestida esa yugoslav va italyan partizanlariga rahbarlik qilgan, nemis-fashistlarga qarshi kurashgan ozarbayjonlik yigit M.Husaynzodaning qahramonliklari, jasorati tasvirlanadi.

Yosh yozuvchilardan bo'lgan Bayram Bayramov "Yaproqlar", Iso Husayinov "Tong yulduzi", Manaf Ibrohimov "Yer osti sirlari" kabi romanlarini keyingi yillarda e'lon qildi. Bu asarlar hozirgi ozarbayjon adabiyotining katta yutuqlari sifatida tan olinmoqda.

Dramaturgiya sohasida ham anchagina yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu sohada mashhur dramaturg Jafar Jabarlining yaratgan asarlari katta ahamiyat kasb etdi. Uning "1905-yilda", "Sevil", "Yashar", "Olmos" kabi asarlari ozarbayjon dramaturgiyasining rivojiga katta hissa qo'shdi.

S.Vurg'unning "Voqif" tarixiy dramasida XVIII asrdagi tarixiy voqealar mashhur shoir Voqif obrazi vositasida aks ettirilgan. M.Husaynning "Javonsher", S.Rustamning "Qochoq Nabi", E.Madxonlining "Sharq tongi" kabi asarlari ham tarixiy mavzuda yozilib, o'zlarining yuksak badiiyligi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Xojibekovning "Arshin mol olon" muzikali dramasi ham ko'p tillarga tarjima qilingan.

60-70-yillar ozarbayjon adabiyotida ko'pgina talantli ijodkorlar faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda R.Rizoning "Kunlar va tunlar", "Tanholik intihosi" she'riy to'plamlari, Nasimiyga bag'ishlangan "So'nggi kecha", Ikkinchi Jahon urushi voqealari aks etgan

“Ming to‘rt yuz o‘n sakkiz” dostonlari ozarbayjon she‘riyatining so‘nggi yillaridagi katta yutug‘i bo‘ldi.

Prozada Ismoil Shixlining “Sertashvish Ko‘ra”, Husayn Abboszodaning “General”, Anorning “Odamoxun”, A.Askeroevning “Ol yanoq”, Elchinning “Bi-uchrashuv hangomasi” nomli roman va qissalari yozildi.

Anor 1938-yilda mashhur shoir Rasul Rizoning oilasida tug‘ilgan. Onasi Nigora Rafibeyli ham mashhur shoira edi.

Anor keyingi yillar ozarboyjon adabiyotining yirik vakili sifatida ko‘plab samarali ijod qilmoqda. Uning «Besh qavatli uyning oltinchi qavati» nomli asarida hozirgi zamondoshlarimizning ruhiy dunyosi katta mahorat bilan chizib burilgan. Asarda Zuarbosh qahramon. U Taxmina ismli ayolni jonidan ham ortiq yaxshi ko‘radi. Taxmina ham Zuarni sevadi. Shuning uchun u oilasini buzib, Zuar bilan yashaydi. Lekin hayotning turli intrikalari va Zuardagi asossiz rashklar natijasida ular ajralishadi. Zuarni otasi qo‘shni qiz Farangizga uylantiradi. Ana shundan keyin jurnalist bo‘lib ishlayotgan Taxmina vafot etadi. Zuar Taxminaning o‘limiga hech ishonmaydi, baribir bir kuni uni uchrataman, deb o‘ylab yuradi. Bir kuni ko‘chada Taxminani ko‘radi, u esa Zuardan qochib trolleybusga chiqadi. Uning orqasidan yugurib ketgan Zuarga Taxmina trolleybus oynasidan avvalgidek qo‘l siltaydi. Zuar trolleybusni kuzatib boraveradi, u qiz esa trolleybusdan tushib besh qavatli uyga kiradi. Uning orqasidan borgan Zuar qizning besh qavatli uyning oltinchi qavatiga chiqib ko‘zdan g‘oyib bo‘lganini ko‘radi. Liftida esa oltinchi qavatning tugmachasi ham yo‘q edi. Bu bilan yozuvchi Tahminaning ruhi osmonga chiqib ketdi demoqchi bo‘ladi. Asarda katta falsafiy fikrlar berilgan. «Dantening yubileyi» nomli qissada esa hozirgi davrning dolzarb muammolariga munosabat bildiriladi. Asarda talantli aktyor Fayzullaning savodsiz, madaniyatsiz va xudbin rejissyor Siyovush tomonidan tahqirlanishi hikoya qilinadi. Bu bilan adib dono, bilimdon kishilar bugungi kunda ham boshi kulfatdan chiqmayotganligini aytmoqchi bo‘lgan. Fayzulla oq ko‘ngil sodda, o‘z kasbini nihoyatda sevadi, qancha qiyinchilik bo‘lsa chidaydi. U hatto o‘zi ishlayotgan teatrga ham kassadan bilek sotib olib kiradi. Bir kuni xotinini ham teatrga taklif qiladi. Lekin unga teatrdan bilek bermaydi. Shunda Siyovushning yugurdaklaridan biri Majid uni axmoq qilib, bundan bir hafta oldin o‘tib ketgan Italyan shoiri Dantening 700 yillik yubileyiga berilgan taklifnomani beradi. Fayzulla xotini bilan u yerga borib aldanganini biladi. Shunda ham u Majidga qarshi gapirmaydi. Fayzullaning o‘g‘li Eldor ham talantli yoshlardan. Lekin o‘z yurtida o‘qishga kiraolmaydi, chunki o‘qishga kirish ham pul bilan bo‘ladi. Shuning uchun u Moskvaga borib o‘qishini orzu qiladi. Uning sevgan qizi Ra‘no ham bu yigit kambag‘alligi uchun boshqa badavlat yigitga turmushga chiqib ketadi.

Xullas, bu qissada Anor jamiyatdagi ildiz otib ketgan poraxo‘rlilik, tovlamachilik, oshna-og‘aynigarchilik kabi illatlarni tanqid qilgan.

Dramaturgiya sohasida esa Maqsud Ibrohimbekovning “Qasos”, Anorning “Shahar tobistoni”, Baxtiyor Vahobzodaning “Yong’indan so’ng” kabi pyesalari katta shuhrat qozondi.

O’zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari tarixi uzoq o’tmishdan boshlanadi. Keyingi yillarda bu aloqa yanada mustahkamlandi. Ozarbayjon adabiyotining ko’pgina asarlari o’zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

ABBOSO’GLI OG’A BOKIXONOV

(1794-1847)



XIX asr ozarbayjon adabiyotining rivojida Abboso’g’li og’a Bokixonov ijodi muhim ahamiyatga ega. U “Gudsi” (ziyoratgoh ma’nosini anglatadi) taxallusi ostida ijod qiladi. U ozarbayjon xonlari avlodi vakili bo’lganligi sababli ham uning ta’limiga e’tibor qaratashadi. 1826-1829-yillarda

Rossiya, Eron hamda Turkiya bilan muzokaralarda tarjimon sifatida ishtirok etadi. Natijada bu davlatlar orasida “turkmanchay” shartnomasi imzolanadi (1828). 1833-yilda Rossiya bo’ylab sayohatga chiqadi. Peterburg, Varshava, Riga va Odessada bo’ladi. U A.S.Pushkin, V.K.Kyuxelbeker, A.A.Bestujev-Marlinskiy, X.Abovyan va A.Chavchavadze hamda Tadeush Zaboloskiy bilan tanishadi. Ular orasida o’rtoqlik rishtalari o’rnatiladi. Bokixonov nomi ozarbayjon prozasining rivoji bilan belgilanadi. U “Asker haqida kitob” (1830) asarini yaratadi. Bu asar xalq og’zaki ijodi an’analari asosida yaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. U satirik asarlar muallifi hamdir. “Tabriz xalqiga murojaat”, “Dehqonlarning shohga yo’llagan arz”i shular jumlasidandir. Bokixonov ishqiy mavzudagi asarlari mumtoz adabiyot an’analari asosida yuzaga kelgan. Natijada uning asarlari ruhiy-falsafiy jihatdan yetuklikka erishadi. U she’riyatga novatorona yondashgan holda avtobiografik xarakterga ega asarlar hamda she’riy maktublar yaratadi. Uning muhim ahamiyatga ega bo’lgan asari “Guliston erami” deb nomlanadi. Bu asar 1834-44-yillarda yaratilgan bo’lib tarix-jug’rofik jihatdan muhim manbadir. Bokixonov tarjima bilan ham shug’ullanadi. Rus adibi I.A.Krilovning asarlarini ozarbayjon tiliga tarjima qiladi.

MIRZA FATALI OXUNDOV

(1812-1878)



Buyuk ozarbayjon demokrat shoiri va mutafakkiri Mirza Fatali Oxundov 1812-yili Nuh shahrida tug’ildi. U dastlab diniy maktabda o’qiydi. Keyinchalik rus-tatar bilim yurtida ta’lim olib, rus tili va rus madaniyatini yaxshi o’rgandi. Bilim yurtini bitirgandan so’ng, umrining oxirigacha Tiflis hokimi qoshida tarjimon bo’lib ishladi.

Oxundov rus va ozarbayjon xalqlari do'stligini kuylovchi she'rlar 1837-yilda es-
"Pushkin vafotiga" nomli dostonini yozdi.

Dramaturg M.F.Oxundovning nasriy asarlari orasida xalq og'zaki ijod materiallaridan keng foydalanib yozilgan "Aldangan yulduzlar" povesti mashhurdir.

Oxundov o'zining she'riy va sahna asarlari, "Aldangan yulduzlar" povesti bilan ozarbayjon realistik adabiyotini boshlab bergan va demokratik tendensiyaning rivoj-
lantirgan buyuk adibdir.

U faylasuf sifatida 1864-1865-yillarda "Kamol ud-Davla maktublari" nomli traktatini yaratib, unda ilg'or falsafiy qarashlarni bayon qildi. U ozarbayjon xalqining qoloq bo'lib qolishiga asosan savodsizlik sababchi, deb bildi. Shuning uchun Oxundov lotin grafikasi asosida ozarbayjon alfavitini ishlab chiqdi. U birinchi bo'lib ozarbayjon dramaturgiyasiga va teatriga asos soldi. U jaholatni, hukmron tuzumdagi illatlarni tanqid qilib "Mullo Ibrohim Halil kimyogar", "Xasis kishining sarguzashti", "Tabiatshunos Musye Jardon" singari komediyalarini yaratdi. Bu asarlar A. Gribovovning "Aqllilik balosi" asariga o'xshash tarzda yozilgan. Oxundov bu asarlarini 1850-1852-yillarda yozdi. Shu bilan birga Oxundov talantli shoir ham edi. U rus she'riyatidan o'rganib, uni sharq poetikasining go'zal an'analari bilan boyitgan lirik asarlar ijod qildi. Pushkin obrazi yaratilgan "Sharq poemasi" asari o'ta mahorat bilan yozilgan. U birinchi bo'lib Ozarbayjon adabiyotida "Aldangan yulduzlar" nomli povest yozdi. Yozuvchining bu asari folklor asarlari asosida yozilgan. Adibning maktub formasida yozgan "Hind shahzodasi Kamol – ud Davlanning Eron shahzodasi Jamol – ud Davlaga yozgan uch maktubi va undan olgan javobi" nomli falsafiy traktati ham katta ahamiyatga ega. Bu bilan M. Oxundov rus demokratlari yo'lidan borayotganini isbotladi. Bu asarlari bilan M.F.Oxundov Ozarbayjon adabiyotida realistik prozaning shakllanishiga ham asos soldi.

M.F.Oxundovning adabiy merosi:

- 1) "Hikoyati Mulla Ibrohin Xalil kimyogar" (1851)
- 2) "Hikoyati Mus'e Jordan Hakim nabotat va darvesh mastali Shoh" (1851)
- 3) "Sargujashti vaziri xoni Lankaron" (1852)
- 4) "Hikoyati xirsi quldurbosan" (1852)
- 5) "Xoji Qora" (1852)
- 6) "Murofiya vakillarining hikoyati" (1856)
- 7) "Aldangan yulduzlar" (1857)

Xullas, ozarbayjon klassik adabiyoti juda qadimgi va boy tarixga ega. Ozar xalqini butun olamga tanitgan buyuk allomalar ijodi turk dunyosining faxri bo'lib hisoblanadi.

Darsni mustahkamlash: Dars test asosida mustahkamlanadi. Dars boshlanish qismida berilgan "BBB" jadvali to'ldiriladi.

TESTLAR

1. *Mamatqulizoda tashkil etgan jurnalning nomi:*

- a) Hayot; b) Seda; s) Mulla Nasriddin; d) Irshod.

2. *M.F.Oxundovning 1852-yilda yaratilgan asarini aniqlang.*

- a) Hoji qoqa; b) Aldangan yulduzlar; s) Hikoyati xirsi quldurbosan; d) Hikoyati Mulla Ibrohin Xalil.

3. *Samad Vurg'unning "Farhod va Shirin" pesasi nechanchi yilda yaratilgan?*

- a) 1937-yil; b) 1938-yil; s) 1940-yil; d) 1942-yil.

4. *"Asker haqida kitob" asarining muallifi kim?*

- a) A.Bokixonov; b) M.F.Oxundov; s) S.Vurg'un; d) Mamatqulizoda.

5. *Kim mashhur shoir Voqif obrazini o'zining pesasida tasvirlashga harakat qiladi?*

- a) A.Bokixonov; b) M.F.Oxundov; s) S.Vurg'un; d) Mamatqulizoda.

MUSTAQIL ISH

1. Anorning "Besh qavatli uyning oltinchi qavati" asarini o'qish
2. H.Jovudning "Amir Temur" dramasini o'rganish. Tarixiy obrazlar to'g'risida fikr yuritish
3. M.F.Oxundov. "Aldangan yulduzlar" asarini o'rganish

Darsni yakunlash. Turk mumtoz adabiyoti mavzusiga tayyorgarlik ko'rish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ариф М. Азербайжанская литература. — Москва, 1979.
2. Вургун С. Танланган асарлар. — Тошкент, 1965.
3. Хусайн М. Апшерон. Роман. — Тошкент, 1973.
4. Иброхимов М. Шундай кун келади. Роман. — Тошкент, 1975.
5. Анор. Беш қаватли уйнинг олтинчи қавати. — Тошкент, 1975.
6. Жовид Ҳ. Амир Темур. Драма. // Жаҳон адабиёти, 1998. 1-сон

Mavzu: TURK MUMTOZ ADABIYOTI

Reja:

1. Usmonli turk xalqining og'zaki ijodi.
2. Turk adabiyotining ilk yozma yodgorliklari.
3. Turk tasavvuf adabiyoti.
4. XVII-XIX asrlar turk adabiyoti.

Tayanch so'z va iboralar: *folklor, «O'g'uznoma», «Go'ro'g'li», Jaloliddin Rumiyning masnaviylari. Turk hajviy adabiyoti. Turk tasavvuf adabiyoti. Romantizm ko'rinishlari.*

Darsning maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va turk xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o'rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish va h.k.

Mashg'ulotni muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish

Mashg'ulot vazifasi:

a) *ta'limiy* – "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanidan "Usmonli turk mumtoz adabiyoti" mavzusiga oid asosiy ma'lumotlar va materiallarni qabul qilish;

b) *tarbiyaviy* – talaba sifatida o'z-o'zini hurmat qilish, o'z faoliyatini boshqara bilish, ishonitirish, o'z xulqi atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o'zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o'z o'rtog'ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to'xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) *rivojlantiruvchi* – darslik, o'quv qo'llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiylkdan murakkablikka o'tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yondashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qitish texnologiyasi: o'qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" usuli

O'qitish shakli: frontal so'rov, umumiy sinov

O'qitish vositasi: ma'ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og'zaki nazorat, lahzalik so'rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;
- o'quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;
- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'miga izoh berish;

- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;
 - mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojidagi oʻrniga eʼtiborini qaratish
- Maʼruzaning samaradorligini oshirish boʻyicha ayrim shartlar bajariladi:**

Didaktik talablar

- d) maʼruzaning batafsil rejası tuziladi;
- e) taʼlim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashgʻulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib koʻrsatish)lar beriladi.
- f) mustaqil oʻqish uchun mavzu, maqsad, vazifa va maʼruza rejası, adabiyotlar maʼlum qilinadi;
- g) rejaning har bir qismidan soʻng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;
- h) maʼruzaning bir qismidan boshqa qismiga oʻtishda mantiqiy bogʻliqlik taʼminlandi;
- i) yozish zarur boʻlgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi maʼlumotlar slaydlar orqali koʻrsatiladi.

Oʻquv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti haqidagi tushunchani, bu davrda ijod etgan adiblarning ijodi haqidagi tushunchalarni berish bu asarlarning ozarbayjon, qardosh hamda jahon xalqlari madaniyatiga qoʻshgan hissaları xususida soʻz yuritish, bugungi oʻzbek adabiyotshunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bogʻlash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlariga toʻxtalish kabi maʼlumotlar beriladi.


2. Talabalarning diqqatini qadimgi turk adabiy yodgorliklarining oʻrganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning oʻziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga taʼsiri haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qoʻllay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida usmonli turk mumtoz adabiyotining oʻrnini koʻrsata olishi va bugungi oʻzbek adabiyotiga taʼsirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bolishlari muhimligi uqtiriladi.

Maʼruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Taʼlim texnologiyasini qoʻllash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni oʻzlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;
Xulosa va uyga vazifa	- 5 minut.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Turk mumtoz adabiyoti haqida qisman ma'lumotga egaman.	1. Turk mumtoz adabiyoti haqida to'liq ma'lumot olish.	
2. Turk mumtoz adabiyotidagi adiblar haqida qisman ma'lumotga egaman	2. Turk mumtoz adabiyoti vakillari bilan tanishish. 3. Ular yaratgan asarlar mazmuni haqida ma'lumot. 4. Turk mumtoz adabiyotida janrlar rivoji.	



Tarixi ming yillar bilan o'lchanadigan Sharq adabiyoti o'zining boy adabiy merosi bilan jahon adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Sharq badiiy olamida turk adabiyoti-ning o'ziga xos o'rni bor. Ming yillardan beri o'zining yozuv tarixiga ega Sharqda turk adabiyoti nisbatan yoshdir. Turk adabiyoti tarixi hozirgi turklarning ajdodlari bo'lmish turkiy o'g'uz qabilalarining XI-XIII asrlarda Kichik Osiyo yerlarini zabt etilishidan boshlanadi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'g'uz qabilalari VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda yashaganlar va muntazam boshqa turkiy qabilalar bilan aralashish jarayonida bo'lgan. VIII asrda O'rta Osiyoda Sirdaryo bo'ylariga ko'chib kelgan o'g'uz qabilalar islom dinini qabul qilgach XI asrda saljuqiylar sulolasi boshchiligidagi Kichik Osiyo yerlariga bostirib kiradilar. Bu paytda Kichik Osiyoda Vizantiya hukmronlik qilardi. Umuman turkiy qabilalar VIII-X asrlardayoq Kichik Osiyo yerlarida paydo bo'lib qarluqlar, qipchoqlar Vizantiya imperiyasiga qarshi doimiy urush olib borganlar. Qabilalardan bir qismi bosib olingan yerlarda joylashar va mahalliy aholiga qo'shilib ketardi ham. XI asrda saljuqiylar sulolasi boshchiligidagi o'g'uzlarning Kichik Osiyo territoriyasiga bostirib kirishi nihoyatda kuchaydi. Shunday qilib, poytaxti Konstantinopol bo'lgan Kichik Osiyodagi Vizantiya imperiyasi o'rta ikkita turkiy davlat – poytaxti Sivas shahri, Donishmandiylar davlati (1067-1180) poytaxti Konya bo'lgan Saljuqiylar davlati (1077-1307) paydo bo'ldi. Kichik Osiyoning sharqiy

janubida va markaziy qismida joylashgan bu ikki davlat XV asrning o'rtalarida Vizantiya imperiyasining tamoman yemirilishida muhim rol o'ynadi.

Turk yozma adabiyoti manbai xalq og'zaki ijodidir, uning ildizi o'g'uzlar Kichik Osiyoga kelgunlaricha ko'chmanchi bo'lib yashagan yerlariga borib taqaladi. Turk adabiyoti boshqa turkiy xalqlar madaniyati bilan o'zaro chambarchas aloqada paydo bo'ldi va shakllandi. Turkiy qabilalar azaldan bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lganlar va umumturkiy bo'lgan madaniy yodgorliklarni – qadimgi turk yozma yodgorliklarini yaratganlar. Qadimgi turk yozma yodgorliklari – O'rxun-Enasoy (VI-VIII asrlar) yodnomalari bunga misoldir. Turkiy qabilalar o'rtasida o'zaro adabiy aloqalar bo'lgan. Ayrim obrazlar, syujetlar deyarli barcha turkiy xalqlar og'zaki ijodida uchraydi. Keyinchalik har bir xalq adabiyoti ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'ziga xos rivojlanish yo'lidan bordi. Mana shu o'ziga xoslikni har bir adabiyotning taraqqiyot tendensiyalarini chuqur o'rganish adabiyotshunoslikning vazifalaridandir. Adabiy merosga bo'lgan munosabatga qarab turk adabiyotshunoslarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinci guruh olimlari turk adabiyotining boy adabiy merosga egaligini ta'kidlab, hozirgi zamon turk adabiyoti o'tmish adabiy an'analari suyangani holda rivojlanayotganligini aytalar, ikkinchi guruh vakillari o'tmish turk adabiyoti taqlid adabiyotidir, asosan fors va arab adabiyotiga taqliddan boshqa narsa emas, bu adabiyot davr haqida to'liq ma'lumot berolmaydi deyishadi va hozirgi adabiyotdagi qusurlarni ham adabiy merosning zaif tomonlarini o'zlashtirishdan, deb biladilar.

Jahon adabiyoti tarixida adabiy merosga noto'g'ri munosabatda bo'lish juz'iy hol emas. Bir vaqtlar eronliklar, arablar, hindlar ham o'z adabiy merosiga shunday munosabatda bo'lganlar.

Hozirgi vaqtda adabiy meros turk adabiyotshunoslari va boshqa turkologlar tomonidan har tomonlama jiddiy o'rganilmoqda.

Turk adabiyotshunoslari adabiyot tarixini uch yirik davrga bo'ladilar:

1. Turklarning islom dinini qabul qilgunigacha bo'lgan davr. X asrgacha bo'lgan bu davr adabiy merosi barcha turkiy xalqlarga tegishli deb qarash kerak.

2. Islom dini qabul qilingandan so'nggi davr.

3. Yangi davr, ya'ni g'arb adabiyoti madaniyati ta'siri sezila boshlagandan keyingi davr.

Bular o'z navbatida ijtimoiy muhitdan kelib chiqib yana bir qancha nom bilan kichikroq davrlarga ajratiladi.

Islomiyatdan avvalgi adabiyotni ikkiga ajratish mumkin:

1. Og'zaki adabiyot.

2. Yozma adabiyot.

Islom dini qabul qilingandan so'nggi turk adabiyoti uch bosqichga bo'lib o'rganiladi.

1. O'tish davri adabiyoti.
2. Xalq adabiyoti.
3. Mumtoz turk adabiyoti.

Yangi, g'arb adabiyoti va san'ati ta'siri sezila boshlagan uchinchi davrni yaratilgan asarlar ruhidan, umuman, zamon talabidan kelib chiqib oltiga bo'lish mumkin:

4. *Tanzimot davri turk adabiyoti*. 2. "*Sarvati - funun*" adabiyoti. 3. "*Fejri - At*" adabiyoti. 4. *Milliy adabiyot*. 5. *Milliy mujodala davri adabiyoti*. 6. *Jumhuriyat davri turk adabiyoti*.

Adabiyotni davrlashtirishni nisbiy tushunish kerak, chunki ikki davr o'rtasiga "xitoy devori" qo'yib bo'lmaydi, albatta.

Turk adabiyotshunoslari turk xalq adabiyotini mazmun mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha tasniflaydilar.

1. Anonim turk xalq adabiyoti. 2. Diniy-tasavvufiy turk adabiyoti. 3. Oshiq tarzi turk adabiyoti

Anonim turk xalq adabiyotining nazmiy shakllari: 1. Turku. 2. Mani. 3. Ayi (yo'qlov). 4. Tekerleme. 5. Bilmeje (topishmoq). 6. Ninni (alla).

Nasriy shakllar: Masal (ertak). 2. Doston. 3. Afsona. 4. Fikra (latifa). 5. Xalq hikoyasi. 6. Otaso'zi (maqollar)..7. An'anaviy xalq tomosha o'yinlari.

Diniy-tasavvufiy turk adabiyotining nazmiy shakllari: 1. Ilohiy. 2. Nafas. 3. Nutq. 4. Shatxiye. 5. Davriye. 6. Munjoat. 7. Tavhid. 8. Naat. 9. Mavlud.

Nasriy shakllari: 1. Futuvvatnoma; 2. G'azovotnoma; 3. Manojibnoma; 4. Battolnoma

Oshiq tarzi turk adabiyotining janrlari: 1. Koshma. 2. Varshagi. 3. Samoiy.

4. Doston. 5. Go'zallama. 6. Kochaklama. 7. Tashlama.

Turk adabiyotining rivojlanishida fors, arab adabiyotlarining ta'siri katta bo'lgan. Shoirilar fors hamda turk tillarida ijod qilganlar. Turkiyaga fors saroy adabiyoti bilan birga xalq og'zaki ijodi ham kirib kelgan. Tazkira tuzish ham turklarga erkin adabiyotidan o'tgan.

Turk adabiyotini o'rganish, o'rta asrlardan boshlanadi deyish mumkin. Tanqid qarashlar ham bo'lgan. Shuningdek, antologiyalar turk adabiyoti haqida Yevropada ilmiy adabiyotlar paydo bo'lishiga asos bo'ldi. XVIII asrning 70-yillarida Venetsiyada e'lon qilingan turk adabiyoti tarixiga oid kitob va "Turkiyadagi har xil fanlar ahvolarini deb nomlangan Abbat Toderining ilmiy ishi, XIX asr boshlarida e'lon qilingan avstraliyalik sharqshunos Hammer Prugshtalning to'rt tomlik "История османской изящной словесности" ("Usmonli so'z san'ati tarixi") kitoblari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan turk adabiyoti tarixi izchil o'rganilmoqda.

TURKU

Turkular maxsus bir ohang, musiqa jo'rligida aytilgan xalq qo'shiqlaridir. Qadimda butun xalq qo'shiqlarini ham turku deb atashgan. Turkularning asosiy mavzusi atrof-muhit, tabiat, yoki biror voqea ta'sirida paydo bo'lgan tuyg'ularni tilga ko'chirishdir. Shu jihatdan mavzu rang-barang. Asosiy fikr bir misrada bo'lib, boshqa misralar shu fikrni to'ldiradi. Anonim xalq adabiyotining nazmiy shakli bo'lgan turku ko'pincha 11 hijoli bo'lib, a,a,a,x,x; v,v,v,x,x; s,s,s,x,x tarzida qo'fiyalanadi. Anadolu turkulari xalq orasida mashhur. Turkular turli mavzuda – sevgi, tabiat, go'zallik, ayriliq, o'lim va hokazo mavzularda bo'lishi mumkin. Turkularda har banddan so'ng bog'lovchi misralar bo'ladi. Bu misralar kavushtak deb ataladi (sharqiylardagi naqorat kabi). Turkular millatning tarixi, urf-odatlar, an'analarning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi milliy nazm shaklidir. Turkiyaning viloyatlarida turkular naqorat misralariga ko'ra bo'zrak, koshma, xo'yrat, chuqurova nomlari bilan ham ataladi. Turkularning muayyan bir qoidasi yo'q. Ba'zi misralar sarbast bo'lib, naqorat band o'rtasida kelishi ham mumkin. Turkuga misol: Iki turnam gelir, oqli qorali,/ Birin shaxin vurmush, biri yarali./O yavruya so'run, asli nereli?/ Qator, qator o'lmush, gelir turnalar,/ Ayrim, ayrim ne xo'sh gelir turnalar.

MANI

Mani to'rt misralik mustaqil she'rdir. Mani arabcha ma'no so'zidan bo'lib, anonim xalq adabiyoti nazm namunasi. Ozariylarda bayoti, qirg'izlarda o'lan, o'zbeklarda xalq qo'shiqlari kabi. Manilar to'rt misralik, 7 hijo o'lchovida aytilib, ko'pincha a,a,x,a shaklida qo'fiyalanadi. Yozma adabiyotda ruboiy, tuyuq (XIV-XV) janrlari mani asosida paydo bo'lgan. Mustaqil she'r bo'lgan manilarda asosiy mazmun so'nggi ikki misrada bo'ladi. Manilar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Sof hazil uchun tuzilgan, kulgili manilar ham bor. Ko'proq ayollar tilidan aytiladigan manilar niyat, fol, sevgi, maktub, to'y mazmunida yoki falsafiy va boshqa mavzularda bo'lishi mumkin. Manilar shaklan to'rt xil bo'ladi:



1) duz mani (oddiy mani); 2) jinasli (so'z o'yinli) mani; 3) kesik mani; (oyoqli, zinapoya shaklidagi mani); 4) yedekli mani; (qo'shimchali mani)

1. Duz mani yuqoridagi fikrlarni o'zida jamlagan. Misol: Tog'lar tuman bo'ldi, kel;/ Ko'nglim gumon bo'ldi, kel,/ Oylarga va'da berdim,/ Yilim tamom bo'ldi, kel.

2. Jinasli (so'z o'yinli) manilarda qofiya shaklan bir xil, mazmunan har so'zlar(omonimlar)dan tashkil topadi. Misol: O banim och ko'zlarim/ Yora muh ko'zlarim/ Kechdi go'zal karvoni/ O'tirdim, boj ko'zlarim

3. Kesik (oyoqli) manining ilk misrasi 7 hijodan oz, qofiyalari jinosli, misra soni 4 va undan ortiq bo'lgan manilar. Misol: Bag' bana,/ Baxcha sana, bag' ban- Deyme zinjir kyar etmez/ Zulfig teli bag' bana

4. Yedekli (qo'shimchali) manilarda mazmunni kuchaytirish uchun band so'ngi yana ikki misra qo'shiladi. Misol: Dardim var bellar kabi/ So'yolemem yellar ka- Qalbimi xuzuni var/ Yiqilmish ellar kabi/ Ko'zlarimdan yosh oqar/ Bo'shagan sel- kabi

Shoirlar ham mani shaklida she'rlar yozganlar. Orxan Seyfi Beyning quyida misralari bunga dalildir: Ne Hindda, ne Chindaymish/ Ajab nerdaymish, neymis- Izlaganim mahalda/ Ko'nglimni ichindaymish.

K O ' S H M A

Xalq adabiyoti nazm shakllaridan biri. Asosan 11 hijoli, bandlari to'rt misrali, er oz uch, eng ko'p 6, gohida undan ortiq to'rtlik bo'ladi. Ko'shmalar mazmuniga qarab turlicha nomlanishi mumkin. Tabiat va inson go'zalligidan bahs etganlari go'zallam yigitlik mardlik, urush mavzusi bo'lsa ko'chaklama, o'lim haqidagi ayit, bir kimsa yo guruhning yomon tomonlarini ko'rsatgani tashlama. Ko'p uchraydigan qofiya shakllari

_____ a	_____ a	_____ x
_____ a	_____ b	_____ b
_____ b	_____ a	_____ x
_____ a	_____ b	_____ b

Ko'shmalar ohang uslubiga ko'ra, Ajam, Anqara, Kerem, Sivrihisar ko'shma nomlari bilan atalishi mumkin. Tuzilishiga ko'ra ko'shmalar duz, yedekli, musamm ayakli zanjirband, ayakli zanjirleme kabi turlarga bo'linadi.

Musammal ko'shmaning ilk bandidagi birinchi va ikkinchi baytlarida besh hij ziyoda bog'lovchi so'z bo'ladi. Misol: Ey banim jononim, jon ichra jonim/ Sho navjuvonim o'lma bevafo/ Rahm ayla bana/ Men sana qurban kel kes gardanim/ To yerlarga qonim faqat bo'l oshino/ Bo'lma bevafo

Ko'shma so'zi "qo'shoq" fe'lidan Prof. Fuad Ko'pruli qo'shmani "so'zga k bog'lamoq va moslamoq" deydi. Ko'shmaga misol: Go'zal ko'zlarini sevdigim dilb- Kel bizim ellarni kez, karam ayla/ Go'la qo'llaring var, kezar qalamla/ Ol meni dafta yoz, karam ayla/ Yiroqtir yo'llarim, adashdim keldim/ Totlidir tillaring, aylandi keldim/ Vafolim bo'ynuna, endi men o'ldim/ Mozor ko'ksinga qaz, karam ayla

ILOHIY

Diniy mavzulardagi oshiq adabiyoti she'riy shaklidir. Tekkelarda olloh ishqida kuylagan manzumalardir. Ilohiy – Allohga oid demak. Ilohiylarda, asosan, tangri sevgisi va diniy mavzular aks ettirilgan. Xalq adabiyotidagi ilohiy, devon adabiyotidagi “tavhid” va “munojotlarga” o'xshash. Ilohiy diniy-tasavvufiy mavzuda bo'lgani bilan, biror tariqatning o'ziga xosligi, afzalligini targ'ib etmaydi.

Tariqatlarning o'ziga xosligini ifoda etgan ilohiylar bektoshiylikda – nafas, yassaviylikda – hikmat, mavlaviylarda ayin, gulshehrilar – tapuu, xalvatilarda-durak, boshqa tariqatdagilarda jumhur deyilgan.

Ilohiylar 7,8,11,14,16 hijoli vaznlarda yozilgan. 7-8 hijoliklari to'rtlik, 11,14,16 hijoliklari bayt shaklida yozilgan. Bayt shaklida yozilganlari g'azal kabi qofiyalangan. Aruz vaznida yozilgan ilohiylar ham bor. Ilohiylar mavlud va bosh-qa diniy bayram kunlari ko'pchilik bo'lib tekkelarda (bir tariqat yo'lidagi darveshlarning yig'iladigan joyi) ham aytiladi.

Ilohiyning eng yaxshi namunalarini Yunus Emre ijodida ko'rish mumkin. Misol: Ishqing oldi mandan mani,/ Manga san keraksan, san!/ Jismim yonur kecha-kunduz,/ Manga san keraksan, san!¹ (X. Davron tarjiması)

SAMOIY

O'zagi arab kalimasidan bo'lgan bu so'z “eshitmoq”, “o'rganmoq” ma'nolarini anglatadi. Xalq adabiyotida, ayrim shoirlar ijodida ko'p uchraydigan bu nazm shakli, aruzning “mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun” vaznida, hijoda esa 4+4=8 li vaznda bo'lib, o'ziga xos ohang bilan kuylanadi. Tabiat, go'zallik, sevgi va ayriliq mavzularida ko'proq yaratilgan samoiylar qofiya va misra tuzilishiga ko'ra ko'shmaga o'xshab ketadi. (Ayrimlar samoiyni ko'shmaning bir turi ham deyishadi). 3-5 bandli, gohida ortiqroq ham bo'lgan samoiy o'ziga xos havoli, hafif musiqiy bo'lgan. XVIII asrdan xalq shoirlari o'rtasida keng tarqalib, samoiy o'qishlar avj olgan. *Samoiyga misol:* Injalikdan bir qor yog'ar,/ Tuzar Alif¹, Alif deya./ Dalli ko'ngil telba o'lmish,/ Kezar Alif, Alif deya.

SHARQIY

Sharqiylar turk she'riyatida asosan XVIII asrdan yaratila boshlagan nazm shakllaridan. Sharqiylarga kuy bastalangan. Ko'pi bilan ikkidan besh to'rtlikkacha bo'lgan. Turk adabiyotiga sharqiyni olib kirgan Nodim ijodida 3 bandlik sharqiylar ko'p. Ishq va go'zallik mavzulari qalamga olingan sharqiylar xalq she'riyatidagi turku va ko'shma hamda devon adabiyotidagi murakkab shakllarning o'ziga xosliklarini jamlagan deyish mumkin. Sharqiylar ko'proq aruz vaznining foilotun, foilotun, foilotun, foilun o'lchovida, shuningdek hijo vaznida ham yozilgan. A,a,a,a; v,v,v,a; s,s,s,a

¹ Хуршид Даврон. Қажмас. -Тошкент, 1987. -Б.7-8.

¹ Киз исми.

shaklida, gohida a,v,a,v shaklida qoʻfiyalanib, takror kelgan misraga naqorat deyilgan. Lola davri shoiri Nodim, Enderunlu Vosiflar turk adabiyotida goʻzal sharqiylar yozgan shoir sifatida mashhurlar. Nodim sharqiylaridan: Yana bazmi chamanga lola furuz keldi./ Mujdalar gulshanga kim vaqti charogʻon keldi/ Bulbul ashuftalanip bazmi gʻazalxon keldi/ Mujdalar gulshanga kim vaqti charogʻon keldi./ Sayr olup raqsi yana dilbari mumtozlarin/ Yana efloke chikar nolalari sozlarin/ Jona otash beradur shulas ovozlarin/ Mujdalar gulshanga kim vaqti chorogʻon keldi.¹

MAQOLLAR HAQIDA

Turk adabiyotida maqollar xalq donoligini ifoda etuvchi vosita sifatida muhimdir. Xudo senga tuynukdan hech narsa tashlamaydi. Oʻzing ishlab top.// Boyqushning koʻziga bolasi tovsudan goʻzal koʻrinadi.// Yaxshi kunda - hamma yaxshi, yomon kunda - birodaringni eslab qolasan.// Birovning qozonida osh qilolmaysan.// Boʻri choʻponing yaramaydi.// Boʻri menga tegmayaptimi - ming yil yashasin!// Oʻgʻri qutulib qoldi guvoh qamoqda qoldi.// Hamma falokat - tildan.// Sichqonga mushuk - sher.// Yukn tuya tashiydi, koʻppak esa ozadi.// Mushuklar yoʻq boʻlsa, sichqonlar bayram qiladi.// Semiz ozisa, ozgʻinning ruhi uchadi.// Asosiysi ishni boshla, u oʻz-oʻzidar nihoya topadi.// Och hammani och deb oʻylaydi.// Dushmaning zaif boʻlsa ham xushyor tur.// Beruvchi qoʻl oluvchi qoʻldan afzal.// Bolalar uchun ota hammadar kuchli.// Qoʻngʻizga uning bolasi - eng goʻzal mavjudot.// Chumoliga shudring - suv toshqini.

ERTAKLAR HAQIDA

Ertaklar turk xalq ogʻzaki ijodida muhim oʻrin egallagan, folklorning boy janrlaridandir. Turk tilida ertak, masal deyilib, “Qomusi Usmoniya”da yozilishicha odob va nasihatni anglatgan arabcha soʻzdir.

Turkiy tillar bilimdoni Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” kitobida ertak soʻzi etuk shaklida berilib, biror voqeani hikoya qilishni bildiradi. XIX asrning 80-yillaridan turk ertaklari yozib olinib boshlangan. Tanzimot davridagi (1839-1896) adabiy muhit bunga omil boʻlgan. Bu ishni boshlaganlardan biri mojaristonlik sharqshunos I. Kunoshdir. XX asr boshlarida G. Yakob, F. Gize, D. Nemet, V.A. Gordlevskiy kabi yevropalik sharqshunoslar turk ertaklarini yozib oldilar va shu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Turk ertaklari xususida samarali ish olib borgan folklorshunoslar ichida Partav Noili Baratovni alohida taʼkidlash kerak. P.P. Baratov XX asrning 20-60-yillarida 3800 dan ortiq ertaklarni yozib oldi va Volfram Eberxard

¹ Адабиет. Дарс китоби. – Анкара, 1991. – Б.103.

bilan hamkorlikda turk ertaklari katalogini tuzdi. P.P. Baratov 1953-yil "Zamon, zamon ichida" ertaklar to'plamini Istambulda, 1969 yil "Oz ketdik, ko'p ketdik" kitobini Anqarada nashr ettirdi. 1955-yil fransuz, 1968-yil olmon kitobxonlarini turk ertaklari to'plamlari bilan tanishtirdi.

Mazmunan rang-barang turk ertaklarini 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrgarlik ertaklari.
3. Maishiy ertaklar.
4. Kalo'g'lon turkum ertaklari.

Hayvonlar haqidagi turk ertaklari xronologik jihatdan qadimiyroq va o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Ayiqlar bilan tulki", "Tulki bilan ilon", "Kampir bilan tulki" va boshqa ko'pgina hayvonlar to'g'risidagi ertaklarda har bir hayvon ma'lum bir ramziylikka ega bo'lib, o'ziga xos mazmun tashiydi. Ko'pgina jahon xalqlari ertaklarida tulki ayyorlik ramzi bo'lib, deyarli salbiy obraz sifatida talqin qilinadi. "Tulki bilan ilon" ertagida buning o'zgacha variantini ko'ramiz. Tulki ilon bilan do'stlashib, bir kuni yo'lga chiqibdi. Yo'lda ular bir soyga duch kelishib, tulki suvdan o'tib ketayotganida, soydan o'tolmaydigan ilon tulkidan uni ham olib o'tib qo'yishni iltimos qilibdi. Tulki do'stlik qilib, ilonga bo'yniga o'rallishni buyuradi. Suvning o'rtasiga borganda ilon tulkini bo'g'a boshlabdi. Tulkining bo'ynimni bo'shat degan iltimosiga ham quloq solmabdi. Shunda tulki ilonga: «Biroz bo'yningni uzat, tomog'ing tagidagi qirmizi xolingdan bir o'pay» – deb iltimos qilibdi va ilonni tomog'idan tishlab o'ldiribdi. Do'stlikka xiyonat, qalloblik qilmaganida ilonning tirik qolish mumkinligini aytib, yo'lida davom etibdi. Bu ertakda tulki ayyorlik qilib boshqalarni aldovchi emas, aqlli, farosati bilan o'limdan qutulib qolgan, jabrlanuvchi sifatida tasvirlangan.

Sehrgarlik ertaklarida ham hayvonlar qatnashadi, ammo bu ertaklarda hayvonlar ko'pincha bosh qahramonga yordamchi yoki bosh qahramonning o'zi ma'lum vaqt sehrjodu bilan biror hayvon shakliga kirishi mumkin. "Xoldor Bahri", "Qora mushuk" ertaklaridagi kabi. "Benli (Xoldor) Bahri" ertagida shahzoda qora mushuk ko'rinishida paydo bo'ladi va ertak so'ngida ertakning asosiy qahramonlaridan bo'lgan go'zal qizga uylanadi. Turk sehrgarlik ertaklarida ham ko'pincha ijobiy qahramonlar sifatida shohning kenja o'g'li yoki qizi, kambag'al chol, kampirning yolg'iz o'g'li, aql-farosati bilan shohlik darajasiga yetgan cho'pon, bog'bon, o'tinchi farzandlari tasvirlanadi. Turkiyada ertaklar maddohlar tomonidan, ko'pincha esa ayol ertakchilar tomonidan aytilgan. Shuning uchun turk ertaklarida ayollar siymosiga, ularning tasviriga alohida e'tibor beriladi. "Dev boba", "Quyosh qizi", "Oltin arava", "Pari qiz" ertaklarida asosiy voqealar markazida ayollar turadi. Sehrgarlik ertaklarida voqealar umumiy qoidalar asosida rivojlanadi. Voqea sehrli hodisalar bilan boshlanadi, bosh qahramonlar o'z jasurliklari, aql-u farosati, uddaburonligi bilan gohida parilar, qushlar, hayvonlar, sehrgarlar yordamida turli to'siqlarni yengib o'tib murod-maqsdalariga yetadilar.

Ertaklar kirish, asosiy qism va ertak (xotima) so'ngidan iborat. Boshlama turk tilida tekerlama deyilib, bunda ertakchi tinglovchini o'zi aytmoqchi bo'layotgan voqealar olamiga olib kirishga harakat qiladi. Tekerlama so'z o'yinidan iborat, bunda bir-biriga mazmunan aloqador bo'lmagan so'zlar ma'lum tarzda qofiyalanib keladi va go'zal bir shakl yasaydi.

Masalan: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Zamon zamon ichida, igna somon ichida... Tuya dallol ekan, chivin sartarosh ekan, xo'roz imom ekan, onam qoshiqda, otam beshikda ekan. Men otamning beshigini ting'ir-ming'ir tebratar ekanman, otam tushda beshikdan, chiqib ketdi eshikdan, Onam qisqichni oldi, otam kurakni oldi, menga eshik orqasidagi burchak qoldi... Onam yaxshi. Otam yaxshi, qo'llaridan qutulsang undan yaxshi».

Yoki boshqa bir ertak shunday tekerleme bilan boshlanadi. «Bir bormish, bir yo'kmish... Avval zamon ichida, igna somon ichida... Tuyalar dallol emish esk hammom ichida... hammomchining tosi yo'q, go'lahchining boltasi yo'q, qo'ltig'ida bo'g'chasi yo'q... handadir handa bir qo'tos va yetmish ikki tentak banda... Yedik ichdik, tishimiz et ko'rmedi, barakat bersin otboqarga, bizga bir ot berdi to'riqdir deya ot bizni bir tepib berdi nari tur deya...

Ertakdir buning oti, so'zlasang chiqar toti, kimki tinglamasa, kelsin cho'loq tarbiyachi..."

Turk ertaklarining manbalari haqida turlicha nazariyalar bo'lib, bu qarashlarni asosan uch guruhga jamlab, uch ilmiy maktab deb qarash mumkin.

1. Mifologik maktab. Bu nazariyaga ko'ra, ertaklar qadimgi afsonalarning parchalar holda qolgan va bizgacha yetib kelgan bo'laklaridir.

2. Antropologik maktab. Bu maktab vakillari ayni bir ertaklarni rivojlanmagan xalqlar orasida ham borligini aytadi. Biror mifning ertak holiga kelish chegarasini keskin ko'rsatmaydi.

3. Adabiy maktab nazariyasiga ko'ra xalq ertaklarining kelib chiqishini Hindistondan izlaydi. Xalq ertaklarini bugungi kunda unutilgan bir qism qadimiy ohanglarning so'nggi izlari va alomatlari sifatida ko'radi.¹

Ertaklar qaysi vaqtda yaratilganiga qarab, ozmi-ko'pmi zamon ruhini o'zida aks ettirgan. Muhimi bosh mezon adolat bo'lgan. Yaxshilik, ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g'alaba qozongan. Ertaklar sinfiylilikdan holi. Bir kambag'al nihoyatda boy bo'lib ketishi, yoki aksincha podsho bir bechora bo'lib qolishi mumkin. Qahramonlar o'z idroki va majoziy obrazlar yordamida, albatta, maqsadlariga yetadilar. Turk ertaklaridagi asosiy tiplar jahon xalqlarida ko'p uchraydigan qahramonlardir. Sehrli ertaklarda asosan dev, jodugar kampir, zanjil qul, ya'ni qora arab, parilar, ajdarho, ayol dev, darvish, podsholar, Kalo'g'lon, tiplari bo'lsa, ashyolardan: uchar gilam, ur

¹ Каранг: Турк эртаклари. – Анкара, 1992. –Б. 3-4.

to'qmoq, sehrli ko'za, sehrli qalpoqcha kabilardir. Shuningdek uch, yetti, qirq sonlari bilan bog'liq an'analar ham bor.

Turk xalq ertaklari tugallanmasi ham o'ziga xos. Ertak mazmunidan kelib chiqib yakun to'y-tomoshga tasviri, otalar so'zi yoki tinglovchilar ruhiyatini ko'taruvchi adabiy parchalar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ertakchilar o'z so'zlarini original shaklda tugatmoq, aytganlarining hayotga yaqinligini ko'rsatmoq uchun chiroyli yakun yasashga harakat qiladilar. Masalan: "To'yga meni ham chaqirdilar. Bordim. Menga bir to'ruva shirinliklar berdilar. Eshagimga yukladim. Eshagimning oyoqlari mumdan, ko'zlari shishadan edi. Qancha shoshilsam ham yetolmadim, quyosh chiqdi, mum eridi, shishalar sindi. Shirinliklar tosh qotib qoldi".

Yoki "Qirq kun, qirq kecha to'y bo'ldi. Ular yetmish mureddga, biz chiqamiz ayyonga... Ko'kdan uch olma tushdi, biri sizga, biri ertak aytganga, biri menga". Ko'rinadiki, ertakchi nihoyatda so'zga chechan, so'z san'atkori bo'lishi kerak. Ziyoy Ko'kalp quyidagi so'zlarni yozganda haqli edi: "Ertakchi o'z sohasida bir san'atkordir. Aytgan har so'zi o'z o'rnida qo'llanilgan. Bu kabi ertakchilarning bir kalimasini ham o'zgartirib bo'lmaydi".¹ Og'zaki nutqning go'zal namunasi bo'lgan ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati juda muhim. Yoshlarni vatanparvarlik, ezigulik ruhida voyaga yetkazib, yaxshilikning yomonlik ustidan hamisha g'alaba qilishiga ishonch tug'dirishda folklorning hech bir janri ertak o'rnini bosa olmaydi.

LATIFALAR

Yumor har bir xalqning o'ziga xos, xarakterli xususiyatlarini yorqin ko'rsatadi. Turk xalq og'zaki ijodida, latifalar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu latifalar turklar hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turk xalqi ma'naviy madaniyatining ajralmas qismidir. Turk latifalarining ilk yozma namunalarini XIII-XIV asrga oid bo'lgan adabiy yodgorliklarda ko'rish mumkin. Xo'ja Nasriddin haqidagi 43 latifani qamrab olgan ilk to'plam sanasi 1571-yil. Nasriddin Xo'ja tarixiy shaxs bo'lib, 1208-9 yili Sivrihisorga yaqin joydagi Horto qishlog'ida tug'ilgan. Otasidan so'ng biroz vaqt qishloqda imomlik qiladi va 1237-yilda mutasavvuf olim Sayyid Mahmud Hayroniyya murid bo'lish uchun Oqshaharga keladi. Umrining oxirigacha (1284) shu yerda yashab qolgan Xo'ja xalq orasida nihoyatda zukko, gapga usta, adolatpesha odam sifatida taniladi. Nuktadon, orif inson bo'lgan Nasriddin Xo'ja zamondoshlarining ko'nglidagi gaplarni topib aytganki, bora-bora u haqida latifalar to'qilib, xalq qahramoniga aylanib ketgan. 1837-yildan buyon Xo'ja Nasriddin latifalari kitob holida tez-tez bosilib turibdi. 1857-yildan e'tiboran Yevropa tillariga tarjima qilina boshlangan. 1865-yilda qirqdan ortiq latifalar o'zbek tilida kitobot qilingan. Xo'ja Nasriddin bugungi kunda ko'plab turkiy xalqlarning sevimli qahramonidir. Xo'ja Nasriddindan boshqa Bekri Mustafoy

¹ Турк эртаклари. – Анкара. 1992. 1-жилд. –14-бет.

Bektoshiy, Qoraqush, Xobenneka kabi turk xalq qahramonlari borki, bular haqidagi latifalarning o'zi alohida-alohida turkumlardan iborat. Bekri Mustaf o'z erkin fikrlarini qotib qolgan, qoloqlikka qarshi kurashuvchi shaxs sifatida tasvirlansa, darvis Bektoshiy topqirligi bilan ayrim kaltabin qozilarning, din peshvolarining ustidagi kuluvchi xalq qahramoni sifatida tasvirlanadi. Go'l, berahm, qaysar hukmdorlar haqidagi latifalar vazir Qoraqush nomi bilan bog'liq. Qoraqushning kaltafahmli uning so'zlarida, xizmatkorlariga ish buyurishida ko'rinadi. Xobenneki haqidagi latifalar ham sodda, go'l odamlar ustidan kulinadi.

Latifalarda mavzu jihatdan o'ziga xalqlar folklorida uchraydigan voqealarga qisman o'xshashlari ham bo'lishi mumkin.

Namunalar:

Bir kuni Qoraqushning lochini qafasdan chiqib ketibdi.

-Darvozani yopinglar, lochin chiqib ketmasin, - buyuribdi Qoraqush qorovullariga. Qozi bo'lgan Afandi da'vogarningmi, javobgarningmi haqligini yecha olmay boshlagotdi-da, ikkalasini ham kaltaklashni buyurdi.

Jazo bajarilgach, xo'rsinib dedi:

- Endi vijdonim toza, qaysi biri aybdor bo'lsa ham jazodan qutulolmadi.

III. Turk mumtoz adabiyotining ilk namunalari XIII asrning ikkinchi yarmidan yaratila boshladi. Keyingi asrlarda o'zining eng yaxshi namunalarini yaratgan bu adabiyot XIX asrning ikkinchi yarmigacha, ya'ni g'arb adabiyoti va madaniyati ta'siri sezila boshlagungacha bo'lgan davrda, dunyoga ko'plab talantli ijodkorlarni berdi. Turk mumtoz adabiyoti tarixini shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin.

1. Shakllanish (qurilish).

2. Yuksalish.

3. Taqlid.

Birinchi davrni o'z ichiga olgan XIII -XV asrlarda turk shoirlari Eron adabiyotiga ergashib asarlar yozdilar. Fors tilida yaratilgan mashhur badiiyat namunalarini tarjima qildilar. Anado'li uchun Eron adabiyoti o'sha vaqtda bir namuna edi. Zotan bu asrlarda fors tilida ko'plab jahon adabiyotiga o'mak bo'lgulik asarlar yaratilgani sir emas.

Turk shoirlari shakl va mazmun jihatidan ham Eron adabiyotiga ergashar, fors tilidagi asarlarni chuqur mutolaa qilib, o'zlashtirishga intilardilar.

Fors tili she'riyat tili o'laroq sanalar, turk tilida fors tilida yaratilgandek badiiy yuksak adabiyot namunasini yaratish imkonsizdek tuyilardi. Aruz vazni ham turk adabiyotiga Eron adabiyoti orqali kirib keldi. Aruz vaznida ijod qilgan shoirlar ko'plab arabcha va forscha so'zlarni qo'llardilar. Natijada ma'lum "qolip"ga solingan adabiy tilusmonlarcha yuzaga keldi. Bu davr shoirlarining tili, kelajakda yaratiladigan asarlarga nisbatan sodda va qusurlardan holi emasdi.

Istambulning fath etilishidan (1453) XVIII asrning oxirlarigacha bo'lgan "Yuksalish" davrida yashab ijod qilgan turk shoirlari turk mumtoz adabiyotining ajoyib

namunalarini yaratib, o'zlarini eronlik shoirlardan ustun qo'yadilar. Bu davrda tom ma'nodagi turk mumtoz adabiyoti yuzaga keldi. XV XVI asrlarda usmonlilar imperiyasi kuchaygan, siyosiy jihatdan Erondan bir qadar ustunlikka erishgandi ham. Istanbul yirik siyosiy markaz va madaniyat, adabiyot gullagan shaharga aylandi. Eron adabiyotining oltin davri XV asr bo'lsa, turk adabiyotining oltin davri XVI asr bo'ldi. Keyinchalik Usmonlilar imperiyasining zaiflashuvi, o'zaro urushlarning ta'siri adabiy muhitga ta'sir qilmay qolmadi. XIX asrga kelib adabiyot ma'lum darajada o'z tarovatini yo'qotdi.

Uchinchi davr, ya'ni "Taqlid" davri XIX asr boshlaridan Tanzimot adabiyoti deb atalgan XIX asrning 60-yillarigachadir. Tanzimot adabiyoti davri turk adabiyotida Yevropa madaniyatining ta'siri sezila boshlagan davrdir. "Taqlid" davrida adabiy asarlar yaratilib tursa ham, bu asosan ustozlar traditsiyalarini davom ettirish bo'lib yirik shoirlar yetishib chiqmadi.

XIII asrda Anado'lida saljuqiylar hukmronlik qilib, sulton Oloviddin davri bu asrdagi eng porloq davrdir. Ammo 1232-yilda boshlangan mo'g'ul istilosi saljuqiylar hukmdorligiga barham berdi. Istilo davridagi zulm, qaroqchilik, har xil mazhablar o'rtasidagi kurash xalqni holdan toydirdi. 1308-yilga kelib saljuqiylar davlati turli beklklarga parchalanib ketdi.

XIII yuz yilda urushlar ko'p bo'lsa-da, Anado'lida turk adabiyoti shakllana boshladi. Bu davrdagi istilolarga qaramasdan Konya, Sivas, Arzurum, Karaman kabi shaharlarda karvonsaroylar, jome, madrasa va boshqa me'morlik inshootlari bunyod etildi. Yirik shaharlarda ilm, san'at, adabiyot vakillari to'plandilar. Musulmon davlatlaridan ziyolilarning Anado'lga kelishi ham bu yerdagi adabiy va madaniy muhitga ta'sir qilmay qolmadi. Jamoliddin Rumi kabi davrining yirik allomalari ham Anado'lga kelib qoldi. Ammo ziyolilar ko'proq fors tilida so'zlashar va asarlar ham fors tilida yaratilardi. Bu davrda yaratilgan yirik asarlardan J. Rumiyning "Masnaviy"si ham fors tilidadir. Ayni paytda turk xalq og'zaki ijodi ta'sirida va yosh ziyolilar, turli tariqat vakillarining harakati tufayli turkiy she'rlar ham paydo bo'la boshladi. XIII asrda yashagan Xo'ja Dehqoniy "Saljuqiylar shohnomasini" yozgani ma'lum, biroq bu asar hanuzgacha topilmagan. XIII yuz yilning oxirlarida davlatni birlashtirishga harakat qilgan saljuqiylardan Karaman o'g'illaridan Mehmed Bey 1277-yilda turk tilini qo'llash haqida farmon chiqaradi. "Bundan buyon devonda, mahkamalarda, majlislarda va kishilar to'planadigan joylarda turkchadan boshqa til qo'llanilmasin" mazmunidagi buyruq o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

XIV asr boshlarida Sogut yerlaridagi kichik bir beylikka hukmdorlik qilgan Usmonlilar sekin asta kuchayib, kurashlarda g'alaba qozonib davlatni birlashtira boshladi. Anado'lida siyosiy birlik vujudga keldi. Bursa poytaxt shahar sifatida dovrug qozondi. Shoirlar, me'morlar faylasuflar bu shaharga yig'ildilar. Davlat mustahkamlanib, yuksalish seziladi. XIV asr turk mumtoz adabiyotining, devon

she'riyatining boshlanish asridir. Bu davrda Xo'ja Ma'sud, Ahmadiy, Qozi Burhoniddin kabi ijodkorlar yetishib chiqdi.

XV asrda usmonlilar imperiyasi yanada kengaya bordi. 1453-yil, 29-mayda Istambulning fath etilishi Turkiya siyosiy hayotida juda katta voqea bo'ldi.

Istambulning olinishi bilan turklar Kichik Osiyoda hukmronlikni to'liq qo'lga kiritdilar. Ayni paytda Vizantiya imperiyasi tarixga ketdi. Istambulning boshkent bo'lishi tufayli shaharga butun Usmonlilar qo'l ostida bo'lgan yerlardan shoirlar, fozillar, me'morlar oqib kela boshladi. Istanbul ham siyosiy, ham madaniy markazga aylandi. Ko'plab me'moriy yodgorliklar bunyod etildi. XV asr oxirlarida turk devon adabiyoti "shakllanish" davrini o'tib bo'lib "yuksalish" davriga qadam qo'ygandi. O'rta asrlar adabiyotining asosiy adabiy turi bo'lgan she'riyatda an'anaviy yo'l davom ettirilishi bilan birga, yangi janrlarda asarlar ham yaratila boshlandi. Ayniqsa, masnaviy shaklida ko'plab asarlar yaratildi. Xalq og'zaki ijodi yo'lida she'r aytgan "oshiq"lar she'riyatida ham, tasavvuf ruhida asarlar yozgan shoirlar ijodida ham ko'tarilish ko'zga tashlandi. XV asrda nasr va tarixiy asarlar yozish, tazkiralarni tuzish ko'paydi. Ammo nasriy asarlar tili juda jimjimador, majozli edi. Sinon Posho, Ashraf o'g'li Rumi, Orif Ali, Oshiq Poshozoda asarlari bunga misol bo'la oladi. "Sulaymon shohning o'limi", "Usmon G'ozining vasiyati", "Usmon G'ozining ro'yosi" (Oshiq Poshozoda) O'gitlar", "Ishq" (Sinon Posho), "O'g'uzxon va Dada Qo'rqu", "Usmon beyning o'g'uzlarga bey saylanishi" (Yoziji o'g'li Ali) kabi asarlar XV asr turk nasrining eng yaxshi namunalari. Turk adabiyotidagi ilk satirik asar ham XV asrda yaratildi. Shayxiy, Ahmadi Doiy, Habibiy, Zaynab Xotun, Mehri Xotun, Masihiy, Jamoliy, Ahmad Posho, Ivaz Poshozoda Atoiy, Naqqosh Safiy, Najotiy, Visoliy kabi turk mumtoz adabiyotining go'zal namunalari yaratgan shoirlar ham XV asrda yashab ijod qildilar.

XVI asr turk adabiyotiga umumiy nazar

XVI asr turk mumtoz adabiyotining eng gullagan, yuqori cho'qqisiga chiqqan "oltin davri"dir. Bu "oltin davr"da usmonlilar imperiyasi siyosiy, harbiy jihatdan qudratli, uch qit'aga yoyilgan bir davlat edi. Usmonlilarning ulug' hukmdorlari ham shu davrda yetishib chiqdi. Imperiya sarhadlari shimolda Rus dashtlariga, Janubda Hind okeaniga, G'arbda Yunoniston, Sharqda Ajam (arab) ichkarisigacha yetib borgan. Yevropa davlatlari ham turk sultoni bilan hisoblashardi. Davlat siyosiy nufuzining mustahkamligi, albatta ilm-fan, san'at-madaniyat, adabiyot rivojiga zamin yaratdi. Savdo-sotiq ishlari rivojlangan, ko'plab xorijiy ellardan Istanbulga karvonlar oqib kelar, bu o'z navbatida xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirardi. Diniy, irqiy nizolarga barham berilib, shahar-u qishloqlarda osudalik hukm surdi. Istanbul adabiyot, milliy madaniyat gullab yashnayotgan shaharga aylandi. Sultonning va beklarning saroylarida ilmiy-adabiy munozaralar uyushtirilardi, ijod ahliga e'tibor qilinardi. Istanbul,

Bursa, Edirna, Manisa, Konya va boshqa yirik shaharlarda ko'plab jome, xonaqoh, madrasa, kutubxon, karvonsaroylar qurilib, ajoyib me'morlik yodgorliklari bunyod etildi.

Turk mumtoz she'riyatining eng yorqin yulduzlari Mahmud Abdul Boqiy, Hayoliy, Ruhiy kabi shoirlar ham o'sha davrning adabiy, madaniy muhiti tufayli yetishib chiqdi. Istambuldagina emas, boshqa yirik shaharlardagi saroy va madrasalarda ham o'ziga xos adabiy guruhlar to'plandi. Imperiyaning madaniy markazlari bo'lmish Istanbul, Edirna, Bursa, Konya, Uskup, Diyorbakir shaharlarida adabiy muhit o'ziga xos tarzda rivojlandi. Endi turk shoirlari forsiy tilda ijod qilgan buyuk shoirlarga emas, Ahmad Posho, Najotiy kabi turkiy tilda ijod qilgan, aytish mumkin bo'lsa, o'z vatandosh ustozlari ijodiga ergashib ijod qila boshladilar. Devon she'riyati, asosan, aruz vaznida yaratilgani uchun she'riyatda arab, fors kalimalari nihoyatda ko'p qo'llanilardi. Bu davrda she'riyat tilini "turkiylashtirish"ga intilishlar ham shu sabablidir. "Turki basit", ya'ni sodda xalq turkchasi va xalq tushunadigan majozlarda she'r yozish tarafdorlari ham bor edi. Oydinli Visoliy, Edimeli Nazmiy kabilar. Ammo, bu yo'nalish tarafdorlari uncha muvaffaqiyatga erisha olmadilar.

XVI asrda tazkirachilik, tarixchilik, masnaviy yozish borasida ham ijobiy siljishlar bo'ldi. Xalq hikoyalari yo'lida didaktik asarlar yaratildi. Ishqiy, axloqiy, diniy mavzularda, pand-nasihati, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asarlar, jumladan, Ibni Kamolning "Yusuf va Zulayho", Qora Fazliyning "Gul va Bulbul", Toshlijali Yahyoning "Xamsa"si yaratildi.

Shaklan murabba o'xshash, ammo sodda tilda, kuyga solib aytish uchun yozilgan, sharqiy nomini olgan she'rlar ham asosan shu davr mahsulidir. XVI asrda "Shaharangiz" janrida Istanbul, Bursa, Edirna, Diyorbakir kabi shaharlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar vujudga keldi. Lomiyning Bursa ta'rifi keltirilgan "Shaharangiz"i ayniqsa mashhurdir. Umuman XVI asrda avvalgi yuz yilliklardagi adabiy yo'nalish yanada mukammallashib, turk klassik adabiyoti mazmunan ham, shaklan ham ancha boyidi. Bu davrda ko'plab g'azalnavis, masnaviynavis shoirlar yetishib chiqib, turk adabiyoti sahifasini yanada bezadilar. Zotiy, Boqiy, Ishoq Chalabiy, Fig'oniy, Rahmiy, Hayratiy, Lomiy Haqqoniy, Nazmiy, Shohidiy, Shukriy, Jaloliy, Behishti, Sharifiy, G'azoliy, Shamsiddin Sivasiy, Nihoni, Hotamiy, Vasfiy, Haylik Bey, Usuliy, Kamol Poshozoda, Bag'dodli Ruhiy XVI asr turk klassik adabiyotining eng ko'zga ko'ringan vakillaridir.

XVII asrdagi ijtimoiy hayot va adabiy muhitga umumiy nazar

XVI asr usmonlilar davlatining katta o'zgarishlarga yuz tutgan davri edi. Qonuniy Sulton Sulaymonning o'limidan so'ng taxtga o'tirgan Salim II ham Qonuniy yo'lini davom ettirdi. Davlatning iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosat bir maromda saqlanib turdi.

XV asrda rivojlanishi bir oz susaygan devon adabiyoti XVI asrga kelib o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqdi va bu rivojlanish XVII asrda ham davom etdi.

Asr boshlarida turk-islom madaniyati hukm surgan joylarda o'ziga yarash muammolar paydo bo'lgan edi. Markaziy Osiyoda yuz yillardan buyon hukm surib kelayotgan siyosiy vaziyatdagi ichki ziddiyatlar tugatilmagan, Oltin O'rdadagi To'xtamish o'rtadan ko'tarilgandan keyingi paydo bo'lgan bo'shliq to'ldirilmagan edi. Oltin O'rda davlatidagi beqaror vaziyat chor Rossiya'sining Hazar dengiziga chiqishi va O'rta Osiyo tomon ilgarilashiga qulay vaziyat tug'dirdi. Ispanlar tomonidan Amerikaning kashf qilinishi, yangi dengiz yo'llarining ochilishi ham usmonlarning imperatorligini iqtisodiy buhronga olib kelgan omillardan biri bo'ldi.

Garchand XVII asr boshida Sulton Mehmed III (1595–1603) "Xachova" jangida g'olib kelib, Yevropada usmoniylarning mavqei biroz mustahkamlangan esa-da, 1606–yil Sulton Ahmad I (1603–1617) tomonidan, "Zitvatoron" shartnomasining imzolaniishi usmonlilar Yevropada olg'a siljishiga chek qo'ydi. Davlatning ichidagi ziddiyatlar va ayniqsa Eron shohi Abbos I Turkiyaga urush ochishi imperiyani yanada zaiflashtirdi. Ammo Turkiya uchun eng katta xavf Yevropaga nisbatan ilm-fan, madaniyat rivojining to'xtab qolganligi edi. Yevropada renessansdan so'ng shiddat bilan rivojlanayotgan madaniy va iqtisodiy holat Turkiyada aksincha edi. Sulton Ahmad I o'limidan so'nggi taxt talashishlar, davlat tepasidagi shaxslardagi beqarorlik, ichki nizolar davlatni yanada zaiflashtirardi. 1648-yil taxtga o'tirgan Mehmed IV gina bu tanazzulni biroz to'xtatishga muvaffaq bo'ldi. XVI asrdagi usmoniylar shavkatini tiklash uchun qo'lidan kelgancha urindi. Mehmed IVning onasi Turxan Volda Sulton siyosatda ham so'zi o'tadigan ayollardan bo'lib, sadra'zamlikka Ko'prulu Mehmed Poshoni qo'ydirishga muvaffaq bo'ladi. Mehmed Posho davlat tizimida bir qancha o'zgarishlar qiladi. Mehmed Posho vafotidan so'ng uning o'rniga sadra'zam bo'lgan o'g'li Fozil Ahmad Posho davlat miqyosida birmuncha ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Yevropa siyosatini yaxshi bilgan, zamonaviy ilm-fandan xabardor Fozil Posho harbiy islohotlar qilib, Girid jangida zafar qozongandi. Bu bilan usmoniylarning mavqei biroz mustahkamlangandek bo'ldi. Fozil Poshoning o'limidan so'ng, 1699-yilda imzolangan "Karlovcha" shartnomasi davlat va millat uchun ko'p zararli shartnoma bo'ldi.

1642-yilda Istambuldagi kuchli zilzila yoki 1645-yilda sodir bo'lgan kun va oy tutilishlari ham afkor omma o'rtasida turlicha fikrlar uyg'otdi, hukumatga bo'lgan ishonchni susaytirdi. Hatto usmonlilar davlatining tamomila tanazzuli haqida gap-so'zlar ham bo'ldi. Ana shunday ijtimoiy muhitda adabiyot, adabiy hayot o'sishdan to'xtab qolgani yo'q. Fuzuliy va Boqiy kabi ustoz deya tan olingan shoirlarning an'analari davom ettirildi. XVII asrda ham turk adabiyoti tarixida salmoqli o'rni bo'lgan shoirlar yetishib chiqdi. Bu davrda hukmronlik qilgan sultonlarning ko'pchiligi shoir bo'lganligi yoki adabiyotni juda sevganligi adabiyot rivojlanishidagi muhim omillardan bo'ldi. Darhaqiqat, XVII asrda hukmronlik qilgan sultonlar Mehmed III "Odiliy",

Ahmad "Baxtiy", Murod IV "Murodiy" taxalluslarida ijod qilganlar. Istanbul ham siyosiy, ham madaniy-adabiy markaz bo'lib qolaverdi. Adabiyot asosan an'anaviy yo'lda rivojlandi. Oshiqlar ijodida ham, devon adabiyotida ham poeziya asosiy adabiy tur bo'lib qolaveradi. Bu asr adabiyotidagi o'ziga xoslik, poeziyadagi yangi janrlar-satirik va didaktik asarlarning yaratilishi bo'ldi. Aniq fanlarning rivojlanishi adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Kotib Chalabiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan Mustafo ibn Abdulla (1609–1657) geografiya, tarix, astronomiya, falsafa, adabiyotga oid o'nlab kitoblarni yozdi. Ayniqsa, uning bibliografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kitobida 8000ga yaqin arab, fors, turk mualliflari haqida ma'lumotlar berilganligi ahamiyatlidir. Mashhur sayyoh Avliyo Chalabiy (1611–1670 yoki 1681) Suriya, Falastin, Misr, Mojariston, Polsha, Avstriya, Germaniya, Daniya, Fransiya, Ukraina, Moldaviya, Volga bo'yiga, O'rol, Kavkaz, Qrim va yana boshqa ko'pgina davlatlarda bo'lib, ko'rgan-kechirganlarini o'z "Sayohatnoma"sida aks ettirdi. XVII asrda ko'plab adabiy tazkiralarning tuzilishi, grammatikaga oid ilmiy asarlar yozilishi diqqatga molik.

Sodiqiy Kitobdorning "Majmuai Havas", (A.Navoiyning "Majolis un-nafois" asari ta'sirida yozilgan), Riyoziy Mehmed Afandining "Riyoziy ush-shuaro", Sayyid Mehmed Rizinging "Rizo Tazkirasi" shular jumlasidandir.

XVII yuz yilda she'riy asarlar bilan barobar, ozroq bo'lsa-da nasriy asarlar ham yaratildi. Nargiziyning (?–1635) nasriy "Xamsa"si, yuqorida nomlari zikr etilgan Kotib Chalabiy, Avliyo Chalabiyning "Sayohatnoma"lari bunga yaxshi misoldir. Bu davrda me'morchilik, rassomchilik va kitob bezagi san'ati ham ancha rivojlandi. Me'mor Mehmed Og'aning "Ahmadiya" masjidi rassom Naqshiyning asarlari o'z davrida dovuq taratdi. XVII asr turk she'riyatining yorqin yulduzlari Nafiy, Yusuf Nabi, Aloviddin Sobit, Ruhiiy, Vaysiyar ijodi o'rta asrlar turk nazmining eng yaxshi namunalari bo'lib qoldi.

XVIII asrda adabiy muhit

XVIII asr usmonli imperiyasi uchun juda og'ir kechdi. Ichki isyonlar, iqtisodiy qiyinchilik, ayniqsa, imperiyaning tashqi siyosatdagi mavqei ketib, bir qancha yerlarni qo'ldan chiqarishi bu davr uchun xarakterlidir. Davlatning nainki XVI asrdagi buyukligi, hatto XVII asrdagi qudrati ham juda zaiflashib qoldi. 1699-yilda imzolangan "Karlovcha" shartnomasiga ko'ra, usmonlilar davlati Mojaristonning katta qismini Dolmachya va Mora yerlarini qo'ldan chiqardi. Garchi 16 yil davom etgan urush to'xtagan bo'lsa ham, imperiyaning Yevropadagi mavqei deyarli yo'qoldi. Uzoq davom etgan urushlar natijasida soliqlar ko'paydi. Bu narsa shusiz ham iqtisodiy qiyinchiliklarda yashayotgan xalqning joniga tegdi va bir necha isyonlar bo'ldi. Ispaniya va Chor Rossiyasi ham usmonlilarga qarshi tish qayrab turardi. 1712-yil Istanbul shartnomasi tuzildi. Bunga ko'ra Turkiya Mora va boshqa ba'zi qo'ldan ketgan yerlarni qaytarib oldi. Davlat bir oz qadrini rostlagandek edi. Ammo, Avstriya urushi boshlandi. 1718-yil Pasarofcha sulhi tuziladi. Urushlar, isyonlardan charchagan omma bu sulhni

yaxshi qabul qiladi. Eron shohi Ashraf bilan to'qnashuvni hisobga olmaganda, davlatda tinchlik o'rnatiladi. Lola davri deb atalgan bu 13 yilda adabiyot, san'at birmuncha rivojlandi. Lekin, bu davrda soliqlar ko'paygan va soliqlarni shohlar aysh-u ishratlarga sarflayotganini ko'rgan xalq isyon ko'taradi. Bunga 1729-yil turk qo'shinlarining Eron shohi Nodirshohdan yengilganligi va bunga sultonning e'tiborsizligi ham sabab bo'ladi. Sulton Ahmad III taxtdan ag'dariladi, Sadra'zam Ibrohim Posho o'ldiriladi, yangidan qurilgan binolarga, saroylarga o't qo'yiladi.

Taxtga Mahmud I o'tiradi. Biroq davlat idorasi isyonchilar boshlig'i yanichar Xalil va uning maslakdoshlari qo'lida edi. Ular asosiy mansablarga o'z odamlarini qo'yar, istagan amaldorni ishdan bo'shattirar edilar. Poytaxt Istanbul o'zaro ichki mojarolar ichida qolgandi. Ahvolning bu tarzda davom etishi mumkin emasligini anglab yetgan sulton Maxmud I, bir bahona bilan Xalil va maslakdoshlarini saroyga chaqirtiradi hamda hiyla bilan qo'lga olib, qatl ettiradi. Bosh ko'targan askarlar isyonini ham bostiradi. Davlat boshqaruvini qo'lga oladi. Bu davrda usmoniylar G'arbda Avstriya va Rossiya bilan, Sharqda Eron bilan janglar olib borayotgan edi.

1756-1763-yillar sulton Mustafo III davri biroz osoyishta kechdi. Ruslar bilan urushlar, Mora isyoni natijasida 1774-yil usmoniylar Kichik Kaynarcha sulhini imzolashga majbur bo'ldilar, natijada Qrim mustaqil bo'ldi. Angliya va boshqa Yevropa davlatlari har xil bahonalar bilan usmonlilarning siyosatiga aralashishga harakat qilardilar. Tashqi urushlar, Misr, Suriya, Anado'lidagi ichki isyonlar asr oxirigacha oz moz uzilishlar bilan davom etdi.

XVIII asr usmonli taxtiga o'tirgan sultonlarning ko'pchiligi shoirtabiat, san'atsevar, tabiatan yumshoq ko'ngil edilar. Bu vaqtga kelib Yevropa esa avvalgidan ko'ra ilm-fanda ancha ilgarilab ketdi. Shu jumladan, harbiy sohada ham XVIII asrda Turkiya har tomonlama Yevropadan orqada qola boshladi.

1703-1730-yillar hukmronlik qilgan sulton Ahmad III go'zal san'atlarni sevadigan, ko'ngilxushlikni yoqtiradigan kishi edi. Najib taxallusi bilan she'rler yozar, davrining yaxshi xattotlaridan sanalardi. U bilimdon shaxslardan ayrimlarini chet ellarga jo'natadi. Masalan, Mehmet Chalabiy Fransiya borib, u yerdagi sharoitni o'rganadi va Turkiyadagi ahvol bilan qiyoslab, sultonga taqdimnoma yozadi. Birinchi kitob bosish ishlari ham Ahmad III davrida boshlangan.

1730-1754-yillar hukm surgan Mahmud I armiyada islohot o'tkazishga, 1757-1774-yillarda taxtni egallagan Mustafo III iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qildi. Sulton Abdulhamid I (1777-1789), Salim III (1789-1808) davrida ham davlat miqyosida ba'zi bir o'zgarishlar qilishga harakat qilindi. Ammo bularning hammasi Usmoniylar imperiyasini Yevropa tazyiqidan qutqara olmadi. XVIII asr oxiriga kelib, davlat asr boshidagidan ham ko'ra zaiflashgan edi.

XVIII asrning birinchi yarmidagi 13 yil, ya'ni 1718-1730-yillar turk adabiyotida "Lola davri" deb yuritiladi. Bu atamani birinchi Yahyo Kamol qo'llagan. 1913-yil Ahmad Rafiq Oltinoy e'lon qilgan "Lola davri" nomli kitob bu davrning o'ziga xos o'rni borligini, adabiyotda, san'atda rivojlanish davri bo'lganligini ko'rsatadi. Sultonning kuyovi Ibrohim Posho bosh vazir bo'lgan bu davrda Istambulda obodonchilik ishlari olib borildi. Davlat odamlari yashash tarzida yevropaliklarga taqlid qila boshladilar. Yevropacha bog'lar barpo qilish, G'arbdan me'morlar chaqirib kelib imoratlar qurish urf bo'ldi. Parij bog'larida bo'lganidek hovuzlar, favvoralar qurildi. Bog'larda lolazorlar bunyod etildi. Masjidlari, kutubxonalar, ko'rkli saroylarning qurilishi ma'lum ma'noda adabiyot, madaniyat rivojiga turtki bo'ldi.

Sulton saroyida ham tez-tez mushoiralar, musiqa kechalari o'tkazilib turilardi. O'sha davrda "holva kechalari" deb nomlanib, tonggacha davom etadigan kechalarda, asosan shoirlar va mashshoqlar ishtirok etadilar, yangi-yangi qasidalar, g'azallar o'qilardi.

Lola bu davrning eng sevimli va qimmatli guliga aylandi. Sulton Mehmed IV davridayoq Misr va Avstriyadan keltirilgan lolalar Istambulda nihoyatda ko'paytirilgan edi. Gollandiyadan, Sherozdan va dunyoning boshqa davlatlaridan lolalarning turli navlari keltirilar, yangi navlari kashf qilinardi. Istambulliklar lolaning 639 turini ekardilar. Lola haqida risolalar yozilib, lolazorlar yaratish bo'yicha musobaqalar o'tkazilardi. Juda kam uchraydigan lola urug'ining (piyozi) 1000 oltinga sotilgani ma'lum. Hatto lolalarni baholash haqida "xatti humoyun" e'lon qilinadi.

Turk adabiyoti tarixida "Lola davri" deb atalgan bu davrning muhim voqealaridan biri Istambulda bosmaxonaning ochilishidir.

Parijga elchi sifatida jo'natilgan Mehmed Chalabiyning o'g'li Mehmed Said Afandi, asli mojar bo'lib, islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafarrika bilan hamkorlikda sultonning va shayxulislomning roziligini olib, 1724-yili Istambulda birinchi turk nashriyoti quradilar. Ayrim qarshiliklarga qaramasdan nashriyot 1729-yilda ishga tushadi. 1729-1742-yillarda tarix, geografiya, grammatika, lug'at, sayohatnomalar kabi 17 nomda kitoblar bosiladi. Bu madaniy hayotdagi katta voqea edi.

XVIII asr turk adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari

XVIII asr usmoniylar imperiyasi uchun muvaffaqiyatli kechmagan bo'lsa-da, adabiyot rivojlanishdan to'xtab qolgani yo'q. Saroy tomonidan shoirlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik har holda o'z samarasini berdi. Asr boshlaridagi "Lola davri"da Nodim, asr so'nggida esa Shayx G'olib singari ajoyib shoirlar yetishib chiqdi. XVIII asrda Nabiy ijodiga ergashib, uni o'ziga ustoz deb bilgan: Sobit, Durriy, Kamiy, Salim, Samiy, Izzat Ali Posho, Sayyid Vahbiy kabi shoirlar ijod qildilar. Fitnat xonim, Nabizoda Nozim o'ziga xos ovoz bilan adabiyotga kirib keldilar. O'sha davr shoirlariga ustozlik qilgan

Xo'ja Nashot (?–1807) ajoyib g'azallar yozish bilan birga, yoshlarga fors tili va adabiyotidan saboq berdi. Bu davrda turk shoirlariga fors she'riyatining ta'siri yanada kuchaydi.

XVIII asr turk she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari Nabi, Nodim, Shayx G'olib ijodida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Yuqorida nomi zikr etilgan shoirlar ijodining ahamiyatli tomoni mahalliy kalorit ustunligi va xalq ijodiga yaqinlikdir.

XVII asrning oxirlarida Nabi va Sobit ijodida ko'ringan yerli unsurlarni tasvirlash XVIII asrda yanada kuchaydi. Xalq urf-odatlarini adabiyotda aks ettirish odat tusiga kira bordi. Endi shoirlar Bag'dod, Sheroz yoki boshqa bir xayoliy shaharlarni emas, Istanbulni, yangi qurilgan binolar, bog'lar, o'sha davr muhitini qalamga ola boshladilar. Yerlilashtirma oqimi vakillari she'rlarida ko'proq xalq maqol, latifalarini qo'llab, mahalliy turmush tarzini ifodalashga ahamiyat berdilar.

Devon adabiyotida ilk marta yozilgan sharqiylar ham yangilik edi. Xalq qo'shiqlari turku va koshma shakliga o'xshash "hijo" vaznida yoziladigan sharqiylarning eng yaxshi na'munasini Nodim yaratdi.

XVIII asr adabiyotining yana bir o'ziga xosligi mumtoz devon she'riyatining qat'iy qonun-qoidalaridan chekinishi bo'ldi. An'anaviy obrazlar yangicha talqin qilina boshlandi. Yor tasvirida ham, oshiq tasvirida ham o'xshatishlar o'zgardi. Yorning ko'z, soch ranglari tasviri, oshiqning hijron azobidagi holatlarini berishda shoirlar originallikka intildilar.

XVII asrda urf bo'lgan "hind tarzi" uslubining ta'siri oz bo'lsa-da, XVIII asr she'riyatida sezilib turdi.

Bu asr she'riyatida ko'ringan o'ziga xosliklardan, sharqiy, tarix, naziralarning ko'plab ijod qilinganidir. Yozma adabiyotdagi murabba, xalq she'riyatidagi turku, ko'shmalarining qorishiq tarzi o'laroq yuzaga kelgan sharqiylarning Nodim ijodida keng o'rin olishi, shoirming 28 sharqiysi ko'plab yosh shoirlarga o'mak bo'ldi. Tarix aytish turli munosabatlar bilan, navro'z, ramazon bayramlari, shahzodalarning tug'ilishi, harbiy g'alabalar, elchilarni qabul qilish va boshqa ko'plab hodisalarga bag'ishlab yoziladi. Hatto faqat tarix aytilgan she'rlarning devoni tuzila boshladi. Shokiriy va Foiz tuzgan "Majmuai tavorix" bunga misoldir.


Bu davrda nazira va taqlidiy asarlar ko'proq Fuzuliy, Navoiy, Nabi, Nafiy, Boqiy, Nodim g'azallariga nisbatan yozildi. Atif Afandi (?–1742), Izzat Ali Posho (?–1735) Hashmet (?–1768), Fitnat Xonim (?–1780) kabi shoirlarning naziralari ayniqsa mashhur edi.

XVIII asrda yaratilgan asarlar tili avvalgi asrdagilarga nisbatan xalq tiliga yaqin, murakkab izofalar kamroq, ancha soddalashgan edi.

XVIII asrda ko'plab tazkiralari, tarixiy asarlar, sayohatnomalar yaratildiki, bu o'sha davr nasrining o'ziga xos namunalaridir. Salim "Tazkira"si, voqeanavis Shafiq

Afandining “Shafiqnoma”si, Nabizoda Atoyining 1634-1712-yillarda hukmronlik qilgan sultonlar biografiyasini aks ettirgan “Shaka-ik Zeyli” asari, Latifiy, Oshiq Chalabiy va Hasan Chalabiylarning ajoyib tazkiralari davr uchun muhim voqea edi. Umuman olganda, XVIII asrda yetakchi adabiy tur poeziya boʻlib, asosiy mashhur asarlar sheʼriyatda yaratildi.

TURK MUMTOZ ADABIYOTI VAKILLARI




**JALOLIDDIN RUMIY
(1207-1273)**

Oʻrta asr Sharqining eng yirik allomalaridan Jaloliddin Rumi Xurosonning Balx shahrida tugʻilgan boʻlib, asl ismi Muhammaddir. J. Rumi taxallusi boʻlib, turklar Kichik Osiyoni Rum eli derdilar. Uning otasi Bahoiddin Valad oʻz davrining yirik ulamolaridan biri edi. Muhammad Xorazmshoh bilan ixtilof tufayli zamonasining “Sultonul ulamo”si boʻlgan Bahoiddin Valad oʻz oilasini olib Balxdan chiqib ketdi. Boshqa bir maʼlumotlarga koʻra, Bahoiddin Valad moʻgʻul istilosi tufayli, oldindan Balx taqdirini sezgani tufayli shaharni tashlab ketgan, degan fikrlar bor.

Darhaqiqat, moʻgʻullar Balxni bosib olgach qatliom qiladi, toʻrt yuzdan ortiq mashhur allomalarning boshi kesiladi.

Balxdan chiqqanlarida Jaloliddin 5 yoshda edi. Ularning oilasi Nishopurda, Bagʻdodda, Makkada, Madinada, Damashqda, Xalabda, Oqshaharda yashaydilar. Bu mashhur shaharlarning qaysi biriga bormasin, Bahoiddin Valad hurmat-izzat bilan kutib olinadi, siyosat ahli ham, ilm ahli ham birdek eʼzozlashadi. Oxiri turk sultoni Qayqubod (1219–1236)ning taklifi bilan 1229-yilda Konya shahriga kelib oʻmashadilar. Bu vaqtda Jaloliddin balogʻatga yetgan yigit boʻlib, otasining muridlaridan, asli samarqandlik boʻlgan Said Burhoniddinning Gavhar ismli qiziga uylangan (1225) edi. Gavhar Xotundan Jaloliddin ikki oʻgʻil koʻradi, kattasi Sulton Valad kelajakda shoir boʻlib yetishadi. Gavhar Xotun vafotidan soʻng, tul Kira Xotunga uylanadi. Bu oilasidan Muzaffariddin, Olim Chalabiy va Malika Xotun ismli farzandlarini koʻradi.

Avvalo otasidan va davrining yirik allomalaridan ta'lim olgan Jaloliddin yil mutafakkir, faylasuf, shoir bo'lib yetishadi. Uning iqtidori juda yoshligidayoq sezilgan emish. Mashhur mutasavvuf olim Muhiddin Arabiy hali bola Jaloliddinning otasidan orqasidan ketayotganini ko'rib, "Alloh, Alloh bir daryo orqasidan ummon ketayotgan degan ekan. Darhaqiqat, 1231-yil otasining o'limidan so'ng o'miga shayx bo'lgan Jaloliddin Rumiy keyinchalik otasidan ham mashhur alloma bo'lib yetishadi. Uning adabiy-falsafiy merosi nihoyatda boydir.



"Masnaviy ma'naviy" asari olti daftardan iborat bo'lib, 30000dan ortiq misra o'z ichiga olgan. Bu asarni Jaloliddin Rumiy umrining so'nggi 10 yilida yaratgan "Devoni Kabir" ("Devoni Shamsul haqoyiq" ya'ni, "Haqiqat quyoshining kitobi" deb ham ataladi) 44000 misradan iborat bo'lib, 2073 g'azal jamlangan. Ruboiy va to'rtliklari 4000 misradan ortiq. "Fihi mo fihi" ya'ni "Nimaki undadir-undadir" (o'zbek tilida "Ichingdagi – ichingdadir" nomi bilan 1997-yilda nashr qilingan. Tarjimon Ulug'bek Abduvahobov) falsafiy asari, «Majolisi sab'o» diniy nasihat va o'gitlarda iborat asari 147 maktubdan iborat "Maktubot" to'plami bor. Bu asarlar, asosan, fors tilida bo'lib, ularning juda oz qismini shoirning o'zi yozgan. Jaloliddin Rumiyning deyarli barcha adabiy merosi kotiblari tomonidan Jaloliddin Rumiy aytib turganid yozib olingan. Bu narsa ulug' mutafakkir merosini zarracha kamsitmaydi.

"Fors tilidagi Qur'on" - deb ulug'langan "Masnaviy", "Nay taronasi" la, Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,

Ayriliqlardan shikoyatlar qilur... misralari bilan boshlanadi. Chunki nay tasavvufda oshiq, ya'ni ilohiy ishq oshig'ining ramziy obrazidir. Orif va oqil insonning o'zini ilohiy ishq yo'liga bag'ishlagan insoni komilning lutfi nihoyatda oshiqona va laziz bo'lishi kerak. O'zining toza hayotidan ayrilgan nayning "judolikdan shikoyatlar qilishi" orif insonning ruhi kabi hamisha boqiy ruhoniyyat olamiga intilishdir. "Masnaviy ma'naviy"da Jaloliddin Rumiy o'zining ta'limotini, dunyoqarashini bayon

qilgan. Hadis va oyatlar, xalq ogʻzaki ijodidan olgan masallar, naqllar, latifalar, ibratli voqealarga va hikoyatlarga oʻralgan falsafiy fikrlar asarning mohiyatini tashkil etgan. Insonlarga tushunarliroq boʻlishi va tezroq yetib borishi uchun shoir oʻz taʼlimoti asoslarini sheʼriyat tili bilan soʻzlaydi. Rumiyl mutafakkir shoir sifatida murakkab soʻfiyona fikrlarni, ramz bilan ishora qilingan mulohazalarni oddiy hayotiy tafsilotlari bilan tushuntirib beradi. “Rumiyl ming yillar davomida toʻplanib kelgan Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlarni omuxta etaolgan, tasavvuf va falsafani qoʻshib, inson ruhi dialektikasini ochgan ulugʻ mutafakkirdir. Uning qarashlarida biror-bir mutaassiblik, koʻr-koʻrona aqidaparastlik namunasini koʻrmaysiz. U tiyrak va hushyor koʻz bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday boʻlsa, shunday olib oʻrganadi, inson qalbi toʻridagi eng nozik, eng inja, eng yashirin sirlarni oshkor etadi, ruhimiz iqlimlaridagi oʻzimiz sezmagani qonuniyatlar, zaruriyatlarni koʻrsatib beradi”¹ (N. Komilov).

“Masnaviy”da insonning butunligi, ulugʻligi, musaffoligi ham, nuqsonlari, xudbinlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar ham tahlil etiladi. Bu illatlardan, nuqsonlardan qutulish, poklanish fazilatlarini bayon qilinadi. Rumiyl uchun insonlar dinidan, irqidan, millatidan qatʼiy nazar birdir. Muhimi u inson boʻlganligi uchun qadrlidir. Tasavvufda, asosiysi, inson koʻnglidir, kishilar turli tillarda soʻzlashadigan xalqlarga boʻlinishidan qatʼiy nazar, ular bir-birini tushunishi, anglashi kerak. “Masnaviy”ning bosh gʻoyalariidan biri “soʻfiy tilni” yaʼni “tilsiz tilni” bilishga undashdir. Jaloliddin Rumiyl mana shunday umumbashariy gʻoyalarni targʻib qilib yozadi:

Yana kel, yana

Kim boʻlsang - oʻsha boʻl,

Xohi kofir, xohi majusiy, xohi budparast,

Mayli yuz karra tavba qilgan boʻl,

Mayli yuz karra buzgan boʻl tavbani

Umidsizlik dargohi emas bu dargoh,

Qandoq boʻlsang — shundoq kel...

(Mirtemir tarjimasini)

Insonni ulugʻlash sharq sheʼriyatida hamisha birinchi oʻrinda boʻlgan. Bu gʻoya J. Rumiyl sheʼriyatida ham, falsafiy asarlarida ham, vaʼzlarida ham birdek oʻz ifodasini topgandir. Rumiyl davrining buyuk notigʻi edi. Uning vaʼzlarini eshitish uchun juda uzoqlardan muxlislari kelishar va bu vaʼzlardan olam-olam maʼno, zavq olib qaytishar edi. J. Rumiyl nutqlarini eshitish uchun Tabrizdan Muhammad Shams Tabriziy degan darvesh keladi. 1244-yil, 29-noyabrda davrning ikki ulugʻ insoni uchrashadilar. Hozir ham Turkiyada Jaloliddin Rumiyl va Shams Tabriziy uchrashgan joy “ikki nahr uchrashgan” joy sifatida ziyorat qilinadi.

¹ Каранг. Ж.Румий. Ичингдаги ичингдадур. Тошкент. “Ёзувчи”. 1997й. 6-бет.

Shams Tabriziy bilan suhbatlar Rumiya yanada ilhom berdi. Bu ikki do'st soatlab suhbatlashar, zohiriy va botiniy belgilar haqida bir-birining fikrini to'ldirardilar. Ular umrining oxirigacha dili bir do'st bo'lib qoldilar.

Rumiy bir umr ezgulikni, poklikni targ'ib qildi va o'zi komillikning namunasini bo'ldi. Mana hazratning shu ruhdagi ruboiysi:

Yaxshilik qil, zamon yaxshilik olsin,

Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.

Mol-dunyo barchadin, sendan ham qolur,

Yaxshi mol emas, yaxshilik qolsin.

(Sh. Shomuhamedov tarjimasini)

Asarlari fikrlashga, inson o'zligini tanishga yordam berdi. Jaloliddin Rumiy uning bo'yi odamlar ongini diniy bilimlar bilan charog'on etdi. U tushunchalarni she'riy va musiqa orqali anglashni o'rgatdi. Rumiy ijodi o'zidan keyingi avlodlarga bir maktab bo'ldi. Ma'naviyatning yuksak cho'qqilarini egallashga chorladi. Sharqning Rumiyi: so'ng yashab o'tgan deyarli barcha buyuk shoiralari uni o'ziga ustoz deb bildilar. Abdurahmon Jomiy "Masnaviy ma'naviy"ni benazir kitob, "forsiydagi Qur'on" da ulug'lasa, hazrat Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul muhabbat" asarida Rumiyi yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oldi.

Mashhur sharqshunos Ye.E.Bertels "Jaloliddin lirikasi bu sohada bashariy adabiyat erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u G'arbda kengroq ma'lum bo'lganida uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi gigantlari qatoriga o'tishi shubhasiz edi" - deb Rumiy ijodini juda yuksak baholagan edi. J.Rumiy ijodidagi bugungi kunda ham insoniyatning ma'naviy kamolotga yetishuvida xizmat qilmoqda.

SULTON VALAD

(1226-1312)

Karmanada tug'ilgan Sulton Valad Mavlolaning Jaloliddin Rumiyning to'ng'ich o'g'lidir. U bir umr otasining tarbiyasini olgan, mavlaviylar muhitida tarbiyalanib voyaga yetgan zot. Konya va Shomdagi eng mashhur madrasalarda tahsil olib, ilohiy bilimlarni chuqur egalladi. Otasi J. Rumiy vafotidan so'ng mavlaviylar suluki shayxi Husomiddin Chalabiy bo'ladi, keyin Sulton Valad shayx bo'lib, Rumiy ta'limotini elga tanitmoq uning umrlik maqsadiga aylanadi. S.Valadning shaxs sifatida shakllanishida Shams Tabriziyning ta'siri ham kuchli bo'lgan. Sulton Valad shoir sifatida otasi Jaloliddin Rumiy darajasiga yetolmasa-da, uning tashkilotchiligi kuchli edi. U bir umr otasining ta'limotini rivojlantirish va targ'ib qilishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. J.Rumiy asos solgan "mavlaviylik" tariqat o'laroq Sulton Valaddan boshlanadi, keyinchalik o'g'li Orif Chalabiy ham shu ishni davom ettiradi.

Sulton Valad buyuk faylasuf bo'lmasa-da, mavlaviylik tariqatining ba'zi qoidalarini ishlab chiqdi. Uning asarlari mazmuni ham mavlaviylik tariqati xususida bo'lib, asosan didaktik ruhdadir. Sulton Valadning bobosi Bahoviddin Valad va boshqar

o'ziga zamondosh shayxlar haqida yozib qoldirganlari ayniqsa ahamiyatlidir. Rumiyning ba'zi asarlari to'g'ridan-to'g'ri Valad yozib qoldirgan manbalardan olingan.

Sulton Valad turk tilida yozilgan ilk she'rlar namunasini bergan shoir sifatida ham qadrli. Tasavvufiy ruhda bo'lgan, mavlaviylik ruhiyatini keng xalq ommasiga singdirish uchun yozilgan turkiy she'rlarning uslubi o'ziga xosdir. Sulton Valadning devonida uch masnaviysi – "Ibtidonoma" (1291) "Rubobnoma" (1301) "Intihonoma" va "Maorif" nomli nasriy asari bor. Shoirning adabiy merosi asosan fors tilida bo'lsa-da, devonda turkcha-forscha, turkcha-forscha-rumcha aralash baytlar, hamda turkcha she'rlar uchraydi. Jami 156 baytni tashkil qilgan "Rubobnoma"dagi bu turkiy she'rlar 1301-yilda Kichik Osiyoda yozilgan sanasi aniq bo'lgan ilk turkiy yozma adabiyot namunasidir. Shoirning turkcha devonini birinchi marotaba 1925-yilda Valad Chalabiy Izbudaq "Devoni Turkiy-i Sulton Valad" nomida jamlab e'lon qilgan. Devonda asosan shoirning turkiyda yozgan adabiy merosi va masnaviylaridan parchalar olingan. Adabiyotshunos olim Majdut Mansur o'g'li 1958-yili "Sulton Valadning turkcha manzumalari"ni tayyorlab nashr ettirdi. Shoirning turkiy tildagi adabiy merosi adabiyotshunoslikda "Ilk saljuqiy she'rlar" nomi bilan ham ataladi.

Sulton Valadning adabiyot oldidagi asosiy xizmati tasavvufiy, falsafiy ruhda turk tilida birinchi bo'lib asar yaratganidir. S.Valad asarlari mazmunan va shaklan yangilik bo'lmasa-da, o'sha davr adabiy mahsuli, til xususiyatlari jihatidan qimmatbaho merosdir. Turk tilida adabiy asarlar yaratishga turki bergan shoir mavlaviylikni sodda tilda, oddiy misollar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Tomchi suv ummonga singib ketganidek, inson ruhi ham abadiyatga singib ketishini uqtiradi. Ko'zni ochib "tomchidek dengiz sari to'g'ri yurish, tomchidek dengizga qorishib mangu qolish" ya'ni abadiy ruh saltanatida bo'lish har bir so'fiy uchun maslakdir. Sulton Valad so'fiy shoir sifatida, asarlarida davr adabiy muhitini aks ettira oldi-ki, bugungi kun uchun bu juda ahamiyatlidir.

"Maorif" asaridan

- Birov menga savol beribdi. Dedi: ba'zi darveshlarni ko'rdim, boshqa joylarda ta'qiqlangan samo' va qo'shiq majlislarini qizitadilar. Qanday bo'lar ekan, bu darveshlik mazhabiga to'g'ri keladimi, bunday ishlar ravomi?

Men javob berib dedim: Buni batafsilroq qilib, kengaytirib tushuntirish kerak edi, ammo muxtasar aytadigan bo'lsam, shuni bilginki, agar darvesh sidquvafoli bo'lsa, jahd bilan yillar namozu ro'za, zikr-u xilvatnishinlik shartlarini ado etib, Xudo talabida yurgan bo'lsa, botini mezon orqali uni tark etgan va o'zining ham kam-u ko'sti (nuqsoni)ni anglagan bo'lsa, u samo' (majlisida ishtirok etib), doira va nay, tanbur va rubob (ovozini) eshitganda Xudovandga yana ham yaqinlashadi, holati o'zgarib, ilohiy shavq ilhomida yonadi. Ishq va faqr muftilari buni u haqda ravo ko'radilar. Negaki, uning bundan maqsadi qurb (yaqinlashish) va Iloh jamolidan lazzatlanishdir.

Ammo namoz vaqtida hol va vajdga berilishga qo'ymadilar, chunki har maqsadning o'z mavridi, surat-u rusumi bordir. Biroq bular bilan birga (ya'ni namoz ro'za bilan birga) samo'ga berilib, huzurlansa (ruhiy halovat topsa), uni boshqalarga qiyoslab hukm chiqarmaslik kerak. Zeroki, uning ibрати zohiran kufr bo'lib tuyulsa, lekin aslida bu kufr zamirida din bordir va ma'ni yuzasidan ayni iymondir. Ammo boshqalarning ishratlari kufr ustiga kufr va zulmat ustiga zulmatdir. Faqr yo'l qilinadigan qolgan barcha ishlar ham shariatning mag'zidir, demak, har bir narsani mag'zi uning muxolifi bo'lolmaydi. Yong'oqning mag'zini shaftoli yoki o'rik mag'zide olmaydilar. Shariat ommaning ibodat-u toatidir – osonlashtirilgan yo'ldir, toki kishilar o'z yumushlarini bajarib, besh vaqt namoz vositasida Xudoyim taolo ibodatini etsinlar va Xudoni yodga olib tursinlar. Ularning mayl va ishlari kuchsiz bo'lgan uchun bundan ortiqqa chidolmaydilar. Quruqlikdagi qushlar doimo suv yurolmaydilar va tuproqdan butkul xalos bo'lolmaydilar, illo, goh-gohida suv atrofida yuradilar, suvdan ichadilar va u bilan badanlarini tozalaydilar, yana o'zlarini quruqlikdagi maskanlariga uchib boradilar. Bu (ish) baliqning vazifasidirki, "Aman salotihi doimuna" (namozlari doimiydir). Baliqlar dengizdan ajralib yashashlari mumkin emas, ularning haqiqati dengizdan paydo bo'lgan va dengiz bilan birgadir. "Rashsha alayhim min nuri" (nur yomg'iri yog'ilsin unga).

Shariatdan maqsad suvga va daryoga yuz burishdir, ammo xos bandalar bamiyona baliqlardek butkul daryo ichidadirlar va daryo ularning jonidir, ular daryo tufayli tirikdirlar, taomlari, kiyimlari, maskan-manzillari, orom-u uyqulari, rizqiro'zlari ham daryodir, ya'ni: "Allazina yazkurunalloha qiyoman va qu'udan va alo junubihim va yataffakkuruna fi xaqqis samovati val-arzi" (Yer-u ko'kning maxluqoti Allah zikridadirlar va uning fikri bilan banddirlar).

YUNUS EMRE (1239-1321)

O'rta asrlarda yashagan turk shoirlari ichida turk tilidagi eng ko'p asarlar yozib, yozganda ham keng xalq ommasiga tushunarli tarzda ravon she'rlar yaratib mashhur bo'lgan shoir Yunus Emredir. Yunus Emre 1239-yilda Eski shahardan uncha uzoqda bo'lmagan, Porsuq daryosining Sakaryaga quyilish qismida joylashgan Sariko'y qishlog'ida dunyoga keldi. Emre uning taxallusi bo'lib, tasavvuf suluklaridan birinchi "Tekke" sulukiga mansubligini bildiradi. Yu.Emre xalq orasida mashhur shoir bo'lsada, o'rta asr tazkiralarida u haqida ma'lumot kam. Uning tavallud va vafot sanalari ham nisbiydir. Ammo xalq orasida shoirming hayoti va ijodiga oid ko'plab rivoyatlar mavjud. Garchand bu rivoyatlar Yu.Emre mashhurligidan, keng ommaning unga muhabbatidan dalolat bersa-da, ayni paytda shoir hayoti haqida aniq haqiqatni bilishni mushkullashtiradi. Masalan, Turkiyada Bursa, Sivas, Sariko'y va boshqa o'n beshga yaqin joyda Yu.Emre qabrini ko'rsatadilar. Mulada esa Yu.Emre qabri,

shoirning piri bo'lmish Tabduq Emrega murid bo'lganligi va uning eshigida qirq (ayrim ma'lumotlarga qaraganda o'ttiz) yil xizmat qilganligi, Yu.Emre ustoz fotihasini olib shoir bo'lganligi haqida shunday rivoyat bor: Ocharchilik boshlanib, Yunusning oilasi qiynalib qoladi. Shunda Yunus chora izlab shayx Hoji Bektoshiy² huzuriga keladi. Biroq nima maqsadda kelganini aytmay turganida Hoji Bektosh "Duo istab keldingmi?", – deb so'raydi. Yunus bug'doy so'rab kelganligini aytadi. Hoji Yunusga so'rganidan ortiq bug'doy beradi. Uyiga qaytayotib Yunus o'zining xato qilganini sezadi, duo emas bug'doy so'rganidan pushaymon bo'ladi va orqaga qaytib Xoji Bektoshiydan duo so'rab kelganini aytadi. Hoji Bektosh Yunusni Tabduq Emrega yuboradi. Yunus butun qalbi bilan Tabduq Emrega murid bo'lib, uning uyida o'tin tashib xizmat qiladi. Kunlardan bir kun o'tin tashib keltirgan Yunusga Tabduq: "Yunus sen biror marta ham egri o'tin olib kelmading", – dedi. Shunda Yunus: "Bu dargohga egri bo'lgan hech bir narsa kirolmas", – deb javob beradiki, bu Yunusning piriga e'tiqodi yuksakligidan dalolatdir. Oradan qirq yil o'tadi. Tabduq Emre dargohida tez-tez fozillar majlisi bo'lib turar, bu majlislarda Yunus Go'yanda ismli ovozi shirali kishi ham albatta qatnashardi. Tabduq Emre: "Yunus Go'yanda kuyla", – deb buyuradi. Go'yanda jim. "Qo'shiq aytgin Yunus, bizlar seni eshitmoq istaymiz" – deb takrorlaydi Tabduq. Yunus Go'yanda yana jim. Shunda Tabduq Yunus Emrega: "Tangrining inoyati ila senga murojaat qilish vaqti yetdi, biz bu xazinaning qulfini ochurmiz, sen kuyla", – deydi. Shunda Yunus Emre qirg'oqlaridan toshmoqchi bo'lgan daryodek toshib, jo'shib kuylaydi va keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib ketadi.

Bu rivoyatdan qat'iy nazar Yunusning Tabduq Emrega murid bo'lganligi va shoir dunyoqarashida, uning shaxs sifatida voyaga yetishida Tabduq Emrening ta'siri katta bo'lgani aniq. Buni Yunus Emre asarlaridan ham ko'rish mumkin. Shoir adabiy merosi ancha boy bo'lib, uning xalq yo'lida yozilgan ko'plab she'rlari, g'azallari va "Risalat-al nushiya" nomli didaktik ruhdagi dostoni bizgacha yetib kelgan. Shoir hayotligida devon tuzganmi, yo'qmi? Bu haqda turk adabiyotshunoslari turlicha fikr bildiradilar. Abulboqi Gulpinarli Emre hayotligida devon tuzgan desa, boshqa mashhur turk adabiyotshunosi M.Fuad Ko'prulu shoir devoni uning vafotidan ancha so'ng, izdoshlari tomonidan tuzilganligini aytadi. Ammo Yu.Emre she'rlarida shunday satrlarni uchratamiz:

Yunus o'lsa ismim ne ajab

O'qiyurlar mening bu devonimni.

Bundan ko'rinadiki, A.Gulpinarli fikrlari haqiqatga yaqinroq. Rivoyatlarga ko'ra Yu.Emrening 3000 dan ortiq she'rlari meros qolgan. Shoir vafotidan so'ng uning devoni Mulla Qosim ismli kimsa qo'lig'a tushib qoladi. Qosim dengiz qirg'og'iga borib Emre asarlarini o'qishga kirishadi. Birinchi marta mingta she'rini "shariatga

² Хожі Бектош – шайх, Бектоший сулукиннинг асосчиси.

qarshi ruhda” deb yoqib tashlaydi, ikkinchi mingtasini suvga oqizadi. Uchinchi mingtasini o'qiyotganda Mulla Qosim o'ziga atalgan shunday misralarga ko'zi tushadi

“Darvesh Yunus so'zlarini yolg'on dema,
Seni sinamoqqa Mulla Qosim keladi”.

Mulla Qosim Yunusni valiy bilib, devonini o'pib peshonasiga surtadi. Aytishlaricha Qosim yoqib yuborgan mingta she'rni qushlar, dengizga tashlagan: baliqlar kuylarmish. Qolgan mingtasini odamlar o'qib zavqlanarmish. Balki haqiqat ham Emredan ko'pdan-ko'p she'rlar qolgandir. 1986-yil Anqarada prof. F.Temurtos nashr etgan Yu.Emre devonida shoirning 325 dan ortiq g'azallari, she'rlari berilgan.

Yu.Emrening shu asarlari ham shoir badiiy mahorati, falsafiy qarashlari, o'sha davr she'riyatining saviyasi va turk tili haqida fikr yuritishga asos beradi. Shuning uchun ham shoir ijodini puxta o'rganish darkor.

XV asr oxirida yaratilgan “Viloyatnoma”da Emre haqida ham ma'lumot berilgan. Yu.Emre hayoti va ijodini o'rganishni boshlab berganlardan biri avstraliyalik turkshunos Hammer Prugshtaldir. U XIX asrning birinchi yarmida turk adabiyotiga o'zining bir qancha tadqiqotlarni e'lon qiladi. Shoir shaxsiga qiziqish so'nggi paytlarda anchalik kuchaydi. F.Ko'pruluzoda, Ali Hasan, A.S.Levend, N.S.Banarli, N.Qosim, K.G'.Temirtosh, S.Ayubog'li, A.Gulpinarli va boshqa turk adabiyotshunoslari shoir ijodi ustida ilmiy izlanishlar olib boradlar. Rus sharqshunoslari akademiklar A.E.Krimskiy, A.V.Gordlevskiy, adabiyotshunolar V.S.Garbuzova, L.Alkayeva, A.Boboyev, G.A.Gorbatkina, I.V.Borolina, V.B.Kudelinlarning ilmiy ishlarida ham Yu.Emrega taalluqli qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan turkiyshunos olimi I.V.Borolina Yunus Emre she'rlarining sodda, ravon tildaligini ro'kach qilib Yu.Emrening savodi bo'lganligiga gumon qiluvchilarga qarshi shunday yozadi: “Yunus Emre she'rlarini chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u o'z davrining nihoyatda ma'lumotli kishisi bo'lgan. Arab va fors adabiyoti, o'tmish faylasuflarining ta'limotini yaxshi bilgan, zamondosh so'fiy shoirlarning ko'pchiligi bilan shaxsan tanish bo'lgan”³. Umuman adabiyotshunoslikda Yunus Emre devonining o'nga yaqin nusxas ma'lum va mashhur.

Tasavvuf ta'limoti VIII asrda Sharqiy Arabiston, aniqrog'i Iroqda paydo bo'lib so'fiylar dunyo boyliklariga qarshi chiqqanlar. Murakkab ta'limot bo'lgan tasavvufning asosi inson va uning xudoga munosabatidir. So'fiy shariat, tariqat, ma'rifa bosqichlaridan o'tgachgina haqiqatga erishadi, ya'ni “xudoning jamoliga” yetishadi. Tasavvuf tariqatining murakkabligi, yo'nalishlarining ko'pligi tufayli mutasavvuf shoirlarni bir yoqlama tushunish hollari ham ko'p bo'lgan. M. F. Kuprulu, M.A.Ayni kabi turk olimlarining ilmiy tadqiqotlarida so'fizmning mingga yaqin ta'rifi va tavsifi borligi aytilgan. Ma'naviy boylikni haqiqiy boylik deb bilgan Boyazid Bistomiy

³ Литература Востока в средние века. – М., 1970. –Стр.336.

Mansur Xalloy, Attor, Jalolidin Rumiy, A.Yassaviy, Ibn al-Arabi kabi tasavvuf tarixida alohida o'rni bo'lgan allomalar ijodi Yunus Emrega ilhom bag'ishlagan. Ayniqsa, Ibn al-Arabi (1165-1224) va J.Rumiylarning ta'siri kuchli bo'lgan. Yu.Emre Rumiy va'zlarini eshitish uchun Konya shahriga keladi va Rumiy asos solgan mavlaviy suluki zikrlarida ishtirok etadi. Rumiy bilan uchrashuv Emreni yanada faol tasavvuf targ'ibotchisiga aylantiradi. Shoir Rumiy bilan ko'rishganligini shunday ta'riflaydi.

Mavloni Xudobennigor bizga nazar qiladi

Uning ko'rkli nazari ko'nglimiz oynasidir.

Yu.Emre she'riyatida so'fiyona g'oyanigina emas, so'fiyona obraz va razmlarni ham ko'ramiz. Tasavvuf shoirlari ijodda ma'shuqa, do'st deb xudoni nazarda tutganlar, shamga o'zini urayotgan parvona – ilohga intilish, may ichib mast bo'lish – ilohiy zavq, jazava, yor bilan visol iloh bilan birlashib ketish kabi.

“So'fiyona poeziya qonunlariga ko'ra xudo to'g'risida faqat allegorik tarzdaгина so'zlash mumkin. Shuning uchun ham uni do'st yoki makkora ma'shuqa deb ataganlarki, telbalaracha sevib qolgan darveshning qalbi unga intiladi. Tasavvuf poeziyada lirik muhabbat poeziyasining obrazli tilidan ustalik bilan foydalanilgan”.⁴

Emre she'rlaridagi real, dunyoviy obrazlar tagida ilohga intilish yotadi:

Yo'ldosh bo'laylik ikkimiz,

Kel, do'stga boraylik ko'ngil

Holdosh bo'laylik ikkimiz,

Kel, do'stga boraylik ko'ngil

Yu. Emre panteist sifatida har bir narsani xudoning bir zarrasi deb biladi. O'zini tabiat bilan qorishib ketgandek his qiladi. U insonni ham xudoning bir zarrasi deb bilar ekan, xudoni ulug'lash bilan insonni ulug'lagandek bo'ladi. Har bir narsa asliga intilganidek, inson ham asliga intiladi, ya'ni xudoga intilish kerak, intilish ilohiy ishqda ko'rinadi. Bu yo'lda inson, ya'ni oshiq turli holatlarga tushishi mumkin.

Goh esaman yellar kabi

Goh shoshaman yo'llar kabi

Goh toshaman sellar kabi

Kel, ko'r meni ishq nayladi!

Men Yunusi bechoraman

Boshdan-oyoga yaraman

Yor elida ovoraman

Kel, ko'r meni ishq nayladi⁵.

Oshiq (shoir)ning ma'shuqa (xudo)ga ishq, ilohga yetishuvga intilishi tasavvuf shoirlari ijodida ko'p uchraydi. O'zidan keyin yashagan va turkiy tilda ijod qilgan

⁴ Гарбузова А.В. Турк адабиёти классиклари. – Т., 1960. – Б. 22.

⁵ Хуршид Даврон. Кактус. – Т., 1987. – Б. 79.

deyarli barcha mutasavvuf shoirilarga ta'siri kuchli bo'lgan Ahmad Yassavi

“Hikmat”ida buni yanada yaqqol ko'ramiz:


Ishq bozori ulug' bozor, savdo harom,
Oshiq'larga sendan o'zga g'avg'o harom,
Ishq yo'liga kirganlarga dunyo harom,
Harna qilsang, oshiq qil' il parvardigor⁶.

Hoja Ahmad Yassaviy satrlari bilan yuqorida keltirganimiz Yu. Emre misralari hamohanglik Yunus Emre A. Yassaviy ijodi bilan tanish bo'lgan degan fikr tasdiqlagandek bo'ladi. Darhaqiqat, Yu. Emre misralarida ham mazmunan, ham shaklan hazrat Yassaviy ijodiga hamohang misralarni uchratamiz. Yassaviy: “tuman kiyganlar, totli-totli yeganlar, tuproq aro yotmishlar” desa, Emre “Tong qabristonga bordim, ko'rdim jumla jahon yotar” matlasi bilan boshlanadigan g'azal. Yassaviy fikrlarini davom ettirgandek “Yunus sen agar haqiqiy oshiq bo'lsan o'zingni boylik bilan bezama, o'zini boylik bilan bezaganlar bunda tuproq bo'lib yotibdirilar”, – deydi. Emre ijodidagi bunday ohanglarni tarki dunyochilikning targ'ibi sifatida emas, aksincha shoimning ruhiy isyoni sifatida tushunmoq lozim. Yunus Emre ham ijtimoiy voqelikdan noroziliklarini shu tariqa ifodaladi. Uningcha haqiqiy oshiq (so'fiy) jannatni orzu qilmasligi, do'zaxdan qo'rqqanligi kerak. Oliy mukofot qalbi poklab, qalban Allohga (haqiqatga) yetishmoqlikdir. Shoir fikrlarini ifodalashda badii timsollardan keng foydalanadi. Uning asarlarida an'anaviy san'atlardan, Jolius Mansur Xalloy, Rumi, Xusrav, Anushervon kabi ko'plab tarixiy shaxslar nomlarining uchrashi, Qorun, Majnun, Layli kabi folklordagi yozma adabiyotga kirgan timsollar va “Qur'on”, “Tavrot”, “Injil”dek muqaddas kitoblardagi rivoyatlarga ishorani, bu kitoblardagi ramzlardan foydalanishni ko'ramiz, bu shoimning chuqur ma'lumotli bo'lganidan dalolat beradi.

Hayot va o'lim, mutlaq borlik, ilohiy ishq, tabiat bilan uzviylik Emre ijodining asosiy mavzuidir. Shoir o'z fikrlarini ifodalashda tarixiy va afsonaviy shaxslar, folklordagi obrazlardan ko'ra ham ko'proq real hayotdagi, tabiatdagi narsalardan foydalanadi. Masalan, shoir oddiy daraxt umrini insonga qiyoslaydi. Niholning o'sib ulkan daraxt bo'lishi, gullashi, bir qancha vaqt gurg'urab yashnashi va oxiri qurib halok bo'lishida insoniy hayot falsafasini ko'radi. Fasllar – qish va undan so'ng bahor kelishi esa uzoq hijronda bo'lgan oshiqning yor visoliga yetishi sifatida namoyon bo'ladi, kishi ko'nglidagi bahor, uning yorini ko'rib diliga nur yugurgani, qalbidagi chechaklari ochilgani. Emre so'fiy shoir sifatida inson va tabiatni doimo uyg'unlikda ko'radi. Jonli jonsiz tabiat ilohiylikning turlicha ko'rinishlaridir xolos. Emre she'rlarida uchraydigan bulbul, qarg'a, bulut, daraxt va boshqa ko'pgina obrazlar shoirga haqiqatni aytishga xizmat qiladi. “Kul-il-haq” – to'g'ri so'zni aytish Yunus Emre shioridir. Emre

⁶ Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т., 1991. – Б. 106.

haqiqatni ulkan dengizga, yolg'oni shu dengizda g'arq bo'lgan kemaga qiyoslaydi. Bashariyatning ilg'or farzandlari inson erki, haqiqat uchun qaysidir shaklda kurashganlar. Yunus Emre "xudo" inson qalbida, inson o'z qalbida "iloh"ni topmasa, boshqa hech qayerda topolmasligini aytib, insonni ilohiy darajada ulug'lar ekan, bundan "inson hech qachon qul bo'lishi kerak emas", – degan mazmun chiqadi. Shoir lirikasidagi insoniy "may" ham botiniy, ham zohiriy, ham avvaliy, ham oxiriydir. Shoiming falsafiy qarashlari didaktik ruhdagi "Risolat-al-Nushiya" (risola kichik kitobcha, nusha (nasihat), aqlidir. "Nasihatlar risolasi" deyish mumkin) dostonida yana ham ravshanroq aks etgan. "Risolat-al-Nushiya" dostoni 1307-yilda yaratilgan bo'lib, 600 baytdan oshiqroqdir. Asarning kirish qismi nazm va nasrda yozilgan. Doston o'z navbatida yana olti qismga bo'linib, har bir qism alohida nomlangan. Allegorik ruhdagi "Risolat-al-nushiya" ichidagi har bir doston mustaqil sujetli va fikran tugallangandir. Bular quyidagicha nomlangan:



"Risolat-al-nushiya"da Yunus Emre qarashlari yanada yorqinroq aks etgan. Dostonda shoiming dunyoni idrok qilishi, borliqni bilishda Aql va E'tiqod asosiy qurolligi ko'rsatildi. Unga muvofiq inson atrofidagi aniq moddiy borliqni bilishdan boshlab, moddiy borliqdan tashqari bo'lgan "mutlaq aql" haqiqatni bilishgacha bo'lgan yo'lni o'z aql-idroki, qalb shuuri bilan his qilib bosib o'tishi kerak. Asarning kirish qismida shoir to'rt unsur – yer, olov, suv, shamol (havo) haqida so'z yuritadi. Inson ham dunyoning bir bo'lagi sifatida shu to'rt unsurdan yaratilgan. Odamdagi yaxshi va yomon xususiyatlarning asosi ham, inson xarakteri – sa'jijasidagi qarama-qarshiliklar ham mana shu unsurlardandir. Yu. Emre nazdida insonda, umuman hayotda, yaxshilik urug'i ko'proq, shuning uchun doimo oxir oqibatda yaxshilik yengib chiqadi. Majoziy bu asarda voqealar "Aql" deb nomlangan shaharda kechadi. Shahardagi kurash, insondagi ziddiyatlarning – Kibr va Kamtarlik, Xasislik va Saxiylik, Ochko'zlik va Qanoat, Yolg'on va Haqiqat o'rtasidagi kurashidir. Insondagi "Rahmoniy va shaytoniy" kuchlarning kurashidir, bu. Nafs, ochko'zlik balosini shunday ta'riflaydi shoir: Bu nafs o'g'lonlari to'qqiz kishidir, // Nifoq va shirk keltirmoq alar ishidir // Katta

o'g'il Xasislik yaxshilik qilmas// Jahon mulki aning bo'lsada unga yetmas.⁷

Inson o'zidagi illatlardan – ochko'zlik, xasislik, xudbinlik, manmanliklarda qutulishi lozim, zero, insonning imkoniyatlari cheksiz, ruhiy kamoloti benihoy yuksakdir, – deydi shoir. Inson qudratiga ishonch, agar u xohlasa har qanday to'siqlar yenga olishini ko'rsatish dostoniga gumanistik ruh bag'ishlaydi. Zotan, odam qalq qusurlaridan o'zi qutulmasa, o'zligidan qochib hech qayerga borolmaydi. Didakti dostonning ajoyib namunasi bo'lgan “Risolat al-nushiya” Yunus Emrening inson ruhi qudratiga ishonchi, hurfikir shoirning haqiqatga yetishishi yo'lida hech qanda mashaqqatlardan qaytmasligining nazmiy in'ikosidir.

Yu.Emre turk she'riyati tarixida “oshiqlar she'riyati” deb nom olgan yo'nalishning asoschisidir. O'zbek kitobxonlari Yu.Emre she'rlarini Xurshid Davron, Azim Suyun, Jamol Kamol, Tohir Qahhor, Nafisa Sultonqulova tarjimasida biladilar. Shoir ijodi haqida mazkur asar muallifining “Ishq asiri bo'lgan jon” (“O'zbekiston”, 1996.) kitobchasi va bir qancha ilmiy maqolalari matbuotda e'lon qilingan.

AHMADIY (1329-1413). Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim hayoti va ijodi haqida bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarda chalkashliklar mavjud. Manbalarda, shoir tug'ilgan va vafot etgan sana ko'rsatkichlarida ham farq bor. Garmiyonda (ba'zi manbalarda Sivas, Istanbul ko'rsatilgan) tug'ilgan Ahmadiy boshlang'ich ma'lumot olgach, bilim olish uchun Qoxiraga jo'naydi. Qohirada o'z davrining mashhur tabibi Shamsiddin Muhammad al Fanoriydan tabobat ilmini o'rganadi. Ahmadiyning Qohirada necha yil yashaganligi va qachon vataniga qaytganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U 1403-yili Amasega kelganda, Anqara yaqinidagi jangda Boyazid ustidan g'alaba qozongan Amir Temur ham o'sha yerda ekan. Ahmadiy Temurga bag'ishlab qasida yozadi va Temur uni o'ziga nodim qilib oladi. Lekin, tez orada Ahmadiy Amasedan qochib, Boyazidning to'ng'ich o'g'li shahzoda Sulaymon hukmdorlik qilayotgan Edima shahriga boradi.

Text talashgan shahzoda Mexmet o'z akasi Sulaymonni 1410-yilda o'ldiradi. Ahmadiy yana Amasega qaytib kelib umrining oxirigacha shu yerda qoladi.

Shahzoda Sulaymon saroyida yashagan vaqt Ahmadiy uchun sermahsul ijodiy davr bo'ldi. U hukmdorni ulug'lovchi bir qancha qasidalar va g'azallar yozadi. Ahmadiy nomini turk adabiyoti tarixiga olib kirgan mashhur “Iskandarnoma” dostonini ham shoir o'sha vaqtda yaratgan.

Iskandar Zulqarnayn mashhur tarixiy shaxslardan bo'lib, uning haqida ko'plab afsona va rivoyatlar to'qilgan. Sharqda birinchi bo'lib Iskandar obrazini badiiy adabiyotga olib kirgan shoir Abulqosim Firdavsiydir. Firdavsiyning “Shohnoma”si bu paytda hali turk tiliga tarjima qilinmagan bo'lsa ham arab va fors adabiyoti bilan yaxshi

⁷ Али Чичекли. Юнус Эмре. – Истанбул, 1971. –Б.164 (асар турк тилида).

tanish bo'lgan Ahmadiy "Shohnomada"dan xabardor bo'lishi mumkin. Ahmadiy o'z dostonini yaratishda asosan Nizomiya suyansa-da, shunchaki ergashgani yo'q, balki ijodiy yondashdi. U dostoniga Kichik Osiyo tarixidan hikoya qiluvchi butun bir bob kiritdi. Ahmadiy "Iskandarnoma"sida o'z davrining ilm-fani haqida ancha keng ma'lumotlar berganki, bu ayniqsa qimmatlidir. Shuningdek u Usmoniylar sulolasining tarixini ham ancha mukammal yozadi. Sharq adabiyotida an'anaviy Iskandar obrazi oliyanoblikka xizmat qiluvchi hukmdor, adolatparvar, ideal shoh sifatida tasvirlangan. Bu narsa Ahmadiy dostonida ham ko'rinadi. Ahmadiy Iskandarni Eron taxtining vorisi, makedoniyalik Filippning qiziga uylangan Doroning o'g'li sifatida tasvirlaydi. U buyuk allomalar Arastu, Suqrot, Aflotun, Gippokratlardan ta'lim oladi. U harbiy yurish qilib, Hindiston, Xitoy, Misr va boshqa ko'pgina mamlakatlarni o'ziga bo'ysundiradi. Iskandarning sarguzashtlari nihoyatda qiziqarli qilib hikoya qilinadi. Iskandar Zulqarnayn muqaddas shahar Makkani ham zabt etgach, o'zini butun dunyo hukmdori deb bilib, endi o'lmaslikning, bu dunyoda boqiy qolishning yo'lini qidiradi. U tiriklik suvini topish uchun Zulmat mamlakatiga safar qiladi. Ammo tiriklik suvini topish unga nasib qilmaydi va tez orada Iskandar vafot qiladi. Ahmadiy doston yozishda faqat Firdavsiy va Nizomiy asarlarigagina suyanib qolmadi. U Iskandar haqidagi xalq to'qigan afsonalardan ham foydalandi. Shuning uchun Iskandar bilan Gulshohning muhabbati haqida ishqiy-romantik tarixni dostoniga kiritdi. So'fiyona asarlarga xos bo'lgan ikki yo'nalishlik, ya'ni real borliq va majozilikning qorishib ketishi "Iskandarnoma"ning xarakterli xususiyatlaridan. Ahmadiy ilm-fanni tiriklik suvi deb biladi. Ilm-fanni chuqur egallagan kishining nomi abadiylikka erishadi. Iskandar bilan olishadigan yovuz kuchlar insondagi illatlar timsolidir.

So'fiy adabiyotida ilm-fan haqiqatga olib boruvchi yo'l sifatida qaralgan. Shuning uchunmi shoir dostonida ilm-fan haqida keng ma'lumot berilgan. Badiiy jihatdan doston juda yuksak darajada emas. Ammo, 16500 misradan iborat bo'lgan bu doston, turk tilida, dunyoviy temada yaratilgan ilk masnaviy sifatida, o'sha davr adabiy saviyasi, ma'rifiy darajasi, til namunasi sifatida ahamiyatlidir. Ahmadiyning ikkinchi dostoni "Jamshid va Xurshid" ham fors adabiyoti ta'sirida yozilgan. Chin podshosining o'g'li Jamshid tushida go'zal bir qizni ko'rib sevib qoladi. Jahonning ko'p mamlakatlarini kezgan sayyoh rassomdan tushida ko'rgan qiz yunon hukmdorining qizi - Xurshid ekanligini biladi. Jamshid yuz minglik qo'shin bilan Rum eliga qarab jo'naydi. U suvsiz saholardan, qalin o'rmonzorlardan o'tib, yirtqich hayvonlar bilan olishadi, jang qilib ajdarhoni, devni yengadi. Dengizda kemasi halokatga uchrab, o'zi tasodif bilan qutulib qoladi va Rumga keladi. Xurshid ham bir ko'rganda Jamshidni yaxshi ko'rib qoladi. Ikki sevishtanlar o'rtasidagi muhabbatga Xurshidning onasi qarshi chiqadi. Ko'pgina sarguzashtlar, raqiblar bilan yaklama-yakka jang qilishlar va g'olib kelish oqibatida ikki sevishtan murodlariga yetadilar va Jamshidning vatani

Chin yurtiga keladilar. Ahmadiyning bu dostoni ham tasavvufiy ruhda bo'lib, obrazlar allegorik ma'noga ega. Jamshid va Xurshid haqiqat va iloh bo'lsa, ajdaho – manmanlik uning yetti boshi – hasad, kibr, ochko'zlik va boshqa illatlarning timsolidir. Ahmadiy o'z dostonlarida tasavvufni targ'ib qilishga intilgan bo'lsa, lirik she'rlarida real hayotga bir muncha yaqinlashadi. Fuzuliy Ahmadiyni hayot shodliklarini kuylashda Abunuvosga tenglashtirgandi. Ahmadiy shoir bo'libgina qolmay, mohir tarjimon ham edi. Ibn Sinoning "Al-qonun" kitobini turk tiliga tarjima qilgan.

Sakkiz ming baytdan ortiq devoni qasidalar, g'azallar, tarkibandlardan iborat. Qasidalarning ko'pi Amir Sulaymonga bag'ishlangan. Zamonasining mashhur shoir bo'lgan Ahmadiy xattotlik ham qilgan, musavvir bo'lgan.

Darsni mustahkamlash: mavzu test asosida mustahkamlanadi. BBB jadval to'ldiriladi.

1. Anonim turk xalq adabiyotining nazmiy shakllaridan bo'lgan yo'qlov janrining nomini aniqlang

a) Bilmeje; b) Ninni; c) Ayit; d) Fikra.

2. Nutq janri qaysi davr janri sanaladi?

a) Diniy-tasavvufiy; b) Nasriy; c) Anonim davri; d) Oshiq tarzi davri.

3. Turkularda har banddan so'ng bog'lovchi misralar nima deb ataladi?

a) Kavushtak; b) Bo'zlak; c) Chuqurova; d) barcha javoblar to'g'ri.

4. Duz mani deyilganda nima tushuniladi?

a) oddiy mani; b) so'z o'yinli mani; c) oyoqli shakl mani; d) qo'shimchali mani

5. R.Baratov XX asrning 20-60-yillarida qancha turk ertaklarini yozib oladi?

a) 3500 ta; b) 3600 ta; c) 3700 ta; d) 3800 ta.

6. Jaloliddin Rumiyning qaysi asari 44000 misradan iborat?

a) "Masnaviy Ma'naviy"; b) "Devoni Kabir"; c) "Majolisi sab'o"; d) "Maktubot"

7. Sulton Valadning nasriy asarini aniqlang

a) "Ibtidonoma"; b) "Rubobnoma"; c) "Intihonoma"; d) "Maorif".

8. 1986-yil Anqarada prof. F.Temurtosh nash etgan Yunus Emroning devonida shoirning qancha g'azali berilgan?

a) 320 ta; b) 325 ta; c) 330 ta; d) 335 ta.

9. "Risalat-al-nushiya" asarida nechta mustaqil doston mavjud?

a) 4 ta; b) 5 ta; c) 6 ta; d) 3 ta.

10. "Masnaviy ma'naviy" da qancha rivoyat va hikoyatlar o'rin egallagan?

a) 690 ta; b) 350 ta; c) 270 ta; d) 70 ta.

Mustaqil ish:

1. Ziyonet.uz internet tarmog'idan turk adabiyoti tarixini o'rganish
2. J.Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" asarini o'rganish. II qism.
3. J.Rumiy g'azallaridan yod olish. 3 ta
4. Yunus Emre g'azallaridan yod olish. 2 ta

Darsni yakunlash. Keyingi mavzu "Hozirgi zamon turk adabiyotidagi yo'nalishlar" haqida ma'lumot beradi. O'quvchilarni keyingi ma'ruzaga tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ziyonet.ru Turk adabiyoti tarixi.
 2. Хуршид Даврон. –Тошкент, 1987. –Б.7–8.
 3. Адабиёт. Дарс китоби. – Анкара, 1991. –Б.103.
 4. Турк эртаклари. – Анкара, 1992. –Б. 3-4.
 5. Румий. Ичингдаги ичингдадур. –Тошкент, 1997. 6-бет.
 6. Литература Востока в средние века. – М., 1970. –Стр.336.
 7. Гарбузова А.В. Турк адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960. – Б. 22.
 8. Ахмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т., 1991. – Б. 106.
 9. Али Чичекли. Юнус Эмре. –Истанбул, 1971. –Б.164 (асар турк тилида).
 10. Н.Комилов. Тасаввуф. –Тошкент, 2009.
 11. Муҳаббат тароналари. –Тошкент, 2005.
 12. Донишмандлар тухфаси. –Тошкент. 2009.
 13. Султон Валад. Маърифатнома. –Тошкент, 2011.
 14. Ж.Румий. Ҳикматлар. –Тошкент, 2008.
 15. Ж.Румий. Маснавий маънавий. – Тошкент, 2002.
 16. Э.Очилов. "Маснавий маънавий" таржимасида шакл ва мазмун бирлиги.
- // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, 6 сон

Mavzu: HOZIRGI ZAMON TURK ADABIYOTIDAGI YO'NALISHLAR

REJA:

1. XX asr Turkiyadagi tarixiy muhit.
2. 20-30 yillar turk adabiyoti.
3. 40-60 yillar turk adabiyoti.
4. Hozirgi zamon turk adabiyotining vakillari.
5. Keyingi yillar turk adabiyotining xususiyatlari.

Tayanch so'z: Yangi turk adabiyotining xususiyatlari, sarbast she'r-lar. Ijtimoiy-siyosiy voqealarning adabiyotda asosiy mavzuga aylanishi. Turk modern adabiyoti. Sabaxittin Ali, Aziz Nesin, Nozim Hikmat, Qora Osmon o'g'li kabilarning ijodiy faoliyati. R.N.Guntekin ijodidagi o'ziga xosliklar. Erk va demokratiya uchun yozilgan asarlar.

Darsning maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va Turk xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o'rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish va h.k.

Mashg'ulotni muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish

Mashg'ulot vazifasi:

a) ta'limiy – "Turkiy xalqlar adabiyoti" fanidan "Hozirgi zamon turk adabiyoti" mavzusiga oid asosiy ma'lumotlar va materiallarni qabul qilish;

b) tarbiyaviy – talaba sifatida o'z-o'zini hurmat qilish, o'z faoliyatini boshqara bilish, ishtirish, o'z xulq-atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o'zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o'z o'rtog'ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to'xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) rivojlantiruvchi – darslik, o'quv qo'llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiylikdan murakkablikka o'tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yondashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

O'qitish texnologiyasi: o'qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" usuli

O'qitish shakli: frontal so'rov, umumiy sinov

O'qitish vositasi: ma'ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og'zaki nazorat, lahzalik so'rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;

- o'quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;
- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'miga izoh berish;
- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;
- mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojida o'miga e'tiborini qaratish

Ma'ruzaning samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim shartlar bajariladi:

Didaktik talablar

- d) ma'ruzaning batafsil rejasi tuziladi;
- e) ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish)lar beriladi.
- f) mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlar ma'lum qilinadi;
- g) rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;
- h) ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlik ta'minlandi;
- i) yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatiladi.

O'quv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti haqidagi tushunchani, bu davrda ijod etgan adiblarning ijodi haqidagi tushunchalarni berish bu asarlarning ozarbayjon, qardosh hamda jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissalarini xususida so'z yuritish, bugungi o'zbek adabiyotshunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bog'lash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlariga to'xtalish kabi ma'lumotlar beriladi.

2. Talabalarning diqqatini qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning o'ziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida Usmonli turk mumtoz adabiyotining o'mini ko'rsata olishi va bugungi o'zbek adabiyotida ta'sirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bo'lishlari muhimligi uqitiriladi.

Ma'ruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Ta'lim texnologiyasini qo'llash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni o'zlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;
Xulosa va uyga vazifa	- 5 minut.

Dars mazmuni: 55 minut. Dars "BBB" jadval bilan ishlash asosida boshlanadi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.XX asr turk adabiyoti haqida qisman ma'lumotga egaman. 2. XX asrda ijod etgan adiblar haqida qisman ma'lumotga egaman	1. XX asr turk adabiyoti haqida to'liq ma'lumot olish 2. XX asr turk ijodkorlari bilan tanishish. 3. Ular yaratgan asarlar mazmuni haqida ma'lumot 4. turk adabiyotida janrlar rivoji. 5.Bugungi turk adabiyoti haqida ma'lumot	

Yangi turk she'riyati. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida turk ziyolilari G'arb ilm-fani va texnikasini o'rganishga kirishdi. Shu bilan birga fransuz madaniy hayotini, ayniqsa, fransuz inqilobini tayyorlagan ma'rifatparvarlar ijodidan saboq ola boshladi. G'arb bilan diplomatik aloqalar kuchaydi. Harbiy maktablar ochilishi natijasida maorifda ham o'zgarishlar yuz berdi. G'arb mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlarida ko'plab turk talabalari o'qishdi. G'arb ziyolilarining Turkiyaga ko'plab tashrif buyurishi, fransuz tilining keng yoyilishi mamlakat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, G'arb teatr va musiqa san'atining Turkiyaga kirib kelishi, hatto buning hukumat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishi katta ijtimoiy-madaniy hodisa edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Tanzimat farmoni (1839-yil 3-noyabr) amal qila boshlandi. Bunga ko'ra ijtimoiy hayotda haqiqat, adolat, qonun, tenglik, ozodlik kabi shiorlar, tushunchalar ko'tarilib chiqildi. Adabiyot ham Tanzimat harakatining ruhiga mos mavzularni yoritib boshladi. Shuning uchun bu davr adabiyoti «Tanzimat adabiyoti» deb yuritilib, uning asosiy maqsadi xalq ongida burilish yasash, uni ziyo va ma'rifat bilan qurollantirish edi. Bu adabiyotning Shinosiy,

Ziyo Posha, Nomiq Kamol singari vakillarining asarlarida siyosiy va ijtimoiy voqealar yetakchi g'oya ekanligining sababi ana shunda edi.

Asrlar davomida dunyoga ko'ngil ko'zi bilan qaragan turk she'ri endi aql va tafakkur yo'liga o'tayotgan edi. Eski «devon she'riyati» qanchalik go'zal tashbehlar bilan bezalmasin, u hozirgi davrning talablariga to'liq javob berolmasdi. Nomiq Kamol o'zining «Bahori donish» nomli asarining so'z boshisida shunday fikrlarni bildirgan edi:

«Devonlarda bag'ri dog'li lolalardan, yoqasi yirtiq gullardan, falakka o'xshash nilufarlardan, qilchalik bellardan, ilon kabi sochlardan, sarv daraxtiday (baxaybat) bo'ylardan, o'q kabi kipriklardan, xanjar kabi g'amzalardan, daryo-daryo qonli yoshlardan, dunyoni yoqar darajadagi otashli ohlardan, ustiga paxta yopishgan jirkanch yaralardan, sehrboz qalamlardan, botmon-botmon sharob ichuvchi sarxushlardan, jinnixonalardan qochganda ko'chalarda kezib, baqirib ko'kragiga urib yuruvchi oshiqlardan, bir dilbarning sochiga taroq bo'lgan parcha-parcha ko'nggillardan voz kechilmaydi».

Albatta, eski turk she'riyatini bu tarzda mubolag'ali kinoya bilan baholash o'zlarining yozgan she'rlarini xalqqa yaxshi ko'rsatish uchun qilingan harakat edi.

«Tanzimat adabiyoti» ning Rashonzoda Ekrem, Abdulhaq Xomit singari vakillari adabiyotni haqiqiy san'at bilan yaqinlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Ular adabiyotning birinchi vazifasi go'zallikni ko'rsatishdir, deb ta'kidlab, tabiatni bitmas-tuganmas she'r manbai, deb bildi.

Nomiq Kamolning «Bahori donish», Ziyo Poshoning «Harobot», Adulhaq Homitning «Maqbar», «Akram», «Zamzama» Nojining «Otashpora» asarlari mashhur bo'ldi. «Sarvati Funun» jurnali atrofida bir adabiy to'garak tashkil etildi. Tovfiq Fikrat, Ahmad Ehson, Xolid Ziyo kabi taniqli adiblar ana shu jurnalda yozuvchi sifatida shakllandilar.

Tovfiq Fikratning «Xasta Cho'juq» manzumasi katta baxslarga sabab bo'ldi. She'rda ajal changalida qovurilayotgan kasal bola va uning onasining ruhiyatlari berilgan. Bu she'r g'arb adabiyoti an'analari ruhida yozilgan edi. Shundan keyin jurnal simbolizm, dekadentchilik, dadaizm singari oqimlar haqida maqolalar e'lon qildi. Janob Shaxobiddin nomli shoir birinchi bo'lib sonetlar yozib, ularda qandaydir xayoliy sevgini emas, balki chin insoniy ishqni kuyladi. Bu esa turk she'riyatida katta yangilik edi.

«Tanzimat adabiyoti» deb nom olgan davr Turkiyada 1839-yildan 1870-yillargacha davom etgan. Turk xalqining bu adabiyoti asosan ma'rifatparvarlik adabiyoti edi. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar xotin-qizlar ozodligi, antiklerikal muammolar bu adabiyotning asosiy mavzularidan edi. Bu davrda Yevropa adabiyotining bir qancha namunalari Jan Jak Russo, Volter, La Martin, Molyerning asarlari turk tiliga tarjima qilindi. Bu davr turk adabiyoti publitsistika, dramaturgiya, badiiy nasrning shakllanish davrini o'z boshidan kechirdi. Turk ma'rifatparvarlik adabiyotining yirik vakillaridan biri sifatida Ibrohim Shinosni ko'rsatish mumkin. U

fransuz adabiyotining yirik bilimdonlaridan biri sifatida fransuz adabiyotining ko'pgina namunalarini turk tiliga tarjima qilgan. Ayniqsa, uning «Shoirning uylanishi» nomli komediyasi juda mashhur bo'ldi. Bu davrda yashagan Nomiq Kamol esa ko'pgina vatanparvarlik va ijtimoiy-maishiy temalardagi p'esalarning avtori sifatida mashhur bo'ldi. Uning romanlari esa turk adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanishiga va shakllanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Bu davrda turk folklori asarlarini to'plab, ularni nashr etishga ham katta e'tibor berildi.

Shamsiddin Somi ham bu davrda yirik dramaturg sifatida, talantli yozuvchi Axed Midxat esa, turk adabiyotida novella janrining asoschisi sifatida tanildilar. U G'arbiy Yevropa adabiyotidagi novella janrining go'zal namunalarini tarjima qildi va ularning ilg'or an'analarini o'z ijodida qo'lladi. Bu yozuvchilar XIX asrning o'rtalariga kelib yangi turk adabiy tilining shakllanishiga katta hissalarini qo'shdi. Natijada, turk adabiy tili asta-sekinlik bilan arab va fors tillaridan olingan ko'plab atama va iboralardan tozalanib, oddiy xalq so'zlashadigan tilga yaqinlashib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib turk poeziyasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Abdulhaq Homid, Redjonzoda Ekrem singari novator shoirlar yetishib chiqdi. Bular poeziyasida yangi ritmlar va shakllar, lirik qahramonning yangi tiplari paydo bo'ldi, inson ichki kechinmalari tasviri poeziyaning asosiy ob'ekti bo'lib qoldi.

XIX asrning 70-80-yillarida ijtimoiy hayot og'irlasha bordi. Adabiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi senzura kuchaydi, ko'pgina ijodkorlar hibsga olindi. Nomiq Kamolga o'xshash yozuvchilar surgunda vafot etdi. Natijada, ko'pgina shoirlar ijodida tushkunlik, umidsizlik ko'zga tashlana boshladi. O'sha davrda Turkiyada nashr qilingan adabiy-badiiy jurnal «Servati Funun»ning atrofiga ko'pgina turk yozuvchilari to'plandilar. Tovfiq Fikrat ana shulardan biri edi. Bu yozuvchilar o'z asarlarida oddiy, mehnatkash xalqning dard-u g'amlarini tasvirladi. Ular mavjud tuzumga e'tiroz bildirib, asarlar yoza boshladi. Xalil Ziyo Ushoklagil esa, turk adabiyoti tarixida birinchi realistik, Yevropa adabiyotidagi novellalarga o'xshash hikoyalar yaratdi. Husayn Rahim Gyurpelar, Mehmed Rauf singari ijodkorlar o'z asarlarida yangi mavzularga murojaat qilib, o'zlari yashayotgan ijtimoiy tuzumning illatlarini fosh qildi.

1908-yildagi «Yosh turklar» inqilobidan keyin adabiyotda turli oqimlar paydo bo'ldi, bularning o'rtasida mafkuraviy kurash davom etdi. Ana shu kurashlarda turk adabiyotida realistik metod g'olib chiqdi. Bu davrda, ayniqsa, hikoyalar juda ko'p yozildi. Rofiq Xalid Qaray, Aka Gyunduz, Umar Sayfiddin singari ijodkorlar o'z asarlarida qishloq kishilarining hayotini yoritishga kirishdi. Ayniqsa, Umar Sayfiddinning bu mavzuga bag'ishlab yozgan satirik novellalari keyingi turk realistik prozasining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, Umar Sayfiddin, Xolida Edem Adivar singari ijodkorlar turk dunyosining ozodligi va ularni birlashtirish masalalarini ham o'z asarlarida ko'tarib chiqdi. Adivarning «Yangi Turon» romanida aynan shu masala aks ettirilgan.

XX asr boshlarida turk poeziyasiga Yevropa simvolistlarining ta'siri katta bo'ldi. Bu davr turk poeziyasida milliy o'zini anglash mavzusida ko'plab asarlar yaratildi. Yahyo Kamol Bayotli, Ahmed Hoshim, Ahmed Hofiz Chamlibel singari shoirlar she'riyatda yangi g'oyalar, yangi she'riy shakllarda bayon etildi. Poeziyada barmoq vazni asosan yetakchilik qildi. Shoir Mehmed Emin Yurdakulning she'rlari, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiga juda yaqin edi.

XX asrda Turkiya o'z boshidan juda katta tarixiy voqealarni kechirdi. Ikki jahon urushida ham faol ishtirok etgan Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy ahvolidan tub o'zgarishlar bo'ldi. Qadimdan davom etib kelgan Usmon imperiyasi XX asr boshlariga kelib barham topdi. Birinchi jahon urushidan keyin Turkiya imperialistik davlatlar tomonidan mustamlakaga aylantirildi. Taraqqiyparvar kuchlardan bo'lgan Kamol Otaturk boshchiligidagi bir guruh ofitserlar Turkiya ozodligi uchun kurash boshladi. Ularni Turk xalqi qo'llab quvvatladi. Natijada, ular Turk Xalq Respublikasini bunyod etdi. O'lkada yangi davr boshlandi. Ana shu tarixiy voqealar bu davr turk adabiyotining asosiy tasvirlash ob'ekti bo'lib xizmat qildi. Turkiya tuprog'ini bosqinchilardan ozod etish, erk va demokratiya uchun kurashni aks ettirgan asarlar ko'paydi. Ayniqsa, 1923-yilda Turkiya Respublikasi deb e'lon qilingach, adabiyotda milliy ozodlik mavzuida asarlar yozish yanada kuchaydi.

Adivarning «Qonli ko'ylak» romani va milliy ozodlik haqida yozgan hikoyalari, Qora Osmon o'g'lining «Sadom va Gammaro», «Begona», Rashid Nuri Guntekinning «Ko'm-ko'k tun», «Bir oqshom fojeasi» kabi romanlari 20-yillar turk adabiyotining eng ko'zga ko'ringan asarlari bo'ldi. Bu asarlarda asosan yakka qahramonlar sarguzashtlari hikoya qilingan. Ular Turk xalqi birligi uchun kurashdilar, ma'rifatparvarlik va madaniy inqilobni amalga oshirsa, qishloqda yashovchi turk aholisining ham ahvolini tubdan o'zgartirish mumkin, deb hisoblادilar. Boshqa bir guruh turk yozuvchilari esa ijtimoiy hayotdagi turli illatlarni, jumladan, amaldorlarning oddiy xalqqa o'tkazayotgan zulmini, ishsizlik sabablarini, jamiyatda avj olib borayotgan poraxo'rlik va tovlamachilik kabi illatlarni ayovsiz tanqid qiladi. Demokratik yozuvchilardan Sabaxittin Ali, Sadri Ertem, Suad Darvesh, Said Foik kabilar turk adabiyotida tanqidiy realizmning rivojlashishiga katta hissa qo'shdilar.

30-yillar turk adabiyotida qishloq xo'jalik mavzusi yetakchilik qildi. Badiiy adabiyotda dehqonlar hayoti, ularning orzu-istaklari turli tipik obrazlarda aks ettirildi. Sadri Ertemning «Charx to'xtagan payt» romanida oddiy turk mehnatkashlarining og'ir hayoti, ularning o'z haq-huquqlari uchun kurashi tasvirlangan. 30-yillarda turk adabiyotida xotin-qizlar ozodligi mavzusi ham ko'proq tilga olinib boshlandi. Shu bilan birga turk ishchilar sinfi va ziyolilarning jamiyatdagi o'rni haqida ham ko'plab asarlar yozildi. Bu davrda, ayniqsa, turk hikoyachiligining (novella) taraqqiyoti ko'zga yaqqol tashlandi. Ayniqsa, talantli yozuvchi Sabohattin Ali bu davrda sermahsul ijod qildi.

O'RXON VELI KANIK (1915-1950) Istambulda tug'iladi. Istanbul universiteti adabiyot fakultetining falsafa bo'limini tugatdi. Davlat muassasalarida ishlaydi. 1943-46-yillarda jahon adabiyoti klassiklaridan tarjimalar nashr ettirdi. Publisistikaga katta e'tibor qaratdi. Natijada 1949-yili "Yaproq" nomli adabiy jurnalini chiqara boshlaydi. Jurnalning 28 sonigina chiqadi. Biroq bu jurnal O'rxon Veli vafotidan so'ng nashr etilishi to'xtatiladi. Do'stlari "So'nggi yaproq" nomi bilan jurnalning maxsus nomerini nashr ettirishdi. O'rxon Veli o'z asarlarida ko'proq ijtimoiy hayotni tasvir etishga intildi. O'rxon Veli Melix Jovdat Onday hamda O'ktoy Rifat bilan hamkorlikda 1941-yilda "G'aroyib" to'plamini yaratishdi. Bu to'plamda uch adibning she'riyati o'rin egallagan bo'lib unda turk qashshoq hayoti to'liq tasvirlanadi. Bu poetik hamkorlik keyinchalik "Uch oyoq" nomi bilan shuhrat qozondi.

O'rxon Veli "Teshikli she'r"i to'rt misradan iborat bo'lib unda och-yalang'och, bir burda nonga zor turk ishchisining, dehqonining ichki dunyosini, taqdirini ifodalab beradi. Shoir ko'pgina she'rlarida umumiylikdan konkretlikka ko'chadi, ya'ni fikrini detallar, yoxud obrazliliklar yig'indisi orqali aniq bir predmet, shaxs orqali obraz yaratadi va ijtimoiy bir g'oyani ilgari suradi. Shoirning "Montyor Sabri" nomli ixchamgina she'ri yorqin misol bo'la oladi. Bu she'rdagi lirik qahramon Nozim Hikmatning "Inson manzaralari" epopeyasidagi usta G'olib obrazini eslatadi. Usta G'olib bolaligidan to umrining oxirigacha "ishsiz qolmasam", "o'lsam ustumda kafanim bo'ladimi" deb o'ylasa, Montyor Sabri esa hamisha qo'lida bir burda non bilan tez uyiga borishga, och-yalang'och bolalarini ko'rishga shoshiladi. O'rxon Velining lirik yo yumoristik she'rlaridami, satirik she'rlaridami, qay birini olib ko'rmang, oddiygina bir gap, lirik qahramonning bir lahzalik holati orqasida, kinoya orqasida, piching orqasida, hayotiy bir voqea, achchiq bir haqiqat yotadi.

MELIX JAVDAT ONDAY. 1915-yilda Chanoqqala shahariga tutash tumanida tug'ilgan. Anqara universitetining huquq fakultetini tamomlagan. "Oqshom" gazetasi redaksiyasida mas'ul kotib bo'lib ishlaydi. "G'aroyib"dan keying kitoblari quyidagi-

lardir: "Rohatini yo'qotgan daraxt" (1946), "Telegrafxona" (1952), "Yonma-yon" (1956) va boshqalar.

FOZIL HYUSNYU DOG'LARJA. 1914-yilda tug'ilgan. Harbiy maktabni tamomlagan. O'n besh yil armiyada xizmat qildi. 1960-yilgacha Mehnat Ministrligida inspektor bo'lib ishladi. 1960-yilda kitob do'koni ochib umrining oxirigacha kitob savdosi bilan shug'ullandi. 1960-1964-yillarda "Turkcha" nomli oylik jurnalini nash etdi. Fozil Hyusnyu Dog'larjaning quyidagi kitoblari nashr etilgan: "Havoga chizilgan dunyo" (1935), "Bola va Oллоh" (1940), "Ona tuproq" (1950), "Tosh davri" (1955), "Uch shahidlar dostoni" (1956), "G'arb g'azabi" (1958), "Sivaslik chumoli" (1960), "Ozodlik maydoni" (1960), "Turk bo'lmoq" (1963), "Ketdik" (1968) va bosh.

1967-yilda shoirlar forumi F.H.Dog'larjani Turkiyaning eng yaxshi shoiri deb atadi. 1974-yilda Yugoslaviyaning Struga shahrida o'tgan yillik poeziya festivalida Dog'larja oltin gulchambarga sazovor bo'ldi.

RIFAT ILGAZ. 1911-yilda Jidada tug'iladi. Anqara pedagogika institutining fiologiya bo'limini tamomladi. Muallimlik qildi. 1948-yildan boshlab matbuot sohasida ishlay boshlaydi.

"Do'stlik" nomli birinchi to'plami 1943-yilda bosilib chiqdi. Keying kitoblari quyidagilardir: "Sinf" (1944), "Yashayapmiz" (1947), "Davomi" (1953), "Uskudarda tong otdi" (1954), "Harsillab" (1962), "U kun uzoq emas" (1978) va bosh.

R.Ilgaz shuningdek satirik hikoyalar, p'esalar va romanlar ham yozgan.

NEVZAT USTYUN. 1924-yilda Istambulda tug'ilgan. 1946-48-yillarda Sorbonoda o'qidi. Armiyada xizmat qildi. Istambulning turli gazetalarida ishladi. Uning she'riy kitoblari quyidagilardir: "Hayot" (1946), "Yashayotgan davrimizga doir she'rlar" (1951), "Mittilar bozori" (1955), "Yo'qolganlar eshigi" (1960), "Quyosh o'lkasi" (1964), "Hoy sen, amerikalik" (1967), "Ko'prik boshi" (1968) va bosh.

Nevzat Ustyunning bir qator prozaik va publitsistik asarlari ham bor.

60-70-yillar turk poeziyasi taraqqiyotiga Fozil Dog'laradja, Behget Netjatgil, Rifat Ilgiz, Ziyosmon Sabo, Badri Rahmi Ayb o'g'li kabilar katta hissa qo'shdi. Talantli yozuvchi Ilhon Berk Turkiyada modern adabiyotning yirik vakili edi. Ayniqsa, bu davrda O'rxon Veli, Melix Shavkat O'nday kabi shoirlar turk adabiyotida yangi bir oqimga asos soldi. Yangi davr adabiyoti yangi poetik shakllarni taqozo etardi. Shuning uchun bu ijodkorlar zamonaviy G'arb adabiyotining an'alariga murojaat qilib, modern she'riyat shakllarini o'z ijodlarida qo'lladi. Bu turk she'riyatida yangilik edi. Qisqa va ixchamgina she'rlarda katta ijtimoiy voqealar haqida fikr yuritiladi. O'rxon Veli «Adabiyot xalq ommasining fikri, orzu-umidi bo'lmog'ini istardim. Yangi adabiyot keng xalq ommasiga murojaat qilmog'i darkor. Chunki, dunyoda hali ko'pchilik och, yalang'och, qashshoq. Shunday ekan, yangi adabiyot xalq adabiyoti bo'lib, xalqning hayotini, ular oldidagi muhim masalalarni ifoda qilsin», degan edi. O'rxon Veli, Melix O'nday va O'qtoy Rifatlar birgalikda 1941-yilda adabiy manifest va uch shoirming

she'rlaridan tashkil topgan «G'aroyib» nomli kitobni nashr ettirdi. Bu poetik hamkorlik keyinchalik «Uch ayoq» nomi bilan shuhrat qazondi. Ular turk she'riyatining an'anaviy uslublarini rad qilib, kundalik hayot muammolariga, oddiy kishilarning ro'xiyati tasviriga ko'proq e'tiborni qaratmoqdalar. Bu shoirlar turk xalq og'zaki ijodidan, oddiy xalqning so'zlashuv tilidan unumli foydalandilar. Haqiqatan ham, bu davr turk she'riyatining taniqli vakillari Fozil Hyusnyu Dog'larja, O'qtoy Rifat, Nevzat Ustyun, Rifat Ilgaz kabi shoirlar ijodida ijtimoiy voqealik falsafiy mushohada qilingan holatlar ko'p uchraydi. Bu asarlarda oddiy turk mehnatkashining og'ir hayoti, ochlik, qoshshoqlik, ishsizlik kabilarning ular xayotiga doimo xavf solib turgani haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hajmli she'rlarda ironiya orqali siyosiy tuzumdagi illatlar qoralanadi. Masalan, Shavkat Onday she'rlarida hajviy ohang, piching, kesatiq kuchli sezilib turadi. Uning «Serdaromad uy» nomli she'rida turli tovlamachiliklar orqali oddiy odamlarning hisobiga boyib ketayotgan kimsalarning kirdikorlari qattiq fosh qilingan.

Kecha ikki qavat edi

Bugun uch qavat

Ertaga to'rt qavat

Indin besh qavat

Sanoqsiz daromad

Sanoqsiz qavat

O'smoqda janoblar o'smoqda

Yuksalmoqda bizning mamlakat

She'rdagi so'zlarning takrorlanib kelishi, undagi yashiringan fikrni yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun xizmat qilmoqda.

30-yillar turk poeziyasining yetakchi shoirlaridan biri Nozim Hikmat bo'ldi. U turk she'riyatining uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan an'anasini buzib, o'ziga xos yangi yo'ldan bordi. Shoir turk poeziyasida birinchi bo'lib erkin vaznda ijod qila boshladi. Bu vaznda qofiya va hijolar o'lchamiga ko'p ham e'tibor bermasdan, asosiy maqsad fikrni aniq, hammaga tushunarli qilib berish kerak. She'rdagi intonatsiya asosiy o'rinni egallash lozim. N. Hikmat shu sohadagi faoliyati bilan turk she'riyatida yangi yo'nalishga asos soldi. U novator shoir sifatida adabiyot tarixida qoldi. Uning an'analari faqat turk adabiyotiga emas, balki butun turkiy tildagi xalqlar adabiyotiga ham samarali ta'sir qildi. Shu jumladan, ko'plab o'zbek shoirlari ham N. Hikmatni o'z ustozlari deb biladilar. Shoirning «Inson manzaralari» nomli she'riy to'plami talantli shoir Rauf Parfi tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.


Milliy ozodlik harakati aks ettirilgan asarlardan biri sifatida Nozim Hikmatning «Ozodlik kurashi haqida doston» asarini ko'rsatish mumkin. Bu asar turmada yozilgan bo'lib, unda turk xalqining erki va ozodligi uchun kurashayotgan kishilar obrazi yoritilgan. Ma'lumki, Nozim Hikmat (1902-1963) dunyoga mashhur shoir va jamoat arbobidir. U o'z xalqining erk va ozodligi uchun kurash olib bordi. Shu bois umrining

17 yilini qamoqxonalarda o'tkazdi, o'z vatanidan uzoqda, musofirlikda yashadi. N.Hikmat turk adabiyotida katta o'zgarishlar yasagan shoir. Uning sarbast va erkin vazndagi she'rlari XX asr o'zbek she'riyatining yuksalishiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi. N.Hikmatning «65 lar», «Inson manzaralari» she'riy asarlari, «Surur» romani, «Bir sevgi afsonasi», «Turkiya haqida hikoya», «Unutilgan odam», «Domakl qilichi» singari dramatik asarlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Nozim Hikmatning she'riyati asosan sarbast vaznda bo'lib, u ko'pgina shoirlarga ijodiy maktab vazifasini o'tadi. Bu she'riyat haqida shoirning vatandoshi Sadri Ertem shunday deydi: «Uning misralari erkinlikdan boshqa qonunlarni bilmaydilar. Uning she'rlaridagi harflargina emas, hatto har bir nuqta ham elektr qo'ng'irog'i tugmasidek ovoz chiqaradi. Til sohasida esa N.Hikmat hech kim qilolmagan ishni qildi. U poeziya tilini demokratlashtirish shiorini olg'a surgan shoirdir. N.Hikmat – yangilikning mujassam timsoli demakdir».

Ijtimoiy hayotda demokratiya uchun kurashning faollashuvi dramaturgiya janrining rivojlanishiga ham ta'sir qildi. 60-yillardan boshlab Altan Chetin, Rafik Erdo'ran, Aziz Nesin kabi yozuvchilarning bir qancha p'esalari e'lon qilindi. Ayniqsa, Xoldun Tunarning «Shobon vatan himoyachisi», «Keshanlik Ali haqida qissa» kabi dramalari katta shuhrat qozondi. Bu asarlarda G'arb va Sharq adabiyoti an'analari uyg'unlashib ketgan edi.

Haqiqatdan ham, shoirning ijodidagi yangiliklar keyinchalik ko'pgina ijodkorlarga ilg'or an'anaga aylandi. Bu an'ananing nafaqat turkiy xalqlar adabiyotiga, balki rus she'riyatiga ham ta'siri katta bo'lganini adabiyotshunos olimlar ta'kidlamoqda. Nozim Hikmatning milliy ozodlik haqidagi ijodi an'analarni talantli turk shoirlari Kamol Tohir, Salim Xo'jag'iyoz singarilar davom ettirdilar.

Du davrlarda she'riyat bilan bir qatorda nasr ham rivojlandi. Nasrda quyidagi ijodkorlarning asarlarini kuzatish mumkin bo'ladi.



Atigi 36 yil umr ko'rgan **UMAR SAYFIDDIN** ham XX asr turk adabiyotining faxri bo'lib hisoblanadi. Uning 136 hikoyadan tashkil topgan to'plami hozir ham turk

o'quvchilarining eng sevimli kitobi bo'lib qolgan. Umar Sayfiddin adabiyotning ijtimoiy vazifasi haqida shunday degan edi: "Adabiyotga faqat san'at deb qarashlariga men mutlaqo qarshiman. Yozuvchining burchi inson qalbida yovuzlikka qarshi nafrat tuyg'usini o'yg'otish, uni har xil pastkashliklardan asrashdir".

SABAXITTIN ALI. 1906-yilda Bolgariyada tug'ilgan. Otasi turk zobitlaridan bo'lgan. Yoshligida yaxshi bilim oldi. Istambul va Berlin kabi shaharlarda o'qidi. U Germaniyada o'qigan paytda gitlerchilar hokimiyatni qo'lga kiritish uchun intilayotgan edi. Sabaxittin Ali turk millatini haqorat qilgan bir nemis ofiserini kaltaklagani uchun Germaniyadan chiqarib yuboriladi. Keyin u Turkiyaning ko'p joylarida o'qituvchilik qildi, gazeta redaksiyalarida ishladi. Yozuvchi mashhur satirik Aziz Nesin bilan birgalikda ijodiy hamkorlik qilib, «Marko Posh» nomli satirik gazeta chiqardi. Bu gazetada mavjud siyosiy tuzumning illatlarini fosh qilib, qator maqolalar chiqardi. Natijada, gazeta hukumat ma'murlari tomonidan yopib qo'yildi. Sabaxittin Ali turk ma'murlarini tanqid qilib yozgan asarlari uchun bir necha marta qamoqxonalarda ham o'tirib chiqdi. Uni 1948-yili o'rmonda o'ldirib ketishdi. Yozuvchidan ko'plab ajoyib hikoyalar, qissa va romanlar, dramatik asarlar meros bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush davrida turk poeziyasida milliy shovinistik ruhdagi she'rlar ko'paya boshladi. Chunki Turkiya dastlab fashistlar Germaniyasi bilan ittifoq bo'lib, boshqa davlatlarga qarshi urush olib bordi. Shuning uchun turk adabiyotida ham milliy shovinistik xarakterdagi asarlar yetakchilik qildi. 1944-yil Turkiya fashistlar Germaniyasi bilan aloqani uzib, unga qarshi kurashayotgan davlatlar tarafiga o'tdi. Keyin Turk adabiyotida antifashist yozuvchilar paydo bo'ldi. Sabaxittin Ali xuddi shunday antifashist yozuvchilardan biri edi. Uning «Ichimizdagi iblis» nomli romanida fashistlarning oliy irq haqidagi g'oyalari qattiq tanqid qilingan. Ma'lumki, bunday g'oyalar Turkiyada ham keng tarqalgan edi. Ular Gitlerning oliy irq haqidagi g'oyalarini Turkiyaga ham tadbiq qilmoqchi bo'ldilar. Turk millatini boshqa millatlardan yuqori qo'yib, kuchli jamiyat qurish uchun kurash olib bordilar. Sabaxittin Alining «Ichimizdagi iblis» romani mana shu voqealar haqida hikoya qiladi. Asarda ikki turk oilasining faoliyati tasvirlangan: biri Istambul shahrida yashovchi Emina xola oilasi bo'lsa, ikkinchisi qishloqda yashovchi bir turk oilasi edi. Yozuvchi bu ikki oila faoliyati orqali butun turk xalqining bu davrdagi hayotini, ruhiy dunyosini ko'rsatib berdi. Sabaxittin Ali bu kitobdan tashqari «Tog'lar shamoli» nomli she'riy to'plamini, uchta hikoyalar to'plamini («Tegirmon», «Arava», «Tovush») «Kuyujalik Yusuf» kabi romanlarini ham yozgan. Urush davri turk poeziyasida ham antifashistik g'oyalar aks ettirilgan she'rlar ko'p yozilgan bo'lib, ular to hozirgi davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Rashod Nuri Guntekin. XX asr turk adabiyotining yirik namoyondasi Guntekin o'z asarlari bilan faqat Turkiyadagina emas, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham mashhurdir. U 25- noyabr 1889-yilda Istambul shahrida harbiy vrach oilasida



tug'ilgan. Istambul universitetining adabiyot fakultetini tugatib (1912-yil), chet ellarda o'qishini davom ettirdi. Maktablarda o'qituvchi va xalq maorif nozirligida nazoratchi vazifalarida ishladi (1913-1931-yillar fransuz tilidan dars bergan). 1938-yili Turkiya

Buyuk millat majlisiga deputat qilib saylangan (1938-1943 yillar), umrining so'nggi yillarida Turkiyaning YuNESKOdagi vakili lavozimida faoliyat ko'rsatgan 1956-yilda Londonda vafot etadi.

Rashod Nuri Guntekin adabiyotga 1917-yilda "Eski qadrdon" povesti bilan kirib keldi. Shundan so'ng uning "Razvalin guli" (1918), "Choliqushi" (1922), "Haqiqiy qahramon" (1918), "Xanjar" (1918), "Tosh parchasi" (1926), "Yashil kecha" (1928) va boshqa asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Guntekinning 24 jildidan iborat kulliyoti bosilib chiqqan. Yozuvchining 19 ta romani, ko'plab pyesalari va hikoyalari mavjud. Rashod Nurining «Tamg'a», «Choliqushi» «Xazonrezi», «Yashil kecha» romanlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adibning «Hiylai shar'iy», «Halola» singari dramatik asarlari ham o'zbek kitobxonlarga tanish. Guntekin asarlari betakrorligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining «Yashil kecha», «Tegirmon», «Tamg'a», «Xozonrezgi» asrlarida turk mehnatkashlarining og'ir turmushi, ayollarning ijtimoiy tengsizligi o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Bu asarlarda jamiyatning olg'a ketishiga to'siq bo'lgan turli illatlar fosh qilingan. «Xudoning mehmoni», «Xanjar», «Hiylai Shar'iy» kabi asarlarida esa, dinni niqob qilib olib, o'z manfaatini ko'zlaydigan munofiq ruhoniylar tanqid qilingan. Adibning «Labdan yurakka», «Oqshom quyoshi», «Ayol kushandasi», «Achinish», «Tog'olcha butalari», «Osmon», «Eski kasallik» kabi romanlari ham mashhur. Ayniqsa, uning «Choliqushi» romani juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Romanda ziyoli oiladan chiqqan Farida ismli qizning qismatini tasvirlash asosiy sujet chizig'i qilib olingan. Ana shu obraz tasviri o'zi yashagan ijtimoiy tuzumning turli holatlari bilan bog'lab beriladi. Natijada, roman voqealari bizni Turkiyaning Birinchi Jahon urushi va undan keyingi davrlardagi tarixining badiiy tasviri bilan bevosita tanishtiradi. Erk va ozodlikka intilayotgan turk ayolining turli illatlarga, jaholatga qarshi kurashi nihoyatda zo'r mahorat bilan berilgan. Asarda Nizomiddin, Fotima, Xusayn, Kamron, Xayrullobiy singari obrazlar ishtirok etadi. Bularning har biri o'ziga xos ijtimoiy xarakterlarga ega bo'lgan tipik obrazlardir.

Rashod Nuri Guntegin jahon adabiyoti durdonalaridan J.J.Russo, M.Servantes, E.Zolya, A.Kamyu kabi adiblarning asarlarini turk tiliga tarjima qiladi. Adabiyotshunoslik sohasida ham tadqiqotlar olib borib "Lev Tolstoyning hayoti va ijodi" asarini yaratadi. Xullas, ushbu asar yozuvchi ijodidagi eng sara asarlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, Aziz Nesin faqat Sharq adabiyotida emas, balki butun dunyo adabiyotidagi noyob iste'dod egalaridan biridir. Uning asarlari juda ko'p chet tillariga

tarjima qilingan. O'zbek tiliga ham yozuvchining «Musht ketdi», «Hushtak afandi», «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» kabi kitoblari va bir qancha hikoyalari tarjima qilingan. Yozuvchining asli ismi Mahmud Nusrat bo'lib, Aziz Nesin uning taxallusidir. U turk adabiyotiga, ayniqsa, uning hajviyasining yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

AZIZ NESIN. 1915-yil Istanbul yaqinidagi qishloqda tug'ilgan. Otasi kambag'al dehqon bo'lgani uchun, unga yaxshi bilim beradigan maktablarda o'qitilmadi. U harbiy maktabga kirib, ofitser bo'lib yetishadi. Lekin bu soha uni qiziqitmas edi. U adabiyotga havas qo'ydi, dastlab she'rlar yoza boshladi, keyinroq fel'eton va turli mavzularda hikoyalar bilan gazetalarga chiqib turdi. Yozuvchi «Tong», «Vatan», «Oqshom» kabi gazetalarda ishladi. Mashhur yozuvchi Sabaxittin Ali bilan «Marko Posh» haftaligini chiqardi. Lekin bu nashrda amaldorlar tanqid qilingani uchun hukumat tomonidan katta jarima solinib, yopib qo'yildi. Aziz Nesin, ayniqsa, hajviy hikoyalari bilan katta shuhrat qozondi. Bolalar dunyoqarashiga xos samimiy ruhda yozilgan «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» kabi asarlari butun dunyoga mashhur bo'ldi. Yozuvchining «Demokratiya shunqori» hajviy hikoyasida bevosita turk davlat tuzumi, uning senzurasini qattiq tanqid qilingan. Asarda bir yosh muxbir turli yolg'onlarni yozdi. Eshak qo'zi tug'di, ayollar qurbaqa tug'di, osmondan baliq yog'di kabi xabarlar bilan dong taratdi. Lekin bir kuni u xalq dardini, ya'ni rost gapni yozgani uchun, politsiya uni qamab qo'ydi.

«Dahshatli tush» hikoyasida yozuvchi tushida xorijdagi bir anjumanga tushib qoladi. Undan mamlakat haqida so'raydi. U haqiqatni aytgisi keladi, ammo qo'rqadi. Keyin u qip-qizil yolg'onni gapiradi. Soxta, sun'iy gaplar bilan yurtini to'q, obod, erkin qilib ko'rsatadi. Chunki bu jamiyatda haqiqatni aytasangiz, sizni jinoyatchi sifatida qamaydi. Yaxshisi yolg'onchi bo'lish kerak, yolg'on uchun jazo yo'q. Yaxshi yolg'on gapirsang, mukofot ham beradi. «Xotin kishi bo'lganimda», «Keyin xursand bo'lasiz», «Ming marta shukur» kabi xajviyalari ham katta mahorat bilan yozilgan.

Hozirgi turk adabiyotining dong'ini dunyoga taratayotgan Mustafo Sepitchi, Emine sevgi Izdamar, Sevinch Chokum, Mustafo Qutlu, Hakim ug'li Ismoil, Urxon Pamuk, Kurshat Bashir kabilarni ko'rsatish mumkin.

FERIT ORHAN PAMUK. 1952-yil 7-iyunda

Istanbulda boy xonadonda tug'iladi. Uning otasi injener bo'lib ishlaydi. U Istanbuldagi Amerika kollejida (Robert Colleje) o'qiydi. Kollejni tugatgach oilaning qistovi bilan texnika universitetida o'qishini davom ettiradi. Biroq uch yildan so'ng u mohir yozuvchi bo'lib yetishish uchun universitetdagi o'qishini tashlaydi. 1977-yilda Istanbul universiteti qoshidagi Jurnalistika institutini tugatadi. 1985-1988-yillar Amerika Qo'shma Shtatlarida yashaydi. Bu davrda



Orhan Pamuk Kolumbiya universitetida dars beradi (Nyu-york shahri). 1982-yilda oila quradi. 2001-yilda esa qurgan oilasini tark etadi. 2007-yilgacha Istambulda yashaydi. Adib, Grant Dink vahshiyona o'ldirilganidan so'ng Amerikaga ko'chib ketadi. 22 yoshidan boshlab asarlar yoza boshlaydi. Uning birinchi romani "Javdatbey va uning o'g'illari" 1979-yilda Milliy prez mukofotiga sazovor bo'ladi. Asar kitob holida 1982-yilda nashr etiladi. Ushbu asar 1983-yilda Orxan Kemal nomli mukofotga ham loyiq ko'riladi.



1983-yilda "Sassiz uy" romanini yaratadi. 1985-yilda esa uning "Oq qal'a" asari nashr etiladi. Ushbu asar uni jahonga tanitadi. "New York Times" oz sahifalarida Orhan Pamuk ijodi haqida so'zlab: "Sharqda yangi yulduz chiqdi. Bu Orhan Pamuk"dir deya e'tirof etadi. Uning "Qora kitob" asari 1992-yilda Turkiyada bahs munozaraga sabab bo'ladi. "Qora kitob" asosida turk rejessori Omen Kavur kino olishga muvaffaq bo'ladi. 1994-yilda "Yangi hayot" asarini yozadi.

1998-yil dekabr oyida Orhan Pamuk "Xalq yozuvchisi" unvonidan voz kechadi. Bu shu davr siyosatiga qarshi isyon edi. Uning "Mening nomim qirmizi" asari 1998-yilda Amerikada nashr etiladi. Ushbu romani uchun adib jahon dublen mukofoti — IMPAKka sazovor bo'ladi. Bu mukofot 100 ming evro bo'lib jahondagi eng katta mukofot sanaladi. 1999-yilda "Boshqa ranglar" asrini yaratadi.

2002-yilda esa "Qor", 2003 yilda "Istambul — xotiralar shahri" asarlarini yaratadi. 2008-yilda esa "Ma'sumlik muzeyi" asari dunyo yuzini ko'radi. 2005-yil fevral oyida Shvetsariyaning "Das magazin"da bergan intervyusida Tursiyaning kurdarga qarshi siyosatini qoralaydi. Unda Tursiyada istiqomat qilgan mingdan ortiq kurd va arman xalqini qirib tashlaganligi haqida so'z yuritadi. Bu haqda hech kim gapira olmayotganligini ta'kidlaydi. Turk siyosatiga qarshi borgani va uni qattiq ayblagani uchun Orhan Pamuk o'z yurtida xalq dushmaniga aylanadi. Orhan Pamuk esa bu intervyudan keyin Turkiyada qola olmaydi va uni tark etadi. Turkiya Orhan Pamukka qarshi da'vo ochadi. U yana Turkiyaga qaytishga majbur bo'ladi. Yozuvchi Turkiyaning 301 moddasi bilan ayblanadi. 1 dekabr 2005-yilda "Jahon amnistiya" idorasi adibni ozod qilishni talab qiladi. 13-dekabr kuni esa jahonning sakkiz buyuk yozuvchilari — Joze Saramago, Gabriel Garsiya Markes, Gyunter Grass, Umberto Eko, Karlos Fuentes, Xuan Goytisolo, Djon Apdayk va Mario Vargas Losalar sud jarayonida adibni ozod

qilishini talab qiladilar. 2011-yil mart oyida Shishli tumanidagi (Istambul) su yozuvchiga 6 ming lir jarima soladi va ish yakunlanadi.

Orxan Pamuk asarlari (uch asari) Nobel mukofotiga loyiq ko'riladi va 2006-yild usbu mukofotni qo'lga kiritadi. U bugunga qadar ettita roman yaratgan. Bu asarlar 4 dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Hozirda Orhan Pamuk "Pezajning bir qismi" asar ustida ish olib bormoqda.

ELCHIN SAFARLI. Elchin Safarli 12 mart 1984-yilda Boku shahrida tug'iladi. 12 yoshdan boshlab Elchin Safarli taxallusi ostida gazeta va jurnallarda chiqishlar qila boshladi. Uning asarlari maktab partasi ustida yaratilgan asarlar sifatida tan olindi. 16 yoshida SMI nashriyotida ishlay boshlaydi. Ozarbayjonning Yunesko qoshida tashki qilingan Jahon universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi. U Ozarbayjon va Turkiya aloqlarini yo'lga qo'yish maqsadida hozirga telejurnalistika sohasida ishla-moqda. Uning quyidagi asarlari nashr etilgan:



Xullas, hozirgi turk adabiyoti ezgulik uchun xizmat qilmoqda. Bu adabiyot turli badiiy janrlarda va rang-barang mavzularda yuksalib bormoqda.

Darsni mustahkamlash:

TESTLAR

1. *Usmonli turk adabiyotida dramaturgiya rivoji nechanchi yildan boshlanadi?*

a) 1950 yildan; b) 1960 yildan; s) 1965 yildan; d) 1970 yildan.

2. *"Qor" romani kimning qalamiga mansub?*

a) Ziya Osmon; b) rashod Nuri Guntekin; s) Elchin Safarli; d) Orhan Pamuk.

3. *"Tosh parchasi" asari kimning qalamiga mansub?*

a) Ziya Osmon; b) Rashod Nuri Guntekin; s) Elchin Safarli; d) Orhan Pamuk.

4. *Orhan Pamuk 1977 yilda qaysi universitetni tugatadi?*

a) Istanbul universiteti; b) Nyu-york universiteti; s) Oksford universiteti; d) to'g'ri javob yo'q.

Mustaqil ish:

1. Ziyonet.uz internet tarmog'idan turk adabiyoti tarixini o'rganish
2. R.N.Guntekinning "Choliqushi" asarini o'qish.
3. A.Nesinning "G'aroyib bolalar" asari haqida mulohaza yuritish.
4. Orhan Pamukning "Istanbul – xotiralar shahri" asarini o'qish.

ADABIYOTLAR

1. Алкаева Л. Бабаев А. Турецкая литература. Краткий очерк. – Москва, 1969.
2. Turk dili. Dil va edebiyot dergisi 1. Sayi (Nisan 1996).
3. Mahmed Emin Yurdaqul. Ey, turk o'yg'on. //Jahon adabiyoti.
4. Н.Ҳикмат. Шеърлар ва поэма. – Тошкент, 1982.
5. Р.Н.Гунтекин. Чолиқуши. – Тошкент, 2001.
6. Азиз Несин. Фаройиб болалар. Роман ва ҳикоялар. -Тошкент, 1988.
7. Турк халқининг буюк фарзанди Отатурк. Тарихий биографик очерк. – Тошкент, 1998.
12. Беғамнинг ўлими. – Тошкент, 2010
13. Бир сандиқ тилла. – Тошкент, 2010
14. Азиз Несин. Ҳар каллада ҳар ҳаёл. – Тошкент, 2010
15. Турк ҳикоялари. – Тошкент, 1958
16. Ҳозирги замон турк шеърляти. – Тошкент, 1980.

Mavzu: TATAR ADABIYOTI TARIXI

Reja:

1. *Tatar xalq og`zaki ijodi.*
2. *Yozma adabiyotning shakllanishi.*
3. *Tatar adabiyotida realistik tendensiyalar.*
4. *Hozirgi zamon tatar adabiyoti.*

Tayanch so`z va iboralar: *Shoir G`ali, «Yusuf va Zulayho», arab va fors adabiyoti ta`siri, XIX asr totar adabiyoti, roman, drama, novellalarning paydo bo`lishi, Abdulla To`qay, Hodi To`qtash, Muso Jalil.*

Darsning maqsadi: mavzu haqida talabaga ma`lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta`sir etish, milliy istiqlol g`oyasi asosida tarbiyalash va Turk xalqlarining asarlari hamda ularning ahamiyati, o`rganilish tarixi, jahon adabiyotidagi o`rni haqida ma`lumot berish va h.k.

Mashg`ulotni muammoli ma`ruza ekanligi haqida ma`lumot berish.

Mashg`ulot vazifasi:

a) *ta`limiy* – “Turkiy xalqlar adabiyoti” fanidan “Tatar adabiyoti tarixi” mavzusiga oid asosiy ma`lumotlar va materiallarni qabul qilish;

b) *tarbiyaviy* – talaba sifatida o`z-o`zini hurmat qilish, o`z faoliyatini boshqara bilish, ishontirish, o`z xulqi atvori ustidan nazorat qilish, faol mustaqil ishlar, mustaqil ishlashni o`zlashtirish, javobgarlikni his qilish, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik, yakka tartibda va guruhlarda ishlashni, o`z o`rtog`ini hurmat qilishni, kelishuvchanlik, bir to`xtamga kelish, diqqatni jamlash.

c) *rivojlantiruvchi* – darslik, o`quv qo`llanma va asarlar bilan ishlash, tahlil qilish, mulohazani bera bilish, tanqidiy fikrlash, oddiylkdan murakkablikka o`tish, umumlashtirish, nazariy mantiqiy va amaliy fikrlash, ijodiy yondashish, internet tarmoqlaridan foydalanish.

*O`qitish texnologiyasi:* o`qitish usullari: mavzuni axborot shaklida yetkazish, ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” usuli

*O`qitish shakli:* frontal so`rov, umumiy sinov

*O`qitish vositasi:* ma`ruza matni, slaydlar, proektor, jadval, xarita, adiblarning nashrdan chiqqan asarlari

Bilimni nazorat qilish va baholash: og`zaki nazorat, lahzalik so`rov

Pedagogik vazifa:

- mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirish;

- o`quv predmeti tuzilishiga qarab, shu mavzu bo`yicha yaratilgan darslik, o`quv qo`llanmalarni sharhlash, asarlarni tahlil qilish;

- mavzuning mohiyatini reja asosida tushuntirish va uning fanda tutgan o'miga izoh berish;

- mavzuning amaliy ahamiyatini izohlash;

- mavzuning istiqboldagi rivoji, jamiyat rivojida o'miga e'tiborini qaratish

Ma'ruzaning samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim shartlar bajariladi:

Didaktik talablar

d) ma'ruzaning batafsil rejasi tuziladi;

e) ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish)lar beriladi.

f) mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlar ma'lum qilinadi;

g) rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi;

h) ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi;

i) yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, asarlar haqidagi ma'lumotlar slaydlar orqali ko'rsatiladi.

O'quv faoliyatining natijalari:

1. Mavzuning vazifasi haqida tushuncha hosil qilish. Bunda talabalar diqqatini hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti haqidagi tushunchani, bu davrda ijod etgan adiblarning ijodi haqidagi tushunchalarni berish bu asarlarning ozarbayjon, qardosh hamda jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissalarini xususida so'z yuritish, bugungi o'zbek adabiyotshunosligi hamda jahon adabiyotshunosligi bilan bog'lash, ularning turk xalqlari orasidagi variantlariga hamda farqli jihatlariga to'xtalish kabi ma'lumotlar beriladi.

2. Talabalarning diqqatini qadimgi turk adabiy yodgorliklarining o'rganilishi va bugungi kundagi ahamiyatiga qaratib, asarlarning o'ziga xosliklarni, bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini, asarlarning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Talabalar mazkur mavzu yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlari. Bu borada talabaga jahon adabiyotida usmonli turk mumtoz adabiyotining o'mini ko'rsata olishi va bugungi o'zbek adabiyotida ta'sirini anglashga va bu asarlarining ahamiyati va uning mohiyati borasida chuqur tushunchaga ega bolishlari muhimligi uqtiriladi.

Ma'ruzaning xronologik xaritasi:

Tashkiliy qism	- 3 minut;
Yangi mavzuni yoritish	- 55 minut;
Ta'lim texnologiyasini qo'llash	- 7 minut;
Mustaqil topshiriqlarni bajarish	- 5 minut;
Mavzuni o'zlashtirish va uni mustahkamlash	- 5 minut;
I Xulosa va uvea vazifa	- 5 minut.


Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.XX asr tatar adabiyoti haqida qisman ma'lumotga egaman.	1. XX asr tatar adabiyoti haqida to'liq ma'lumot olish	
2. XX asrda ijod etgan adiblar haqida qisman ma'lumotga egaman	2. XX asr tatar ijodkorlari bilan tanishish.	
	3. Ular yaratgan asarlar mazmuni haqida ma'lumot	
	4. tatar adabiyotida janrlar rivoji.	
	5.Bugungi tatar adabiyoti haqida ma'lumot	



Tatarlar qadimgi boy madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri sanaladi. Qozon tatarlarining yozma adabiyoti IX asrlarda shakllangan. Bu yozma adabiyotning ilk namunalari xalq og'zaki ijodidagi ayrim dostonlarning yozib olinishi bilan boshlangan. Shulardan biri G'ali nomli shoimning «Yusuf va Zulayho» dostonidir. Bu diniy-falsafiy qissa bo'lib, o'zbek adabiyotidagi «Yusuf va Zulayho» bilan hamohangdir. Keyinchalik Mahmud Bulg'oriyning «Nahj-ul-

farodis» va Muxammaddiyorning «To'hfayi mardon», «Nuri Sodur» kitoblari yozildi. Bu asarlar fors va arab adabiyoti ta'sirida yozilgan edi. Sharq adabiyotining ta'siri XIX asrgacha bo'lgan ijodkorlarda davom etdi.

Tatar xalqi tarixi dashti qipchoq va Volga bo'yida bo'lib o'tgan juda ko'plab tarixiy voqyealar bilan bog'liq. Bu xalq tarixda ikki sivilizasiyaning tutashgan joyida yashab keldi. Shuning uchun tatarlar madaniyati tarixi ham o'ziga xos xususiyatlarga



ega. Tatar madaniyatining rivojlanishiga rus xalqi madaniyatining roli katta bo'ldi. Shu bilan birga, rus madaniyati rivojiga ham tatar xalqining roli beqiyosdir. Oltin O'rda xoni To'xtamishxon Amir Temurdan yengilgach, Rus davlati kuchayib ketdi. U o'z territoriyalarini janubga va sharqqa qarab kengaytira boshladi.

Tatar xalq og'zaki ijodi rang-barang bo'lib, unda ertak janri

ham o'rin egallagan. Tatar xalq og'zaki ijodida "Podshoh oltinchechning xotini haqida ertak", "Gulnozik", "Tan botir", "Dutan botir", "Oltin qush", "Oq bo'ri" singari ertaklarni uchratish mumkin. Bu ertaklar hozirda qayta ishlanib kitobxonlarga taqdim etilgan.

Tatar xalq og'zaki ijodida bir qancha janrlar o'rin egallagan bo'lib shulardan biri maqol sanaladi. Tatar xalq og'zaki ijodida quyidagi maqollar bor: "Bir kun tilingni tiymasang, bir yil uning azobini chekasan.// Avval eshagingni bog'la, so'ng Allohga topshir.// Qurol, xotin va itingni qarzga berma.// Ertangi tovuqdan bugungi tuxum afzal.// O'lim ikki marta kelmaydi.// Sening suhbating — kumush, sukutining — oltin.// Olmosni iflos joyga tashlasang ham olmosligicha qoladi.// Olmos olmos bilan kesiladi, o'g'rini o'g'ri tunaydi.// Tutundan qochib, olovga tutilma.// Soqol echkida ham bor, mo'ylov mushukda ham bor. // Shamolsiz yaproq qimirlamaydi.// Farzandsizlik — azob, serfarzandlik ham — azob.// Kamchiliksiz to'y bo'lmaydi.// Asalari chaqmasidan asal yeyolmaysan.// Mehnat qilmay quyonni tutolmaysan.// Uzoqning bug'doyidan



yaqinning somoni yaxshi.// Bosh omon bo'lsa, qalpoq topiladi.// Paqir bo'lsa qopqoq ham topiladi.// O'rmonga o'tin olib bormaydilar.// Ko'rshapalak kunduzi ko'rmasa, Quyosh aybdor emas.// Odam tarbiya qilsa ham bo'ri bo'riligicha qoladi.// Qarg'a qarg'aning ko'zini o'ymaydi.// Kesilgan nonni qayta yopishtirib bo'lmaganidek, aytilgan so'zni ham ortga qaytarib bo'lmaydi.// Cho'pon ko'p bo'lsa qo'y harom o'ladi.// Egri o'tirsang ham to'g'ri gapir.// Bir tugunga ikki tarvuz sig'maydi.// Yomonga kecha ham kunduz ham qorong'i.// Bitta kichkina buzoq butun podani yomon otliq qilishi mumkin.// Yaxshilikka yaxshilikni hamma qaytaradi, yomonlikka yaxshilik esa — mardning ishi.// G'ozni kutib o'rdakdan qolma.// Ikki bekalik uy iflosdir" Ularda xalq donishmandligi o'z ifodasini topgan.

1552-yilda Ivan Grozniy Qozonni bosib oldi, ikki yil o'tgach, Astraxan ham ruslar tomonidan bosib olindi. Ana shundan boshlab Tatar madaniyati tarixida tanazzul davri boshlandi. Oradan 250 yil o'tgach, ya'ni 1780-yilda rus imperatori Yekaterina II tatarlarga ma'lum darajada demokratiya — erkinlik berdi. Tatar tilida o'qish, islom diniga erkinlik, mahalliy tilda maktab va madrasalar ochish kabilarga ijozat berildi. Tatarlarning Turkiston bilan yana aloqasi tiklana boshladi. Juda ko'plab tatar yoshlari Buxoroga kelib diniy madrasalarda tahsil olib ketardi.

Ana shunday shoirlardan biri Abduraxim O'tiz Emaniy (1754-1834) tatar she'riyatida o'ziga xos burilish yasagan. U o'z ijodida xalq turmushi haqida, ijtimoiy hayotdagi turli voqealar haqida ko'plab asarlar yozdi. U Buxoro shahrida o'n yil yashagan. Ana shu davr haqida «Dar bayoni sarguzasht» nomli doston yozgan. Bu

dostonda XVIII asr oxiridagi Buxoro, Farg'ona, Afg'oniston, Xorazm kabi joylardagi ijtimoiy muhit, xalqning turmushi, urf-odatlar haqida ko'plab ma'lumotlar bergan. O'tiz Emani «Yusuf va Zulayxo» nomli Sharqda mashhur bo'lgan dostonni tatar tiliga tarjima qilib, uning ba'zi joylarini tatar urf-odatlariga moslab ishlab chiqdi.

Tatar ma'rifatparvar shoirlaridan biri Abulmalik Pisboviy Qarg'ali (1782-1826) ham Buxoroda tahsil olgan. U Buxoroning mashhur mudarrisi Niyozquli Turkmaniy qo'lidan saboq oldi. Juda ko'plab tatar ziyolilari ana shu mudarris qo'lida tarbiyalangan. Qarg'ali Buxoroning Turkiyadagi elchisi Muhammad Yusufga kotib bo'lib ancha vaqt ishlagan. Ana shu davrda u bir qancha Yaqin Sharq mamlakatlariga sayohatlar uyushtirgan. Shu sayohatlar ta'suroti asosida «Tashakkur», «Sahroda» kabi asarlar yozildi. Keyinchalik XIX asr boshlaridagi Tatar adabiyotining yaxshi namunalaridan bo'lgan «Tarjimai Hoji Abulmalik» kitobi maydonga keldi.

Shu davrda yashagan ma'rifatparvarlardan biri Shaxobiddin Marjoniy edi. Taniqli tatar yozuvchisi Olimjon Ibrohimov Marjoniyni «Bizning tongimizning cho'lponidir» degan edi. U Qozon shahriga yaqin Yabinchi degan qishloqda madrasa o'qituvchisining oilasida tug'ilgan. 1838-yilda otasining madrasasini tugatib, Buxoroga ilm olishga jo'naydi. Buxoro va Samarqand shaharlarida o'n bir yil tahsil oldi. Qozonga qaytgach, bu davrdagi hayoti va ta'surotlari haqida ko'plab kitoblar yozgan. Olti tomlik «Vafiyat ul-aslof»... kitobida Olti mingdan ko'proq tarixiy shaxslar haqida ma'lumot beradi. Bularning ichida juda ko'plab bizning vatandoshlarimiz haqida ham batafsil axborot berilgan. Masalan, 1843-yilda Marjoniy Samarqandga kelib, o'sha davrning eng mashhur olimi Abu Said Samarqandiy bilan uchrashgani, undan ancha vaqt saboq olgani haqida atroflicha yozib qoldirgan. Marjoniy ma'rifatparvar tatar ziyolilarining mashhur vakillaridan biri edi. Uning tashabbusi bilan 1876-yilda Qozonda «Rus-tatar o'qituvchilar maktabi» ochildi. Keyinchalik bu maktabdan tatar xalqining buyuk farzandlari yetishib chiqdi.

1800-yil Peterburgdagi «Aziatskaya tipografiya» Qozonga ko'chirib keltirildi. Ana shu tipografiyada Sharq qo'lyozmalarini to'plab nashr etish boshlandi. Keyinchalik bu yerda bosilgan kitoblar butun Sharqqa tarqaldi. Shu yerda «Qissai Sayfulmuluk», «Qissai Rabg'uziy», «Boburnoma», Ahmad Yassaviy va So'fi Olloyorning kitoblari XIX asrning boshlaridayoq nashr etilgan edi. Bu asarlarning ko'pchiligi Turkistonda o'z o'quvchilarini topar edi.

Tatar mumtoz adabiyotida ko'pincha poeziya ustunlik qildi. Movla Qomiy, Imoniy, Qandoliy, Oqmulla kabi shoirlarning she'rlari muhabbat mavzusida edi. XVIII asr tatar adabiyotida «Sayohatnoma»lar yozish rivojlandi. Ana shunday asarlardan biri Ismoil Og'aning «Hindiston va Arabistonga sayohat» nomli asaridir. Bunda shoir hind va arab mamlakatlaridan olgan ta'surotlarini she'riy yo'lda sodda va ta'sirli qilib aks ettirgan. Tatarlarning Rossiyaga yaqinligi, ularning adabiyotida ham o'z aksini topdi. XIX asrning boshlaridayoq ko'pgina rus yozuvchilarining asarlarini tatar tiliga tarjima

qilingan. 1804 -yilida Qozon Universitetining tashkil etilishi tatar xalqi madaniyatida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida tatar adabiyotida demokratik yo'nalishdagi adabiyot paydo bo'ldi. Bu demokratik adabiyotning yirik vakili Qayum Nosiriy edi. Bu davrda proza va dramaturgiyada ham ko'plab asarlar yaratildi. Q.Nosiriyning novellalari, Z.Begiyevning «Go'zal Xadicha» romani, G.Ilyosiyning «Baxtsiz» nomli p'esarlari vujudga keldi. Tatar adabiyotida bu davrda jadidchilikning ham kuchli ta'siri seziladi, erk va ozodlik haqida ko'plab asarlar yozila boshladi.



Abdulla To'qay tatar adabiyotining yirik vakili edi. Uning demokratik ruhdagi isyonkor asarlarida tatar xalqining ozodligi va mustaqilligi kuylangan edi. Shoir xalq ozod bo'lishi uchun dastlab savodli va ma'rifatli bo'lishi kerak dedi. Abdulla To'qay (1886-1913) tatar realistik adabiyotining asoschisi va atoqli shoiri, yirik olimi sifatida mashhurdir. U Qozon guberniyasida tug'ilgan. Ota-onasidan yoshligida yetim qolgan. Uralsk shahridagi madrasada o'qidi. Rus tilini yaxshi

o'rganib oldi. A.S.Pushkin va I.A.Krilov asarlarini o'qib, ularni tatar tiliga tarjima qildi. Shoir «Ozodlik haqida», «Tekinxo'rlarga», «Davlat duması» kabi dastlabki she'rlarida ijtimoiy hayotdagi turli illatlarni tanqid qildi. Masalan, «Tekinxo'rlar» nomli she'rida u jamiyatdagi ishlamasdan tishlaydigan toifadagi kimsalarni fosh qildi. Bu she'r g'azal janrida yozilgan.

*Tekinxo'r, oqsuyak zotlar, qorin solgan kasofatlar,
Dema, to'ydim, ochofatlar, ajab hay-hay, ajab hay-hay,
Xalq o'lsa ham parvoyi yo'q, bo'lsa bordir qursog'i to'q,
Og'izlari kurdim quduq, nimang ki bor: «Day syuda, day-day!»*

Abdulla To'qayning «Sho'rali» va «Pichan bozori yoki yangi Kisek bash» nomli dostonlarida ham erk va istiqloq mavzuyi kuylangan. Bu dostonlarda dinni niqob qilib olgan, taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan ruhoniylar ustidan achchiq zaharxanda kulgu bor. U xotin-qizlar ozodligi haqida ham «Tatar qizlariga», «Tahqirlangan tatar qizlari», «Xalq orzusi» singari she'rlarini yozdi. Shoir 1911-12-yillarda Rossiyaning ko'p joylariga sayohat qildi. Ana shu sayohatlardan olgan taassurotlari natijasida «Mushukka nima kerak», «Zulm», «Kuz shamollari» kabi ajoyib isyonkor she'rlarni yozdi. U bor-yo'g'i 27 yil yashadi. Ana shu qisqa umrida yangi tatar adabiyotining asoschisi sifatida tarixda qoldi. Uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Tatar xalqining mashhur yozuvchisi Fotix Amirxon 1886-yili Qozon shahrida tug'ilgan. Eski musulmon maktabi va madrasalarda ta'lim oldi. Keyinchalik Moskva va Peterburg kabi shaharlarda o'qidi. Adibning ko'plab asarlari xalq orasida mashhur bo'lgan. «Arafa kechasi tushimda ko'rganlarim», «Tatar qizi», «Raqs kechasi»,

«Hayot», «Fatxulla Hazrat» kabi asarlar yozuvchining eng sara asarlari hisoblanadi. Adib 1926-yilda falaj kasali bilan ogʻrib vafot etadi.

F.Amirxonning «Fatxulla Hazrat» nomli asari oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Asar hajviy fantastik ruhda yozilgan. Ellik yil oldin oʻlib ketgan ruhoniylar Fatxulla Hazratni qayta tiriltirib, hozirgi taraqqiyot bilan yuzma-yuz qoʻyadi. Oʻta dindor boʻlgan F.Hazrat oʻz atrofida roʻy bergan moʻjizalarga xayrat bilan qaraydi. Lekin baribir yangilikka, fan texnika yutuqlariga qarshi boradi, ularni qabul qilmaydi. Hurofatga botgan Hazrat oʻgʻli Ahmadning aytganlarini ham qilmaydi.

Xullas, yozuvchi juda ustakorlik va mahorat bilan jaholat ustidan zaharxanda kuladi. F.Amirxon xurofotning jamiyat taraqqiyotiga dushman ekanini, rivojlanish uchun toʻsiq ekanini isbotlaydi.

Tatar va boshqird adabiyotining yirik vakili Majid Gʻofuriy ijodida grajdanlik lirikasi yuqori darajaga koʻtarildi. Uning «1907-yilning javobi», «Ozodlik uchun kurash» singari asarlari isyonkor asarlar sifatida mashhur boʻldi.

Dramaturgiya sohasida esa Gʻaliasqar Kamol asarlari eʼtiborga loyiqdir. Uning «Birinchii namoyish», «Bonkrot», «Shahrimizning sirlari» pyesalari Nikolay Vasilyevich Gogol dramaturgiyasi taʼsirida yozilgan boʻlib, ularda jamiyatning turli illatlari kulgi vositasida fosh qilingan.

G.Qulmuhammetovning «Ikki fikr», «Yosh umr» kabi dramalarida esa sinflar oʻrtasidagi mafkuraviy kurash tasvirlangan. Asar boshidagi turli tarixiy voqealar tatar adabiyotida ham oʻz aksini topdi. 1920-yilda Tatariston avtonom respublika deb eʼlon qilindi. 20-yillarda Q.Najmiy, Muso Jalil, Hodi Toqtosh, Ya.Karim singari talantli yozuvchilar tatar adabiyotining tarixiga katta hissa qoʻshdi. Oʻsha davrda boʻlib oʻtgan tarixiy voqealar haqida O.Ibrohimov «Qizil gullar», «Yangi odamlar», «Sahro qizi», «Teran tomirlar» kabi asarlarini yozdi.

Maʼlumki, O.Ibrohimov (1887-1938) ham yangi tatar adabiyotining rivojiga katta hissa qoʻshgan. U Ufadagi «Gʻoliya» madrasasida oʻqigan. Sharq va Gʻarb adabiyoti anʼanalarini yaxshi oʻzlashtirib oldi. U serqirra ijodkor edi. Adabiyotshunos, tarixchi, pedagog sifatida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Uning birinchi hikoyasi «Shokir Zakiyning madrasadan quvilishi» deb nomlanib, 1907-yilda eʼlon qilindi. Keyin u «Oʻgʻri mulla», «Qari batrak», «Tatar ayolining taqdiri» kabi hikoya va povestlar yozdi. 1912-yilda O.Ibrohimovning «Yosh yuraklar» romani bosilib chiqdi. 1914-yilda «Bizning kunlar», 1926-yilda «Teran tomirlar» romanlari yaratildi. «Choʻlpon» nomli gazetaga muharrirlik qilgan. Lekin uning koʻpgina qoʻlyozma asarlari yoʻqolgan. Oʻzbek tiliga «Teran tomirlar», «Qozoq qizi» nomli asarlari tarjima qilingan.

Tatar adabiyoti tarixida Hodi Toqtosh ijodi ham katta oʻrin egallaydi. U sotsialistik tuzumni qiyinchilik bilan qabul qilgan ijodkor deb baholangan. Haqiqatdan ham, H.Toqtosh shoʻrolarga qarshi sheʼrlar yozgan va turk millatlarining birlashuviga bagʻishlab asarlar bitdi. Uning «Asrlar va minutlar» nomli asari juda mashhur boʻlgan.

Shoir bir necha marta O'zbekistonga ham kelgan, o'zbek ijodkorlari bilan hamkorlik qilgan. «Muhabbat ul o'zi eski narsa, lekin har bir yurak uni yangidan kashf qiladi» degan mashhur hikmatli ibora ham H.Toqtoshga tegishli. Uning «Komil» nomli p'esasi ham ancha shuhrat qozongan.

30-yillarda tatar adabiyotida bir qancha asarlar yozildi. K.Najmiyning «Yorqin so'qmoq», O.Qutiyning «Jo'natilmagan xatlar», M.Amirning «Agidel» va «Bizning qishloq», Sh.Kamolning «Go'zallikning tug'ilishi», F.Karimning «Yettinchi pech» nomli roman va qissalari shu davrda yozildi.



MUSO JALIL

Ikkinchi jahon urushi yillarida tatar adbiyotida jangovar tema yetakchilik qildi. M.Jalil, Boyan, R.Ilyos, O.Qutiy singari ijodkorlar urushda vafot etdi. Ayniqsa, M.Jalilning tutqunlikda yozgan «Maobit daftari» nomli she'riy turkumi juda mashhur bo'ldi.

M.Jalil 1906-yil Orenburg guberniyasida tug'ilgan. U madrasada o'qidi, keyin MGUning filologiya fakultetini bitirdi. Gazeta va jumallarda ishladi, Yozuvchilar uyushmasida mas'ul kotib bo'ldi. Urushda qattiq yaralanib asirga tushgan. U 1944-yilda konslagerda qatl etiladi. Uning dastlabki she'rlari 1919-yildan chiqa boshlagan. Vatan, millat, do'stlik mavzulari shoir ijodida bosh mavzulardan edi. U asirlikda fashistlarga qarshi yashirin tashkilot tuzdi. Tutqunlikda yozgan she'rlari shved ofitseri tomonidan saqlab qolingan. Bu kitobdagi «Qilich», «Erk», «Kechir, yurtim», «Qotilga», «Ishonma» kabi she'rlari g'oyaviy-badiiy jihatdan juda yetuk asarlardir.

Senga mendan xabar bersalar,
U yiqilib o'ldi desalar,
Yo'q ishonma, jonim, bu gapni
Do'stlar aytmas, meni sevsalar.

M. Jalilning «Moabit daftari» asari ko'plab chet tillariga tarjima qilingan. Shoir haqida kam badiiy asarlar yaratilgan, u qahramonlik, jasorat timsoli bo'lib qolgan.

Tatar adiblari tomonidan yaratilgan eng yaxshi asarlardan G.Bashirovning «Nomus», I.G'oziyning «Unutilmas yillar», «Oddiy odamlar», Qavi Najmiyning «Bahor shabbadalari», A.Absalomovning «G'ozinur» romanlari, F.Husniyning «Qishloq ustida yulduzlar», S.Hakimning «Sahro qo'shig'i» kabi poemalari ko'plab chet tillariga tarjima qilingan.

Tatar adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Qavi Najmiy 1901-yilda Tataristonning Qizil Orol qishlog'ida tug'ilgan, eski maktabda o'qidi Mustaqil bilim olish uchun ko'p kitoblar o'qiganini ham ta'kidlab o'tadi.

Gazeta va jurnal redaksiyalarida ishladi. Adib o'z ijodini hikoyalar yozishdan boshlagan. Uning «Birinci bahor», «Qirg'oqdagi gulxanlar» kabi hikoyalari matbuotda e'lon qilingan birinchi asarlari edi. Qavi Najmiy 20-30-yillarda «Atakaga», «Farida», «Bahor qo'shig'i» kabi ajoyib poemalarini yaratdi. U o'z tarjimalari bilan tatar adabiyotini boyitgan adib hamdir.

Qavi Najmiyning «Bahor shabbadalari» romani tatar adabiyotining eng yaxshi asarlaridan sanaladi. Bu asarda tatar xalqining asrlar davomida o'z erk va ozodligi uchun olib borgan kurashi aks ettirilgan. Romanda Mustafo, Garay, Ravshana va Saima kabi oddiy kishilarning o'z haq-huquqlari va insoniy qadri uchun olib borgan kurashlari tarixiy voqealar fonida mahorat bilan aks ettirilgan. 1861-yili Rossiyada amalga oshirilgan reforma, uning oddiy dehqonlar ahvolini qay darajada o'zgartirgani haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan. Rossiya tarixidagi o'zgarishlar bevosita tatar xalqining taqdiri bilan bog'liq ekanligi ko'plab misollar bilan isbotlab berilgan. Pugachev qo'zg'oloni ishtirokchilaridan ko'pchiligi tatar millatiga mansub bo'lganligini ham biz bu asardan bilib olamiz. Asarda Tig'anali qishlog'idagi tatarlar hayoti tasvirlangan. Biz ana shu qishloq aholisi boshiga tushgan musibatlar orqali butun tatar xalqi boshidan kechirgan tarixiy voqealarni, ularning o'z ozodligi uchun olib borgan kurashlarini bilib olamiz. Asar 48 bobdan iborat bo'lib, tatar xalqining qariyb yuz yillik tarixini o'z ichiga qamrab olgan.

Keyingi yillarda Q.Najmiyning «Yoz yellari», Amirxon Yenikeyevning «Biz ham soldat bo'lganmiz», «Sevash», Gumer Bashirovning «Nafisa», Shamil Bikchurinning «Po'lat irodali odamlar», Shayx Makurning «Muso Jalil» kabi roman va povestlari yozildi.

Hozirgi davr tatar poeziyasida Hasan To'fon, Sibgat Hakim, Sojida Sulaymonova, Renat Xarisov, Ravil Fayzullin, Rahim Garay kabi talantli shoirlar ijod qilmoqda. Erkin she'r shaklida ko'proq asarlar yaratilmoqda.

Ayaz Gilyazovning «Yo'qolgan kun», Hay Vahitning «Birinci muhabbat», G'.Yuzeyevning «Qaldirg'ochlar uchib keldi» kabi dramalari keyingi yillar tatar adabiyotidagi eng yaxshi asarlar sifatida baholanmoqda.

Qisqasi, tatar adabiyoti katta madaniy merosga ega. U o'zbek adabiyoti bilan doimo aloqada bo'lib kelgan. Ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmida u yerda «Osiyo tipografiyasi» ochilgach, bu aloqa yanada kuchaydi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Hamza singari ijodkorlar Qozonda o'qigan.

Boshqird xalqi o'z yozuviga faqat XX asrdagina ega bo'ldi. Bu xalqning adabiyoti tarixi folklor asarlaridan iborat. Yozma adabiyotning shakllanishida «Sesenlar» deb ataluvchi boshqird xalq shoirlarining roli katta bo'lgan. Ular rang-barang janrlarda ijod etishgan. Bular orasida tarixiy qo'shiqlar, baytlar, ertak va rivoyatlar, dostonlar ko'pchilikni tashkil etadi. Boshqird adabiy tilining shakllanishi XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Lekin xalq baxshilari avvaldan adabiyotni rivojlantirib kelgan. XIX asrda

yashagan shoir Oqmulla ham tatar, ham boshqird tilida ijod qilgan. Ye.Pugachevning yaqin safdoshi Salovat Yulayev ham talantli shoir bo'lgan. XX asrgacha tatar tili boshqirdlarga adabiy til vazifasini o'tagan. Shuning uchun tatar tilidagi badiiy adabiyot boshqirdlar uchun ham adabiy meros hisoblanadi. Boshqird adabiyotining asoschisi Majid G'ofuriy, birinchi boshqird yozuvchilari S.Kudash, A.Tagirov, D.Yuliyar ham o'z asarlarini dastlab tatar tilida ijod qilganlar. Boshqird adabiyotining rivojiga ham katta hissa qo'shgan M.G'ofuriy «Qashshoqlikda kechgan umr», «Kambag'allar», «Bozorda» kabi asarlarini rus yozuvchilaridan, ayniqsa, A. Nekrasovdan o'rganib yozdi.

1919-yil Boshqirdiston Avtonom Respublika deb e'lon qilindi. Boshqird teatri tashkil etildi. H.Ibrohimov «Boshmog'im» nomli birinchi boshqird dramasi yozdi.

20-30-yillar boshqird adabiyotida poeziya yetakchilik qildi. Davr va uning yangiliklari haqida o'nlab she'riy to'plamlar va bir qancha dostonlar yaratildi. Shu bilan birga A.Tagirovning «Don fabrikasi», A.Karnayning «Sahrodagi chiroqlar», Nosiriyning «Sibay» povestlari yozildi. Bular birinchi boshqird proza asarlari edi. Keyinroq A.Tagirov «Soldatlar», Yuliy «Qon», Nosiriy «Hujum» kabi romanlarini yozdi.

Shunday qilib, boshqird yozma adabiyoti shakllandi. Bunga ma'rifatparvar yozuvchi M.G'ofuriyning hissasi katta bo'ldi.

M.G'ofuriy 1880-yilda Boshqirdistonda o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Yoshligida ota-onasidan yetim qolib, og'ir hayotni boshidan kechirdi. U sharq klassik poeziyasi va boshqird folklorini chuqur o'rgandi. Ulardan ijodiy foydalanib, o'zining dastlabki «Yosh umrim», «Millatga muhabbat» kabi she'riy to'plamlarni yozdi. Bu to'plamlardagi ayrim she'rlarda Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini tanqid qilishgan edi. Shuning uchun shoir chor ma'murlari tomonidan ta'qibga uchradi. Keyinchalik u «Faqirlikda o'tgan hayot», «Sibir temir yo'li» singari she'r va dostonlarida xalq ozodligini kuyladi. «Men va xalqim», «Yig'i», «Taqdir» kabi she'rlarida ham xalq istiqloli g'oyasi kuylandi. U 20-yillarda «Ishchi» nomli doston, «Turmush bosqichlari», «Tahqirlanganlar» kabi povestlarini yozdi.

Shoir «U kim» nomli she'rida imperialistik urushlarni tanqid qildi. Begunoh odamlarning o'lib ketayotganligiga sabab davlat boshliqlari deb bildi. Shuning uchun u soldatlarga murojaat qilib bir-birlaringizni o'ldirmanglar deydi. Xullas, M.G'ofuriy o'z ijodi bilan boshqird adabiyotining asoschisi bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillari boshqird adabiyotida publisistik jangovor poeziya taraqqiy etdi. S.Kudashning «Mening hamqishlog'im», M.Karimning «O'lmasboy» nomli dostonlari ham urush davrida yozildi. Bekboyning «Bir otaning bolalari», Muborakovning «Xotinjon», K.Mergenning «Urush» p'esalari ham shu davrda yaratildi. Urushdan keyingi davr boshqird adabiyotida turli janrlarda asarlar paydo bo'la boshladi. Bularga S.Kudashning «Bahorni qutlab», Gumerning «To'lqinlar ustidagi shahar» povestlarini, H.Davlatshinaning «Irg'iz» romanini ko'rsatish mumkin. Bu davrda

I. Abdushinning «Biz yana uchrashamiz» dramasi, «Bojalar» komediyasi, M. Karimning «Yakka qayin», «Qizning o'g'irlanishi», «Aytilmagan qo'shiq» p'esarlari ham yaratildi.

70-90-yillarda boshqird adabiyotida ko'plab prozaik asarlar yaratildi. Isangulovning «Boshqoq», Ya. Hammatovning «Oltin zarralab yig'iladi», A. Bikchentayevning «Senga jannat va'da qilolmayman» nomli romanlarida bugungi davrning muhim muammolari badiiy aks ettirilgan.

Anvar Bikchentayevning «Senga jannat va'da qilolmayman» nomli romanida juda dolzarb masala ko'tarilgan. Asarda yoshlarning mustaqil hayotga qadam tashlashi, u yo'ldagi mashaqqat va qiyinchiliklar Haydar, Valentin, Iskandar, Maya Vladimirovna, Oqbika kabi obrazlar misolida beriladi. Qishloq yoshlarining shaharga kelishi, ularning o'z yo'lini topib olishdagi murakkab hayot yo'li, sevgisi, ichki kechinmalari romanda juda qiziqarli va ishonarli tasvirlab berilgan. Ufa shahridagi «Ximzavod» ishchilari asaming asosiy qahramonlari.

Axyor Hakimning «Karvon» romani keyingi yillarda yozildi. Bu asarda tarix va bugungi zamonamiz parallel tarzda tasvirlangan. Stalin qatog'onidan kutilib chiqqan boshqird yigit Nurislom Boyturin Samarqandga kelib qoladi. Bu yerda u Boltaboy aka, Professor Qodirov singari haqiqiy insonlarni uchratadi. Ana shu olijanob insonlarning ko'magida, u sevgan kasbi arxeologiyani egallab olgan. Asarda tarixga murojaat qilish, Temur davri voqealarini tasvirlashga juda ko'p joy ajratilgan. Asar qahramoni Nurislom Bekturin mashhur arxeolog bo'lib yetishadi. U tarixni to'g'ri yoritishga bag'ishlab ko'plab ilmiy ishlarni amalga oshiradi.

Yozuvchining «Oqsoq bo'ri» qissasida esa ovga chiqqan bo'rining ustiga samolyotdan bombalar yog'ilishi, uning qo'ylar bilan birgalikda bu urush maydonidan qochishi, ikkita bolasidan ajralishi kabi voqealar hikoya qilingan. Asarda ekologiya masalasi ko'tarib chiqilgan. Tabiatni asrash, uning qonunlariga rioya qilish kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Urushning faqat inson uchun emas, umuman, tirik jonzotlar uchun juda katta xavf ekanligi aytilgan.

70-80-yillarda boshqird adabiyotida bir qancha talantli yozuvchilar ijod qilishdi. Ular orasida S. Kudashning ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. U dastlabki asarlarini tatar tilida yozdi. A. To'qay ijodiga ergashib asarlar yaratdi. Keyinchalik u o'z ona tilida ko'plab she'riy va nasriy asarlar ijod qildi. U «Baxt qonuni», «Uchrashuv», «Muhabbat va g'azab» dostonlari bilan zamonaviy boshqird poeziyasining taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U «Qo'sh qayin» nomli she'riy romanning ham muallifidir. Uning «Yozga peshvoz chiqqanda» nomli povesti tarixiy mavzuda yozilgan. Bu asarda A. To'qay, E. Ma'rufiy kabi tarixiy shaxslarning obrazlari keng yoritib berilgan. Uning «Xotirada qolgan minutlar», «Yoshlik izlari bo'ylab» singari avtobiografik asarlari ham bor.

Boshqird adabiyotining yirik namoyandalaridan biri talantli yozuvchi *Mustay Karim* bo'lib hisoblanadi. U 1919-yilda tug'ilgan. Uning ijodi urush arafasida boshlangan edi. Shoir zamon bilan hamnafas bo'lib she'rlar yozdi. Uning «Bahor

tovushlari», «Mening tulporim», «Qaytish», «Yevropa-Osiyo» kabi dastlabki she'riy to'plamlari juda mashhur bo'lgan edi. Keyinchalik «Oydin yo'l», «Tosh ustida gullar» kabi kitoblari uchun katta mukofotlarga sozavor bo'ldi. M.Karim boshqird adabiyotida dramaturgiya janrining taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Uning «To'y davom etadi», «Yolg'iz Qayin», «Aytilmagan qo'shiq», «Oy tutilgan tunda», «Oygul vatani» singari p'esalari boshqird adabiyotining go'zal namunalari bo'lib qolgan. Keyingi yillarda M.Karim «Olovni tashlama, Prometey» nomli dramatik doston yozib katta muvaffaqiyatga erishdi. Bunda shoir qadimgi grek afsonalaridagi Prometeyning jasoratini bugungi dunyomizga bog'lab ajoyib sujet yaratgan.

Mustay Karimning ko'plab asarlari chet tillarga tarjima qilingan. Uning «Oy tutilgan tunda» nomli dramatik asarining tarjimasi o'zbek tiliga shoira Zulfiya tomonidan amalga oshirilgan.

Bu asar uch pardadan iborat fojia bo'lib, unda o'n uchta qahramon ishtirok etadi. Asar voqealari Birinchi Jahon urushi davrida bo'lib o'tadi. Jamiyatda hukm surgan adolatsiz tuzum, odamlar ongini egallagan jaholat-u xurofatlar natijasida erk va ozodlikning bo'g'ilishi asar qahramonlarining qismatida ko'rsatib berilgan. Ikki yosh Oqyigit va Zubarjadning sevgisini yaramas, chirkin urf-odatlar zavol qiladi. Oqyigitning akasi urushda halok bo'ladi. Urf-odatga ko'ra uning bevasi Shafaqni Oqyigitga qaratadi. Sevgilisi Zubarjadni esa ukasi o'n bir yoshli Eshmirzaga unashtiradi. Bu ishlarning barchasi 3-4 ta qishloq oqsoqollarining bema'ni maslahatlari bilan amalga oshiriladi. Oila boshlig'i Tangabeka 50-52 yoshlardagi beva ayol. U vafot etgan erining vasiyatlarini bajarish uchun harakat qiladi. Lekin urf-odatlarga qarshi borolmaydi. Asarda o'z bolasining ko'zini o'yib, uyasidan chiqarib tashlagan ona burgut haqida rivoyat keltirilgan. Bu Tangabekaga ramziy ishoradir. U o'z farzandlari Oqyigit va Eshmirzaning qismati fojia bilan tugashiga ma'lum darajada aybdor.

Oqyigit tuydan keyin uch oy o'tsa-da, Shafaqning o'toviga kirmaydi. U yashirincha Zubarjad bilan uchrashib yuradi. O'sha yili qurg'oqchilik bo'lib, xalqning boshiga og'ir musibatlar tushadi. Qishloq odamlari buning sababini Oqyigit va Zubarjadga bog'laydi. Ularni buziqilar deb e'lon qilib, bo'rilari ko'p, biydek sahroga haydab yuboradi. Ana shu tunda oy tutiladi. Tabiatning bu hodisasini ham jaholatda qolgan olomon sevrishganlarga olib borib taqaydi. Muallif bu asarida XX asr boshlarida Boshqirdiston qishloqlarida hukm surgan yaramas urf-odatlar, inson huquqini toptagan turli illatlarni qalamga olib, ularni ayovsiz fosh qildi.

M.Karim «Olovni tashlama, Prometey» asarida qadimgi grek afsonalaridan foydalandi. Ma'lumki, Prometey haqida jahon adabiyoti tarixida ko'plab asarlar yozilgan. Esxilning «Zanjirband Prometey» asari bundan qariyb ikki yarim ming yil ilgari yozilgan. M.Karim o'zining ushbu asari haqida shunday fikrlarni aytgan edi:

«Olovni tashlama, Prometey!» garchand mifologik mazmunda qurilgan bo'lsa-da, uning zamiriga zaminda yashayotgan bugungi kun odamlariga murojaat singdirilgan.

Asar insonni ruhiy ko'rlik va qalban karlikning og'ir oqibatlaridan ogohlantiradi. Uni o'zining kelgusi baxti uchun mardona kurashga undaydi. Odamlarni yorug'lik nurlaridan bahramand qilgan Prometeyning fidoiyligi bu yo'lda unga mangu jasorat timsoli bo'lib qolgan».

Asarda Olimp tog'ida yig'ilgan Zevs boshchiligidagi xudolarning hayoti tasvirlanadi. Ular ham odamlar singari bir-birlari bilan adovat qiladilar, urushadilar, g'alabalarini nishonlab, bayram qiladilar. Odamlar xudolar hayotini xuddi o'zlarining hayotidek tasavvur qilganlar. Xudolar orasida Prometey insonlarga yaxshilik qilmoqchi bo'ladi. U insonlarga olovni keltirib beradi, dehqonchilik qilishni, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatishning sirlarini, kema yasab, suvda suzish kabilarni o'rgatadi. Bunga esa xudolar xudosi Zevsning achchig'i chiqadi. Agar bu qilmishlarini tashlamasa, umrbod azobga qo'yishni aytadi. Prometey umrbod azobga rozi bo'lib, insonga yaxshilik qilishdan qaytmasligini bildiradi.

Men alpman. Ha, ha men-xudoman,
Yerda o't yoqaman, qudratim cheksiz
Shu olov jismiga osmondagi
Ilohiy o't ruhin singdiraman-da,
Insonga beraman. Bu o't yog'dusi
Kingaki sochilsa, u-umrboqiy!

Prometey adolat xudosi Femidaning farzandi. Ona o'z o'g'lining boshiga katta musibatlar tushganini ko'rib, unga achinadi. Zevsdan uzr so'ra, balkim u kechirar, deydi. Chunki Zevs Prometeyni katta qoyaga zanjirband qilib, uning yuragini po'lat tumshuqli burgutga cho'qib, yulib yeyish uchun buyuradi. Burgut yurakni tilka-pora qiladi. Lekin o'sha joydan yangi yurak o'sib chiqadi. Burgut bu yurakni ham tilka-pora qiladi. Bu holat uzluksiz takrorlanaveradi. Prometey insonga yaxshilik qilish uchun ana shu azoblarga rozi bo'lgan. O'g'lining bu azoblariga chiday olmagan Femida unga:

O'tinchim bor, o'g'lim! Qilmishing uchun
Afv so'ra, Zevs kechiradi.
Agar yo'l qo'ymasa dilda g'ururing,
Men o'zim yiqilay oyoqlariga,
deb so'raganida Prometey shunday javob beradi:
Esingizni yig'ing, onajon!
Agar mazlum o'z zolimidan,
Agar qurbon o'z jallodidan
Afv so'rayversa, ushbu jahonda
Adolat bo'lg'usi qachon barqaror?
Xullas, insonga xizmat qilish ushbu asarning yetakchi g'oyasi bo'lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda boshqird adabiyoti bilan o'zbek adabiyoti o'rtasida aloqalar ko'chayib bormoqda. Ko'pgina asarlar tarjima qilinib, o'zbek kitobxonlariga yetkazilmoqda.

Qrim-tatar tilidagi adabiyot ham o'zining qadimgi boy an'alariga ega. Bu adabiyot umum-turk adabiyotining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qrim yarim orolida yashagan turkiy xalqlar madaniyati juda boy va o'ziga xos xususiyatga ega. Negaki, bu yer Sharq va G'arb sivilizatsiyalari to'qnashgan hududda joylashgan. Tarixda juda ko'p voqealarni boshidan kechirgan qrim-tatar xalqining og'zaki ijodida ko'plab qo'shiqlar, ertaklar va dostonlar mavjud. Bularning ko'pchiligi boshqa turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi asarlar bilan hamohang. Masalan, o'zbeklardagi «Zumrad va Qimmat» ertagining mazmuniga o'xshash qrim-tatar xalqining ham ertagi bor. Bunda o'gay onaning zulmidan ozor chekkan yetim qizchani qismati, uning mehnatsevarligi va rahmdilligi tufayli baxtga erishganligi haqida hikoya qilinadi. Ertakda Elmoz degan qiz, dadasi vafotidan so'ng o'gay ona va uning Esmasi ismli taniqli, erkato'y qizi bilan birga yasharkan. Oilaning og'ir yumushlarini Elmoz bajarar, lekin evaziga hech qachon rahmat eshitmasdi. Yillar o'tadi. Elmoz va Esmasi voyaga yetadilar. O'gay ona Elmozni yo'qotish payiga tushadi. O'tin terib kelish bahonasida u Elmozni o'rmonga olib borib adashtirib keladi.

Elmoz boshiga og'ir damlar tushadi. Shu paytda qayerdandir badbashara, sochlari to'zigan, juldur kiyimli, dahshatli ayol paydo bo'ladi. U Elmozning ahvolini bilgach, «Mening sochimni tarab qo'ymaysanmi, qizim?!», -deb so'raydi.

Elmoz: «Tarayman, buviyon tizzamga boshingizni qo'ying», -deb iltifot ko'rsatadi. Bu ayol – Tog' onasi edi. Tog' onasi iyib ketib, unga mehribonlik qiladi, o'zi bilan birga muhtasham saroyga boshlab boradi. Elmoz u yerda Shahzoda bilan tanishadi va bir-birini sevib qolishadi.

Shunday qilib, qirq kecha, qirq kunduz to'y-tomosha berib Shahzoda Elmozga uylanadi. Yetim qiz o'z baxtini topadi. Elmozning bu baxtini ko'rolmagan o'gay ona esa o'zining qizi Esmani ham o'rmonga olib boradi. Voqyea yana takrorlanadi, biroq ishyoqmas, taniqli qiz Esma tog' Onasining qahru g'azabiga duchor bo'ladi. Uning taqdiri fojiali tugaydi.

Ma'lumki, XIX asr rus adabiyotining mashhur vakillarining ko'pchiligi qrim-tatar xalqi folkloridan ijodiy foydalanib asarlar yozdi. Birgina Pushkinning «Boqchasaroy fontani», «Ruslan va Lyudmila», «Shoh sulton haqida ertak» kabi asarlari bunga misol bo'la oladi. Demak, qrim-tatar xalqi folklori juda boy bo'lib, u rus yozma adabiyotining rivojlanishiga ham hissa qo'shgan.

Qrim-tatarlarining qadimgi yozma adabiyoti XIV asrlarda shakllangan. Bu davr adabiyotida arab va fors tilidagi adabiyotning ta'siri seziladi. Ma'lumki, XIV-XV asrlarda Qrim Oltin O'rdaga qaragan. XV asrdan boshlab Qrim xonligi tashkil qilinadi. Qrim xonligi Turkiya bilan yaxshi qo'shnichilik siyosatini olib bordi. Bu xonlik davrida

adabiyot, madaniyat taraqqiyoti boshqa davrlarga nisbatan ancha tez va sifatli rivojlandi. Lekin Yekaterina II hukmronligi davrida Rossiya Qrimni qo'lga kiritish uchun turli diplomatik va boshqa usullardan foydalandi. Nihoyat, XIX asrda Qrim xonligi butunlay tugatilib, Rossiyaga qo'shib olindi.

Qrim-tatarlarining yozma adabiyotida ana shu tarixiy muhit o'z aksini topdi. XIV asrda Qrimda yashagan Abdulmajid nomli shoirning «Yusuf va Zulayxo» dostoni Qrim-tatar yozma adabiyotining ilk namunalaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlar Qrim-tatar adabiyotida G'ozi Garayning «Gul va Bulbul», Do'stmambet Ozovlining she'rlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Bu asarlar xalq og'zaki ijodi an'analari ruhida yozilganligi bilan ajralib turadi. XVII-XVIII asrlar qrim-tatarlari adabiyotda didaktik mavzu yetakchilik qilgan. Bu holat, ayniqsa, XVIII asrda yashagan shoir Oshiq Umar ijodida ko'zga yaqqol tashlanadi. Oshiq Umar (1621-1707) Yevpotoriya shahrida oddiy hunarmand oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Abdulla Kenja oddiy ko'nchi kosib bo'lib, shu hunari bilan oilani zo'rg'a tebratar edi. Umarni yoshligidan eski maktabga o'qishga beradi. U tirishqoq, zukko, zehni tez bola bo'lganligi uchun domlalari maslahati bilan otasi uni madrasada o'qitadi.



U arab va fors tillarini chuqur o'rgandi. Sharq adabiyoti durdonalari bilan yaqindan tanishdi. U tabiatan juda iste'dodli, tinib-tinchimas xarakterdagi inson bo'lgan, yoshligidanoq xalq kuylarini o'rganib qo'shiq aytgan. Keyinchalik o'zi ko'plab qo'shiqlar to'qib, ularni el-yurt orasida kuylab yurgan. Shuning uchun unga «Oshiq Umar» degan nom berilgan.

Shoir ko'pgina Sharq mamlakatlarida, jumladan, Dog'iston, Ozarboyjon, Eron, Turkiya kabi joylarda bo'lib, qardosh turkiy xalqlarning hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishdi. U yerlardan olgan taassurotlarini she'rlariga ko'chirdi. Oshiq Umarning ko'pgina she'rlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bu she'rlar asosan ishq-muhabbat, vafo-sadoqat, diniy ma'rifat mavzusida yozilgan. Shoir she'rlarida falsafiy teranlik chuqur lirizm bilan qorishib ketgan. Sharq didaktik she'riyatining sehrlovchi jozibalari ham Oshiq Umar she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biri.

Shoiring «Gunoh yo'q», «Ne desang de», «Sen bir yonu men bir yon», «Dunyo» «Qizg'anaman» kabi she'rlari juda go'zal va katta mahorat bilan yozilganligi bilan hozirgacha xalq orasida mashhur bo'lib kelayotir. Shoir she'rlarini o'qir ekansiz, unda Ahmad Yassasiy va Muhammad Fuzuliy she'riyatining an'analari ilg'ab olasiz.

Avvalgi kotiblar oshiq baxtini qora yozmishlar,
Mening qora baxtim qora ustiga qora yozmishlar
Netay hakimi Luqmonu meni bechora yozmishlar
Taqqir o'qlariga Umar, ko'krak kirib turma bekor
Go'zallar oz bo'lsa hamki, ko'ksimga yara yozmishlar.

kabi misralar Fuzuliy ijodidagi xuddi shunday radifli she'rlarga hamohang ekanligi sezilib turibdi. Qo'yidagi murabba' she'rlarda esa, biz Yassaviyona donishmandlikning, tasavvuf didaktikasining izlarini ko'ramiz.

Inson borki, bir narsaga moyildir,
Qulay nima, mushkilot ne bilmaslar
O'ylamaslar bu dunyoning so'ngini
Hayot nima, yo mamot ne, bilmaslar.

Shaytonga ergashib gunoh isyonda
Nafsini tiyolmay sayri -sayronda,
Qurib anjumanlar davru davronda,
Dunyong nima, oxirat ne, bilmaslar.

Qrim-tatar yozma adabiyotida «baytlar» ham juda ko'p yozilgan. Bu she'rlar bir baytdan iborat bo'lib, unda juda katta falsafiy ma'no aks ettiriladi. Baytlar asosan, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ishq-muhabbat kabi mavzularda bitilgan. Bu o'zbek adabiyotidagi «fard»larga o'xshash she'riy janrdir.

XVII asr qrim-tatar adabiyotida «Sayohatnoma»lar yozish ham an'anaga aylangan. Jonmuhammad nomli shoirning «Safarnoma» dostoni bunga misol bo'la oladi. Said Muhammad Rizo ismli shoirning «Yeti sayyora» nomli asari ham Sharq adabiyoti an'analari ruhida yozilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida esa, qrim-tatar adabiyotida demokratik va ma'rifatparvarlik oqimlari shakllanishi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, qrim-tatar ma'rifatparvari *Ismoilbek G`aspiralining* faoliyati butun turk dunyosini g'aflat uyqusidan uyg'otishga katta turtki bo'ldi.

ISMOILBEK GASPIRALI 1851-yilning 21-martida – qutlug' Navro'z kunida Yaltaning Gaspra qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Mustafobey Kavkaz va Qrimning general-gubernatori knyaz Vorobsovg'a tarjimon bo'lib ishlagan, sadoqatli xizmati uchun 1853-yilda poruchik unvoniga Musharraf bo'lib, dvoryan martabasiga ko'tarilgan. Lekin ko'p o'tmay, Qrim urushi boshlanadi. Oila Boqchasaroyga ko'chib keladi. Yosh Ismoilbekning tarbiyasida onasi Fotima va enagasi Habibaning xizmatlari katta bo'ldi.

Ismoilni 8 yoshida boqchasaroylik Hoji Ismoilning eski maktabiga beradilar. 10 ga kirganda esa, otasi Mustafobey onasi Fotimaning e'tirozlariga qaramasdan, uni Oqmachit (Simferopol)dagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. Unda ikki yil o'qigach, Voronej (Yol Kermion)dagi ofitserlar harbiy o'quv yurtiga o'tadi. O'n uch yoshida Moskvadagi Mulyutin gimnaziyasiga o'qishini ko'chiradi. Shu yillari ayrim rus ziyolilarida avj olgan buyuk rus millatchiligi Mulyutin ginnaziyasiga ham kirib kelgan edi. Bu esa Ismoilbekka o'zlikni anglash hissini uyg'otadi. 1868-yilda Ismoilbek Gaspirinskiy Moskvadagi o'qishni bitirib, Boqchasaroyga qaytadi. Sohasini butunlay o'zgartirib Simferopol erlar gimnaziyasiga o'qiydi va rus tili o'qituvchisi

shahodatnomasini olib, Zanjirli madrasasida rus tilidan dars bera boshlaydi. O'qish-o'rganish ishtiyoqi uni 1872-yilda Fransiya boshlab keladi. Vena, Myunxen, Shtutgartda bo'ladi. Parijda I.S.Turgenev bilan uchrashadi. Unga assistant-kotib bo'lib ishga kiradi. Fransuzchani mukammal egallaydi. Mashhur Sarbona universitetiga o'qishga qatnaydi. Ispaniyaga sayohat qiladi. Qaytishda Turkiyaga keladi. 1876-yili Boqchasaroyga qaytib keladi va Zanjirlida rus tilidan saboq beradi. Shu yili u Yaltalik savdogaming qizi Samurxonimga uylanadi. Biroq ular uzoq yashay olmaydilar. Ismoil yana mutolaaga beriladi. 1878-84-yillar Boqchasaroy shahar boshlig'i bo'lib ishlaydi. 1882-yili mashhur qozon tatarlaridan Akchurinning qizi Zuhraxonimga uylanadi. Ular yigirma yil baxtli turmush quradilar. Olti farzandni tarbiyalaydilar. 1882-yilda nashriyot ochadi. "Tarjimon" gazetasini chiqara boshlaydi. 1884-yili Gaspirinskiy yana bir ishga qo'l uradi. 12 bolani yangicha – "usuli jadid" bilan o'qitishga kirishadi. 40 kunda burro savodini chiqaradi. Ular uchun "Xo'jai sibyon" (Bolalar muallimi) nomli birinchi darslikni yaratadi. 1898-yilda uning "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobini yaratadi. Kitobda maktablarning "namunali plani"dan "namunali dars jadvaligacha" berilgan. 1890-yildan 1905-yilgacha Ismoilbek publisistika bilan shug'ullanadi. 1905-yilda "Ittifoqi muslimin" jamiyatini tuzadi. Jamiyatning birinchi qurultoyini ham o'tkazadi. Ismoilbek Gaspirali 1914-yilda vafot etadi. Ismoil Gaspirinskiy nomi bilan G'arb davlatlarida ham mashhur shaxs bo'lgan. Uni Fransiya tinchlikni saqlash uchun beriladigan Nobel mukofatiga tavsiya etishgan.

XX asr qrim-tatarlari adabiyoti turli janrlarda yozilgan boy adabiyot hisoblanadi. Lekin sho'ro hukumati qrim-tatar xalqini 1944-yili deportatsiya qildi. Ular O'rta Osiyo respublikalariga, asosan, O'zbekistonga majburan ko'chirib keltirildi. Xalq juda og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Butun bir millat «sho'rolar dushmani» deb e'lon qilingan edi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib qrim-tatarlarga vataniga qaytishga ruxsat berildi. Shuning uchun qrim-tatarlarining keyingi yillardagi adabiyoti, asosan, O'zbekistonda yaratildi, desak xato qilmaymiz.

Bu davrda Shamil Alyadin, Abduraim Oltongli, Yusuf Bolat, Cherkez-Ali Ametov, Emil Amet, Riza Xamid, Ayder Osmon, Uriye Amet qizi singari ijodkorlar qrim-tatar adabiyotini rivojlantirishga o'zlarining katta hissasini qo'shdilar.

XX asr qrim-tatar adabiyotining yirik vakillaridan biri Shamil Alyadin hisoblanadi. U 1912-yilda Qrimda Aypatri tog'ining yon bag'ridagi qishloqda tug'ilgan. Bog'chasaroyda, Simferopol kabi shaharlarda o'qib ta'lim oldi. 30-yillarning boshlarida Toshkentga kelib, melioratsiya institutida o'qidi. Shundan keyin O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Shamil Alyadinning birinchi kitobi 1932-yilda nashr qilingan bo'lib, u «Yer kuldi, ko'k kuldi» nomli she'riy to'plam edi. Keyinchalik «Umr» «Tasalli», «Senmisan, o'g'lim» singari asarlari e'lon qilindi. Adibning «Qurbonlar nomi bilan» qissasida Mustafo Chovushli xonadoniga tushgan musibatlar hikoya qilinadi. Ana shu bir xonadon taqdirini tasvirlash orqali butun qrim-tatar

xalqining boshiga tushgan katta fojia tasvirlab berilgan. Stalin repressiyasiga uchragan kishilarning azob-uqubatda o'z tug'ilgan joylaridan ommaviy suratda ko'chirilishi, urushning dahshatli vayronagarchiliklari, odamlar boshiga tushgan musibatlar katta mahorat bilan hikoya qilingan. Qissa qahramonlari Dilyaver, Mustafo, Server, Zaverjat kabi oddiy kishilardir. Dilyaver frontda qahramonliklar ko'rsatib halok bo'ladi, lekin uning oilasini «xalq dushmani» deb deportatsiya qiladi. Ana shunday tarixning xatosi millionlab kishilarning taqdirini azob-uqubatlarga ko'yib o'zgartirib yubordi.

Sh.Alyadinning «Agar sevsang», «Chiroqlar tonggacha yonadi» kabi romanlari ham bor. Bularda qrim-tatarlarining O'zbekistondagi qurilishlarda katta jasoratlar ko'rsatib mehnat qilganliklari hikoya qilingan.

1980-yildan boshlab O'zbekistonda qrim-tatar tilida «Ildiz» nomli jurnal nashr etildi. Bu jurnalda qrim-tatar yozuvchilarining ko'plab asarlari nashr etilmoqda. Ana shunday yozuvchilardan biri Cherkez – Ali Ametovdir. U Qrimning «Qush qoya» degan qishlog'ida 1925-yilda kambag'al dehqon oilasida o'n birinchi farzand bo'lib tug'ildi. Uning yoshlik va o'smirlik davri qrim-tatar xalqi uchun juda murakkab bo'lgan davrda kechdi. Badarg'a qilingan xalq bilan O'zbekiston va Qazog'istonning turli joylarida yashashga to'g'ri keldi. 1956-yildan keyin O'zbekistonda doimiy yashab qoldi. Uning ilk she'riy to'plami «Irmoqlar» 1940-yilda nashr qilingan edi. Keyinchalik shoir «Orzularim», «Yer nafasi», «Ko'z nurlari» kabi qator she'riy to'plamlar, «Yashil to'lqinlar» nomli hikoya va ocherklar to'plami, «Jumardlik», «Tong og'ushida» nomli romanlarini nashrdan chiqardi.

Ma'lumki, qrim-tatar adabiyotida ilk roman 1909-yilda yozilgan Usein Shomil To'qtarg'ozining «Soadat oroli» nomli asari hisoblanadi. Shundan keyin Shomil Seydametning «Ufqqa peshvoz», Yusuf Bo'latning «Alim» kabi romanlari chop etilgan edi. Ana shu adiblar an'anasi keyingi yozuvchilar avlodi tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirildi.

Keyingi yillar qrim-tatar adabiyotida Ayder Osmon o'zining g'oyaviy-badiiy tomondan pishiq ishlangan hikoyalari bilan mashhur bo'ldi. Uning «Olishuv», «Mening do'stim», «Yo'lakdagi odamlar», «Hijron», «Armon», «Tanish ko'zlar» kabi hikoyalari o'quvchilar orasida juda mashhur bo'ldi. Yozuvchining «Peshona» nomli hikoyasida Suvade nomli qishloq qizining mustaqil hayotga qadam qo'yishida ko'p xatoliklarga yo'l qo'ygani tasvirlangan. U sevgan yigiti Emirsaleni tashlab shahardan kelgan olifta, satang yigit Azamatning tuzog'iga tushib qoladi va unga turmushga chiqadi. Keyin esa bu o'ylamay qilingan ishdan pushaymon bo'ladi.

Azamatdan ajrab o'z qishlog'iga qaytib keladi. Bu hikoyadan chiqadigan xulosa yoshlar uchun juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yozuvchi ularni hayot yo'lini tanlashda adashmaslikka, ehtiyot bo'lishga chaqiradi va ogohlantiradi.

90-yillarda qrim-tatar xalqiga tarixiy vataniga qaytishga ruxsat berildi. Hozir qrim-tatar tilidagi adabiyotga ko'pgina talantli yoshlar kirib kelgan. Ular bu qadimdan boy adabiy merosga ega bo'lgan adabiyotni yanada boyitmoqdalar.

Mavzu yuzasidan ilova:

TATAR DRAMTURGIYASI

"Uy egasi" Mansur Gilyazov

"Ilgizar plyuz Vera"
Tufan Minnulin

"Xon qizi"
Rizvon Hamid

"Moviy tog'"
Rustam mingalim

Darsni mustahkamlash: Ma'ruza boshida berilgan BBB jadvali to'ldiriladi. Testlardan foydalanib dars mustahkamlanadi.

1. "Qozon bayt", "Xonaki sulton" asarlari nechanchi asrga taalluqli?

a) VII-VIII asr; b) IX-X asr; s) XII-XIII asr; d) XIV-XV asr

2. Realistik adabiyotning shakllanishida qaysi ijodkorlar hissa qo'shgan?

a) Mulla Utiz Imeniy, Ibodulla eshon; b) Ibodulla eshon, Shamsuddin Sufi; s) Abdul Nosir Kursaviy, Mulla Utez Imeniy; d) Abdul Nosir Kursaviy, Abdul Jabbor Qandaliy

3. Qaysi tatar xalq ertagida donishmand qashshoq cho'pon boylar ustidan g'alabasi efoda etilgan?

a) Ayyor tovoq; b) Salam Turxan; s) Yetti qiz haqida ertak; d) Mergan botir

4. Tatar adiblari tomonidan sho'ro tuzumiga qarshi qanday uyushma tashkil etiladi?

a) Djigitan; b) Tatarlar; s) Shuroiy ummat; d) Ittifoqi musulmin

5. "Favakixemdjelyasya" asari kimning qalamiga mansub?

a) Qayum Nosiriy; b) G'afur Kulahmedov; s) S.Rameyev; d) to'g'ri javob yo'q

6. Fantastika bilan bog'liq baytni aniqlang?

a) "Shamsi Kamol haqida bayt"; b) Qosimlik savdogar Ibray haqida bayt; s) Sok-soke haqida bayt; d) "Yetti qiz haqida bayt"

7. "Student va shogird" kimning qalamiga mansub?

a) R.Faxruddinov; b) Muso Oqjigit; s) Z.Vigi; d) G.Ilyos

8. G.Tukay yashab ijo etgan davr?

a) 1886-1913; b) 1890-1920; s) 1888-1915; d) 1893-1925

9. "Aldayotgan tong" asari muallifi?

a) I.Salaxanov; b) F.atifiy; s) F.Safin; d) A.Gilyazov

10. "Shuroiy ummat" qurultoyiga raislik qilgan adibni aniqlang

a) Mustay Karim; b) Abdulla To'qay; s) Ismoilbek Gaspirali; d) Hodi Toqtosh.

Mustaqil ish:

1. Ziyonet.uz internet tarmog'idan totar adabiyoti tarixini o'rganish
2. I.Gaspiralinig "Hayot va mamot masalasi" asarini o'qish.
3. G.Tukayning 3 ta sherini yod olish
4. Musa Jalilning 3 ta she'rini yod olish

Darsni yakunlash.: "Uyg'ur adabiyoti tarixi" mavzusini o'rganish.

Adabiyotlar

1. M.Karim. Olovni tashlama, Prometey! //«Sharq yulduzi» jurnali. 1984. 10-11 sonlari.
2. M.Karim. Oy tutilgan tunda. Tarjima. Zulfiya asarlari to'plami 2-jildida – Toshkent, 1984.
3. Bikchentayev A. Senga jannat va'da qilmayman. – Toshkent, 1969.
4. Axiyor Hakimov. Karvon. roman. //«Jahon adabiyoti» jurnali 2001 yil 1,2,3-sonlar.
5. Abdulla To'qay. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1974.
6. Muso Jalil. Maobit daftari. – Toshkent, 1969.
7. Fotih Amirxon. Fathulla Hazrat. – Toshkent, 1962.
8. Begali Qosimov. Izlay-izlay torganim. – Toshkent, 1992.
9. Oshiq Umar. She'rlar. //«Jahon adabiyoti» jurnali. 1998 yil. 4-son.
10. Qosimov Begali. Ismoilbek G'asprali. Biografik ocherk. – Toshkent, 1992.
11. Ayder Osmon. Tanish ko'zlar. –Toshkent, 1991.
12. Shomil Alyadin. Chiroqlar tonggacha yonadi. Roman. –Toshkent, 1984.
13. Cherkez-Ali Ametov. Yashil to'lqinlar. –Toshkent, 1976.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Qadimgi turkiy yodgorliklar.....	5
Ozarbayjon mumtoz adabiyoti.....	20
Hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti.....	33
Turk mumtoz adabiyoti.....	44
Hozirgi zamon turk adabiyotidagi yo'nalishlar.....	80
Tatar adabiyoti tarixi.....	96

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

Uslubiy qo'llanma

I qism

Тузувчи

f.f.n. Mahfuza Davronova

Muharrir G.Raximova

Musahhih M. Ro'ziboyev

Tex.muharrir M. Ro'ziboyev

2008-yil 19-iyun 68-buyruq.

2012-yil 2-iyulda nashirlik bo'limiga qabul qilindi.

2012-yil 29-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.


Bichimi 60x84/ 1, 16. «Times New Roman» garniturasida. Ofset qog'ozi.

«Risograf» matbaa uskunasiida bosildi. Shartli bosma tabog'i -7,25

Nashriyot hisob tabog'i-7,25. Adadi 25 nusxa.105-buyurtma.


SamDU bosmaxonasida chop etildi.

140104. Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



6500c





ISBN 978-9943-4121-7-0



9 789943 412170 >